Yuqorida kasaba uyushmalariga umumiy taʼrif berib oʻtgan ekanmiz, endilikda masalaning gender tenglik bilan aloqadorligiga yuzlansak, shuni ayta olamizki, ayollar va erkaklar huquqlari butun jamiyatda mehnatkashlar orasida ham albatta teng boʻlishi darkor. Keltirgan taʼrifimizda kasaba uyushmalari jinsiga qaramasdan barcha aʼzolarining huquq va manfaatlarini himoya qilishi kerak. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, kasaba uyushmalari jamoat harakati sifatida butun jamiyatda gender tenglikni taʼminlashga ham xizmat qiladi. Baʼzi vaziyatlarda biz jamiyatda ish faoliyati davomida xotin-qizlarning kamsitilishi yoki baʼzi huquqlari buzulishi holatlariga duch kelamiz. Asosan beriladigan maosh yoki ragʻbatlantirishlardagi tafovutlarda buni sezish mumkin. Baʼzi jamiyatlarda shunday holatlar koʻplab mavjudligi sabab, feministik harakatlar ancha rivojlangan.

Endilikda yurtimizdagi kasaba uyushmalari faoliyatiga toʻxtaladigan boʻlsak, bu haqida Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi, „Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari toʻgʻrisida“gi Oʻzbekiston Respublikasi qonuni va boshqa qator hujjatlarda

belgilangan. Kasaba uyushmalari tuzulishi asosan federalizmga asoslangan bo'ladi. Shu bilan bir qatorda barcha kasaba uyushmalari teng huquqlarga ega bo'lish bilan birgalikda, ular faoliyatlari davomida barcha davlat boshqaruvidagi idoralar, turli siyosiy partiyalar va xo'jalik idoralaridan holi tarzda ish olib borishadi va hech kim oldida hisobdor bo'lishmaydi. Hech kim tomonidan nazorat qilinmaydi ham, biroq, ba'zi-bir qonun hujjatlarida keltirilgan holatlarga bundan mustasno holatlar bo'lib hisoblanadi.

Kasaba uyushmalarining ahamiyati anchagina kattadir. Ular o'zlarinig moliyaviy mustaqilligiga ega uyushmadir. Ularning byujet mablag'lari faqat o'zlariga tegishli, tashkilot ham ularga yordam ko'rsatishi va mablag'lar ajratib turishi mumkin. Shuningdek, o'rtada tuzilgan shartnomaga muvofiq tashkilot kasaba uyushmalari uchun o'z mulki bo'lgan bino yoki xonani, shu bilan birga, dam olish joylari va oromgohlar va boshqa sog'lomlashtirish maskanlarini yoki madaniy-marifiy maskanlarni kasaba uyushmalari uchun tekin foydalanishga berishi mumkin. Albatta bu yaratilgan imkoniyatlar ish samarorligini va hodimlarning mehnat faoliyatini oshirishga qaratilgan bo'ladi.

Xotin-qizlarga ham aynan kasaba uyushmalari tomonidan keng imkoniyatlar va yaxshi ish sharoitlari yaratib kelinmoqda. Misol uchun, "Navoiyazot" AJda 545 ishlovchi ayollar sanatoriy-profilaktoriyda sog'lomlashtirilgan bo'lsa, uy mehnati bilan shug'ullanuvchi ayollarning 20 nafar farzandlarining "Oftobjon" bolalar sog'lomlashtirish oromgohida dam oldirilishi ta'minlandi. Bu kabi ishlar butun yurtimizda tashkilotlar tarkibida tashkil etilgan kasaba uyushmalari tomonidan tashkil etilib kelinmoqda.

Shuningdek ayollar o'rtasida kasanachilik faoliyatini rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Bunga ham misollar talaygina bo'lib, ulardan bir "Farg'ona neftni kayta ishlash zavodi" UKdir. " "Farg'ona neftni kayta ishlash zavodi" UK da 546 nafar kasanachilar faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularning 526 nafarini ayollar tashkil etadi. Kasanachi ayollarga korxonaning jamoa shartnomasida belgilangan barcha imtiyozlar qo'llaniladi. Xususan, ular uchun 15 ish kunidan kam bo'lmagan muddatdagi mehnat ta'tili belgilangan. Homilador ayollar 5 oylik muddatda o'rtacha oylik ish xaqi saqlangan xolda tug'ish oldi ta'tiliga chiqariladi. Farzand tug'ilganda O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam ish haqining 5 barobari miqdorida suyunchi puli beriladi"[3].

Xuddi shu nuqtada ham yurtimizda olib borilayotgan zamonaviy siyosat nafasi ufurib turibdi va bu endilikda kasaba uyushmali orqali. Oldinlari ayollarning mehnat huquqlari buzulish holatlarini ko'p kuzatish mumkin edi. Xususan homiladorligi sabab ishdan butkul bo'shatish yoki ayni shu sabab va farzandi borligi uchun ishga qabul qilmaslik holatlari hozir faqat o'mishga aylanib bormoqda.

Bugungi kunda kasaba uyushmalari ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar bilan ishlash va "Temir daftar"ga kiritilganlar bilan ishlash borasida ham talaygina ishlarni amalga oshirmoqda. "Respublika Kasaba uyushmalari Federatsiyasi rahbarligidagi Ishchi guruhlarining har bir a'zosi bir vaqtning o'zida og'ir vaziyatga tushgan 30 yoshdan yuqori bo'lgan "Ayollar daftari"ga kiritilganlar bilan ishlash tizimida amalga oshirilayotgan ishlarni tahliliy o'rganib, bu borada zarur amaliy yordamlarni ko'rsatmoqdalar. Bu jarayonlarda xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb etish, ular bandligini ta'minlash masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda"[4].

So'z isboti bilan deganlaridek, shu yilning o'zida olib borilgan ishlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Samarqand viloyatiga nazar tashlaymiz. Joriy yilda viloyatda "Ayollar daftari"ga 104 mingdan ortiq ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar kiritilgan. Ulardan 60 ming nafariga esa, tegishli tashkilotlar tomonidan amaliy yordamlar ko'rsatilgan. Ishsizlarni ish bilan ta'minlash, imtiyozli kreditlar ajratish, I va II guruh nogironligi bo'lgan yoki qaramog'ida nogiron farzandi bor xotin-qizlarga ham moddiy yordamlar berilmoqda. "28 nafar xotin-qizlarning uy-joylari ta'mirlanib, 211 nafar uy-joyga muhtoj xotin-qizlarning ijara kompensatsiyalari to'lab berildi. Joylarda o'tkazilayotgan xatlovlar natijasida ko'plab xotin-qizlarning bandligi ta'minlanib borayotgani ta'kidlandi".[5] Bu bitta viloyatda amalga oshirolyat ishlar holos. Butun mamlakat bo'ylab ham bu ishlar doimiy tarzda amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Kasaba uyushmalarining erkin va mustaqil uyushma sifatidagi faoliyati butun ishchilar manfaati uchun xizmat qilib kelmoqda. Nizolarning oldini olish va shartnomalar tuzish, ularga amal qilinishini nazoratini amalga oshiradi. Shuningdek biz ko'rib o'tganimizdek, xotin-qizlar va erkaklar huquqlarini tenglashtirish va ish jarayonida sog'lom raqobatni ta'minlashda hissasi ham katta. Ayollarga ijtimoiy yordam ko'rsatish va mustaqil tadbirkorlikni yo'lga qo'yishdagi moddiy yordamlari ham tahsinga sazovor. Kasaba uyushmalari bugungi kunda yurtimiz rivojida,

tashkilotlarda hodimlarning erkin faoliyatida va albatta inson huquqlarini ta'minlashda katta hissa qo'shmoqda. Ular mamlakatimiz uchun juda foydali erkin uyushmalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kasaba_uyushmalari
2. <https://lex.uz/docs/-4631281>
3. <https://kun.uz/news/2015/08/03/kasaba-uyushmalari-hotin-qizlar-manfaatlariga-etibor-qaratmoqda?q=%2Fuz%2Fnews%2F2015%2F08%2F03%2Fkasaba-uyushmalari-hotin-qizlar-manfaatlariga-etibor-qaratmoqda>
4. <https://kasaba.uz/kasaba-uyushmalari-kumagida-ayollar-bandligi-taminlanmoqda/>
5. <https://zarnews.uz/uz/post/kasaba-uyushmalar-tashkiloti-xotin-qizlar-manfaatini-qanday-himoya-qilyapti>.

MEHNAT JAMOASIDA KASABA UYUSHMASINING O'RNI VA AHAMIYATI

Berdiniyazova N.K.¹

Annotatsiya. Mazkur maqolada mehnat jamoalarida xodimlarning kasaba uyushmasi faoliyatiga bo'lgan zarurati, uyushmaning o'tgan davr bilan bugungi kun faoliyatdagi imkoniyatlar farqi va kamchiliklari, mavjud muammolar doirasida ularni barataraf etish yuzasidan takliflar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: kasaba uyushma, xodim, ish beruvchi, moddiy va ijtimoiy yordam, jamoatchilik instituti.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF TRADE UNIONS IN THE LABOR COLLECTIVE

Annotation. This article discusses the necessity of trade union activities for employees in labor collectives, the differences and shortcomings in the opportunities of trade unions' past and present activities, and proposes solutions to address existing problems.

Key words: trade union, employee, employer, material and social support, public institution.

¹ Berdiniyazova Nurya Koshkinbayevna, QQR Adliya vazirligining huquqiy axborot sho'basi boshlig'i, I darajali yurist, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistratura b'limi bosqichi, xalqaro boshqaruv yo'nalishi 1 kurs talabasi, tel: +998 97 349 52 55.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, byurokratik to'siqlarning oldini olish va bartaraf qilish, inson manfaati, uning mehnat qilishi, erkin kasb tanlashi, adolatli mehnat sharoitida ishlashi, o'z vaqtida dam olishi, qariganda yoshga doir pensiya yoki nafaqa olishi, ehtiyojmand aholi qatlamining o'z vaqtida ijtimoiy himoya paketlaridan foydalana olishi kabi imkoniyatlarning yaratilishi ijtimoiy va huquqiy davlatni qo'rish yo'lidagi qadamlarimizning bir qismidir va albatta Inson manfaati birinchi o'rinda turgan demokratik jamiyat sari Yangi O'zbekistonning ezgu maqsadlariga aylangan tamoyillaridandir.

Mustaqil davlatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida davlat tashkilotlari qatorida jamoatchilik birlashmalari sonini ko'paytirish va shu orqali qo'shimcha tarizda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, buning natijasida ochiqlikni ta'minlash, turli huquqbuzarliklarning oldini olish, aholining huquqlari ta'minlanishiga erishish maqsad qilingan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Keling avvalo, jamoatchilik birlashmalari qatoriga kimlar kirishiga to'xtalamiz.

Davlatning oliy yuridik kuchga ega bo'lgan Konstitutsiyasining 70-moddasida O'zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar hamda fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi, jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ularning faoliyatini taqiqlab yoki cheklab qo'yish faqat sud qarori asosidagina amalga oshiriladi deyilgan.

Endi, mazkur jumalari qatorida turgan kasaba uyushmalari Konstitutsiyada belgilanganidek xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar. Anig'roq aytadigan bo'lsak, *kasaba uyushmasi* – fuqarolarning o'z faoliyati yoki o'qishi turi bo'yicha umumiy kasbiy manfaatlarini bilan bog'liq bo'lgan, ularning mehnatga oid, boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish maqsadida tuziladigan, o'z ustavi asosida faoliyat ko'rsatadigan ixtiyoriy jamoat birlashmasi hisoblanadi.

Zamon talabi bilan sohaga oid bir qancha qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilingan, eskilari yanada takomillashtirilgan va buning natijasida

mehnat jamoasida xodimlarning mehnat qilish davomida zarur bo'ladigan huquqlari ta'minlanishiga erishib kelinmoqda.

Xo'sh, kasaba uyushmasi aslida biz uchun qanchalik zarur va bugungi kunda amalda haqiqatdan ham xodimlarning mehnat muhofazasi ta'minlanishiga erishilmoqdami, kecha qanday edi, bugun qanday va ertaga qanday bo'ladi, bu boradagi qo'shimcha takliflar doirasida fikrlarni bayon qilamiz.

Bundan o'n, o'n besh yillar oldinlari mehnat jamoasida xodimlar kasaba uyushmasining o'rnini deyarli sezishmasdi, hattoki kasaba uyushmasiga a'zo bo'lish maqsadida ariza yozib, buning uchun oylik ish haqisidan to'lanadigan bir foizlik a'zolik to'lovlarini to'lashni odatiy holat deb tushunishardi, uning afzalliklaridan, imtiyozlaridan foydalanish mumkinligini bilishmasdi ham. Buni ikki tomonlama tushunish mumkin, ya'ni bu imtiyozlar haqida idoradagi boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti boshlig'i tushuntirmasdi yoki tushuntirishsa ham xodimlarning o'z huqularidan foydalanishi mumkinligi odatiy tusga kirmagandi.

Bugungi kunga kelib esa, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyati zamonga hamnafas tarzida yuksalib borayotganligi sababli, kasaba uyushmasining deyarli barcha imkoniyatlardan foydalanib kelmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Kasaba uyushmalari, ularning birlashmalari, bo'linmalari va boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotlari ish joylarida ish beruvchilarning mehnat to'g'risidagi qonunchilik talablariga va mehnatni muhofaza qilish qoidalariga, shuningdek jamoa kelishuvlari hamda jamoa shartnomasi, ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishilgan holda qabul qilingan boshqa hujjatlar qoidalariga rioya etishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish huquqiga egadir.

Hozirgi kunda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi 14 ta tarmoq kasaba uyushmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat, Toshkent shahar kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmalarini, 6,1 mln.dan ortiq kasaba uyushmalari a'zolarini birlashtiradi, shuningdek federatsiya tasarrufida 9 ta tashkilot mavjud.

Kasaba uyushmalari tashkilotlariga mehnatkashlardan tushayotgan murojaatlarning 60 foizdan ortig'i mehnat munosabatlariga oid bo'lib, Federatsiya tizimida tashkil etilgan 30 ta "Ishonch telefonlari" mazkur

murojaatlarini tezkor qabul qilish va ko'rib chiqish, ular yuzasidan huquqiy maslahatlar berish va aniq choralarni ko'rish imkoniyatini yaratdi.

Shu o'rinda mavjud imkoniyatlar bilan bir qatorda amaliyotda kamchiliklar ham bor. Masalan, xodimlarning sanotiriylarda sog'liklarini tiklashlari uchun yillab navbatda turishlari, hattoki ayrim xodimlarning navbati yetmasdan pensiyaga chiqib, boshqa ishga o'tib yoki boshqa vaziyatlarda ishdan bo'shab ketish holatlari ham yo'q emas. Bu esa o'z navbatida ishonchsizlikning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, idoralardagi boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti boshlig'i aynan shu idoradagi rahbar bo'ysunuvida mehnat faoliyatini yuritishining o'zi ayrim hollarda xodimning emas balki, ish beruvchining yozilmagan buyrug'i (og'zaki) asosida qaror qabul qilishi holatlari ham mavjuddir, ya'ni xodimning manfaati ikkinchi o'ringa chiqib qolish xavfi yuqori. Masalan, Mehnat kodeksining 161-moddasi ikkinchi qismi beshinchi bandiga ko'ra ish beruvchining tashabbusi bilan xodimning o'z mehnat majburiyatlarini bir marta qo'pol ravishda buzganligi munoasbati bilan mehnat shartnomasini bekor qilish yuzasidan ish beruvchi kasaba uyushmasi tashkilotiga taqdimnoma kiritganida adolatli qaror qabul qilinishida shaffoflik tamoyiliga amal qilmasligi oqibatida xodimning huquqi buziladi va bir qancha avvoragarchilikni yuzaga keltiradi, bu vaziyatda xodim huquqi muhofaza qilish organiga murojaat qilib o'z huquqini tiklashi mumkin, ammo bu davrda xodim ma'naviy zarar ko'rish, vaqti, sog'lig'i ketishi ham e'tibordan chetda qolmasligi zarur.

Shu nuqta'i nazardan ta'kidlash joizki, mehnat jamoalarida kasaba uyushmasi tashkiloti raisini aynan o'sha korxonada ish beruvchisining bo'ysunuvidan alohida tarzda faoliyat yuritish amaliyotini joriy qilish lozim.

Amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq, shu jumladan Vazirlar Mahkamasining 57-son qarori bilan tasdiqlangan "Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom"ga ko'ra, agar kasaba uyushmasini alohida nodavlat notijorat tashkiloti sifatida ro'yxatdan o'tkazadigan bo'lsak tashabbuskor fuqarolar ro'yxati, ya'ni kamida uch ming kishining ro'yxati taqdim qilinishi lozim bo'ladi.

Mazkur qarorda belgilangan talablarni qayta ko'rib chiqqan holda, kasaba uyushmasi tashkiloti faoliyat yurituvchi barcha muassasa, idoralarda xodimlarning huquq va manfaatlari ishonchli himoya qilinishini ta'minlash

uchun birinchi navbatda kasaba uyushmalarini alohida institutga aylantirish kerak deb hisoblayman.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, fuqarolarning kasaba uyushmalariga birlashish huquqini amalga oshirish, shuningdek kasaba uyushmalarini tuzish va ularning faoliyatini tashkil etish sohasida inson manfaati, xodimlarning huquqlari ta'minlanishida albatta kasaba uyushmasining o'rne alohida hisoblanadi.

Demak, kasaba uyushmasi tashkiloti mustaqilligini ta'minlash orqali biz ochiqlik va shaffoflikni ta'minlagan holda "Avval – inson, keyin jamiyat va davlat" degan g'oyani ilgari surgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/6445145>.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. <https://lex.uz/docs/6257288>.
- 3.O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasining portali, <https://kasaba.uz/uzbekiston-kasaba-uyushmalari-federatsiyasining-tarihi-2>.
- 4.O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. <https://lex.uz/docs/6257288>.
5. O'zbekiston Respublikasining "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi O'RQ-588-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/4631281>.
6. Vazirlar Mahkamasining 57-son qarori bilan tasdiqlangan "Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom", <https://lex.uz/docs/2356876>.

KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI. MEHNAT MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLISHDA KASABA UYUSHMALARINING ROLI

Kushmakov R. T.¹

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, mehnat munosabatlarini tartibga solishdagi roli, qonunchilikdagi yangi tendensiyalar va xalqaro tajriba chuqur tahlil qilinadi. Maqolada kasaba uyushmalarining huquqiy maqomi, vakolatlari, mehnat munosabatlaridagi ishtiroki, xodimlar huquqlarini himoya qilishdagi o'rne kabi masalalar yoritiladi.

¹ Kushmakov Rasulbek Toshmatjonovich. O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi rasulkushmakov@gmail.com

Kalit so'zlar: kasaba uyushmalari, konstitutsiyaviy-huquqiy asoslar, mehnat munosabatlari, jamoa shartnomalari, mehnat nizolari, xodimlar huquqlari, O'zbekiston qonunchiligi, xalqaro tajriba.

CONSTITUTIONAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF TRADE UNION ACTIVITIES: THE ROLE OF TRADE UNIONS IN REGULATING LABOR RELATIONS

Abstract. This article deeply analyzes the constitutional and legal basis of trade unions in the Republic of Uzbekistan, their role in regulating labor relations, new trends in legislation and international experience. The article highlights such issues as the legal status of trade unions, their powers, their participation in labor relations, their role in protecting the rights of workers.

Key words: trade unions, constitutional and legal framework, labor relations, collective bargaining agreements, labor disputes, workers' rights, legislation of Uzbekistan, international experience.

Globalashuv jarayonlari va bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat munosabatlari tobora murakkablashib bormoqda. Bu esa xodimlarning huquq va manfaatlarini samarali himoya qilish mexanizmlarini yaratishni taqozo etadi. Bunday mexanizmlardan biri kasaba uyushmalaridir. Kasaba uyushmalari xodimlarning o'zini o'zi boshqarish tashkiloti sifatida mehnat munosabatlarini demokratik asosda tartibga solish, ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish va ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari faoliyatini takomillashtirish, ularning huquq va vakolatlarini kengaytirish, mehnat munosabatlaridagi rolini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Yangi O'zbekistonni barpo etishda ham kasaba uyushmalarining o'рни beqiyos. Davlatimiz rahbarining 2022-yildagi "O'zbekiston kasaba uyushmalari xodimlari va a'zolariga" tabrik so'zlarida ham ularning faoliyati va ahamiyati to'g'risida bir qancha ijobiy fikrlarga guvoh bo'lishimiz mumkin. Xususan tabrik so'zda, "O'z oldimizga qo'ygan ulkan va ezgu vazifalarni amalga oshirish, "El aziz, inson aziz" degan olijanob g'oyani yurtimizdagi har bir korxonada va tashkilotda qaror toptirish, mehnatni farovonlik va baxt manbaiga aylantirish ko'p jihatdan kasaba uyushmalari va ularning samarali faoliyatiga ham bog'liqdir." – deb ta'kidlab o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining bir qancha moddalarida kasaba uyushmalariga oid normalarni uchratish mumkin. Ushbu normalar fuqarolarning kasaba uyushmalariga birlashish huquqini kafolatlaydi.

Jumladan, Konstitutsiyamizning 39-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar. Kasaba uyushmalariga uyushish har bir fuqaroga berilgan siyosiy huquqlardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, Bosh Qomusimizning 73-moddasiga ko'ra, Kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar. Kasaba uyushmalariga a'zo bo'lish ixtiyoriydir. Ushbu norma kasaba uyushmalarini tuzish va faoliyat yuritish uchun mustahkam konstitutsiyaviy asos yaratadi.

Shuningdek, kasaba uyushmalarining huquqiy maqomi, huquqlari, majburiyatlari va faoliyatining kafolatlari O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 6-dekabrda "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi O'RQ-588-son Qonuni, Mehnat kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi. "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi Qonunda kasaba uyushmalarining mustaqil jamoat tashkiloti sifatidagi o'rnini, ularning tuzilishi, boshqaruv organlari, a'zolik, moliyalashtirish manbalari kabi masalalar batafsil tartibga solingan. Mehnat kodeksida esa kasaba uyushmalarining mehnat munosabatlarini tartibga solishdagi vakolatlari, mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilishdagi ishtiroki, mehnat nizolarini hal etishdagi roli, mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyati kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan.

Kasaba uyushmalari mehnat munosabatlarini tartibga solishda quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

So'nggi yillarda O'zbekistonda kasaba uyushmalari faoliyatini takomillashtirish, ularning rolini oshirishga qaratilgan bir qator muhim islohotlar amalga oshirildi. "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishidan tashqari, Mehnat kodeksiga kasaba uyushmalarining mehnat munosabatlarini tartibga solishdagi roli va vakolatlari kuchaytiruvchi o'zgartirishlar kiritildi. Kasaba uyushmalarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari kengaytirildi. Ular endilikda ishlab chiqarishdagi

baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarini tekshirishda ishtirok etish, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha jamoatchilik nazoratini amalga oshirish huquqiga ega bo'ldilar.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda kasaba uyushmalari mehnat munosabatlarini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Ularning faoliyati natijasida xodimlarning mehnat huquqlari ishonchli himoya qilinadi, munosib mehnat sharoitlari yaratiladi, ijtimoiy adolat ta'minlanadi. Masalan, Germaniyada kasaba uyushmalari ish beruvchilar bilan teng huquqli sherik sifatida faoliyat yuritadi. Ular jamoa shartnomalarini tuzish, mehnat nizolarini hal etish, korxonalarni boshqarishda ishtirok etish kabi keng vakolatlarga ega. Shvetsiyada kasaba uyushmalari ish bilan ta'minlash siyosatini amalga oshirishda faol ishtirok etadi. Ular ishsizlarga ijtimoiy yordam ko'rsatadi, ularni kasbga o'qitish va qayta tayyorlashga ko'maklashadi. Yaponiyada esa kasaba uyushmalari korxonalarda mehnat unumdorligini oshirish, sifatni yaxshilash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishga hissa qo'shadi.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) kasaba uyushmalari faoliyatini tartibga soluvchi bir qator konvensiyalar qabul qilgan. Jumladan, 87-sonli "Birlashish erkinligi va tashkilotlarga birlashish huquqini himoya qilish to'g'risida"gi Konvensiya, 98-sonli "Tashkilotlarga birlashish huquqi va jamoa muzokaralari olib borish huquqi to'g'risida"gi Konvensiya, 154-sonli "Jamoa muzokaralari to'g'risida"gi Konvensiya kabi xalqaro hujjatlar kasaba uyushmalarining huquqiy maqomini, vakolatlarini, faoliyatining kafolatlarini belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasi XMTning faol a'zosi sifatida ushbu tashkilotning konvensiyalarini ratifikatsiya qilgan va ularning talablarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilmoqda.

ehnat nizolarini sudgacha hal etish mexanizmlarini rivojlantirishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, kasaba uyushmalari zamonaviy jamiyatda mehnat munosabatlarining muhim subyekti sifatida faoliyat yuritadi. Ular xodimlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, munosib mehnat sharoitlarini yaratish, ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda kasaba uyushmalari faoliyatida mavjud muammolarni bartaraf etish, ularning rolini oshirish uchun yuqorida keltirilgan chora-tadbirlarni kompleks ravishda amalga oshirish zarur. Kasaba uyushmalari faoliyatini takomillashtirish, ularning mustaqilligini kuchaytirish, xodimlarni kasaba

uyushmalariga jalb qilish, moliyaviy mustaqilligini ta'minlash, malakali kadrlar bilan ta'minlash, mehnat munosabatlarini tartibga solish, xodimlar huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy sheriklikda ishtirok etish, mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni kuchaytirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, islohotlarni izchil davom ettirish, xalqaro mehnat standartlarini milliy qonunchilikka to'liq implementatsiya qilish orqali O'zbekistonda xodimlarning mehnat huquqlari ishonchli himoya qilinadigan, ijtimoiy adolat qaror topgan jamiyat qurish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yuridik adabiyotlar publish. T- 2023;
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 6-dekabrda "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi O'RQ-588-son Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.12.2019 y., <https://lex.uz/docs/-463128>;
3. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. Yuridik adabiyotlar publish. T- 2023 Abdurahmanov A. Mehnat huquqi. - T.: "Adolat", 2017. - 456 b.;
4. Xalqaro mehnat huquqi. O'quv qo'llanma / Mualliflar jamoasi. - T.: TDIU, 2018. - 320 b.;
5. Kasaba uyushmalari faoliyati: nazariya va amaliyot / Ilmiy maqolalar to'plami. - T.: O'zMU, 2020. - 288 b.;
6. Berg P. The German model of industrial relations: Balancing efficiency and equity. Journal of Industrial Relations, 2015, 57(3), 420-437.
7. Kjellberg A. The Swedish model of labour market regulation. European Journal of Industrial Relations, 2010, 16(1), 3-18.
8. Sako M - The role of enterprise unions in Japanese industrial relations. Journal of Japanese Studies, 2006, 32(1), 1-32.;
9. O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi rasmiy veb-sayti: www.kasaba.uz;
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi "2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6181-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.03.2021 y., 06/21/6181/0182-son;
11. Tursunov Y. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga sharhlar. (ilmiy-amaliy, moddalar bo'yicha sharhlar) T.: Adolat 2015. – B. 8.

НА ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ РОЛИ ПРОФСОЮЗОВ В ПРАВОТВОРЧЕСТВЕ

Абдуллаева Д.К.¹

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы необходимости совершенствования правотворческого процесса, в условиях проводимых социально-экономических реформ в Республике Узбекистан. В качестве основного индикатора прогресса достижения национальных Целей Устойчивого Развития, автор считает первичным обеспечение доступа общественности к правотворчеству и доступа к достоверной и своевременной информации. Что автоматически повысит не только качество принимаемых нормативно-правовых актов, но и обеспечит решению актуальных социальных и экологических проблем, снизит уровень правового нигилизма и социальную напряженность среди населения.

Ключевые слова: устойчивое развитие, правотворчество, стратегия, гражданское общество, гражданский институт, неправительственные негосударственные организации.

KASABA UYUSHMALARINING QONUN CHIQRISHDA ROLINI OSHIRISH YO'LLARI

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida qonun chiqarish jarayonini takomillashtirish zaruriyati muhokama qilinadi. Muallif milliy Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga erishishda asosiy ko'rsatkich sifatida jamoatchilikning qonun chiqarish jarayoniga, shuningdek, ishonchli va o'z vaqtida axborotga kirish huquqini ta'minlashni ko'radi. Bu, o'z navbatida, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning sifatini oshiradi, ijtimoiy va ekologik muammolarni samarali hal etishni ta'minlaydi, huquqiy nihilizm va ijtimoiy taranglik darajasini pasaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, qonun chiqarish, strategiya, fuqarolik jamiyati, fuqarolik instituti, nodavlat notijorat tashkilotlari.

В целях обеспечения волеизъявления нашего народа о строительстве свободного и процветающего, сильного Нового Узбекистана, создания каждому гражданину всех возможностей для развития своего потенциала, воспитания здорового, образованного и духовно развитого поколения, формирования сильной экономики, ставшей важным звеном глобального производства, а также

¹ Абдуллаева Джамияхон Кувонходжаевна. Старший преподаватель кафедры Общепрофессиональных дисциплин Академии труда и социальных отношений.

гарантированного обеспечения справедливости, верховенства закона, безопасности и стабильности в Узбекистане разработана и принята Стратегия-2030, в рамках которой определены основные направления развития на ближайшие семь лет, в частности:

- вхождение в число государств с доходом выше среднего, путем устойчивого экономического развития;
- создание системы образования, медицины и социальной защиты, полностью соответствующей потребностям народа и международным стандартам;
- создание благоприятных экологических условий для населения;
- построение служащего народу справедливого и современного государства;
- гарантированное обеспечение суверенитета и безопасности страны.

Документ инициирован Президентом Республики Узбекистан в ходе его выступления на 78-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН в сентябре 2023 года. В частности, глава государства отметил: «В нашем Основном законе мы подтвердили приверженность принципам прав человека, свободы слова и совести, равенства всех граждан независимо от их национальности, языка и религии. На этой правовой основе была принята Стратегия развития «Узбекистан – 2030». Эта стратегия созвучна Целям устойчивого развития Организации Объединенных Наций, и мы неукоснительно выполняем все наши обязательства».¹

Реализация ИДЕЙ заложенные в Стратегии-2030, в перспективе позволят сформировать подлинно демократическое государство, где воля народа, является единственным источником власти. Фактически, определенные в Стратегии – «Узбекистан – 2030» цели и задачи, служат уникальной «дорожной картой» по реализации Целей Устойчивого Развития² (ЦУР), достижение которых позволит:

1. Создать достойные условия для реализации потенциала каждого человека;
2. Обеспечить благосостояния населения путем устойчивого экономического роста;
3. Сбереечь водные ресурсы и сохранить окружающую среду;

4. Обеспечить верховенство закона, организация государственного управления, ориентированного на служение народу;

5. Последовательно продолжить политику, основанной на принципе «безопасное и миролюбивое государство».

Таким образом, Стратегия 2030 определяет ключевую цель – это повышение стандарта качества жизни населения, путем развития промышленности, включающая направления, обеспечивающие экологическую безопасность и обороноспособность страны, на базе развития научного потенциала страны.

О потенциальных возможностях ННО в рамках Стратегии

Надо констатировать факт, что в последнее время общественность практически отстранена от участия в разработке нормативно-правовых актов, (далее НПА) а её право на такое участие только декларируется, но не исполняется. Что приводит к тому, что принимаемые НПА всех уровней, не выполняют своей основной функции – не обеспечивают адекватное, позитивное регулирование экономических, социальных, экологических и других отношений в обществе.

Пути решения. В качестве рекомендации, автором предлагается внести дополнения и изменения в Закон Руз “О нормативно-правовых актах”, регулирующий отношения в области планирования, инициирования, подготовки, проведения экспертизы, согласования, принятия, опубликования, обеспечения исполнения нормативно-правовых актов, в частности:

- Предусмотреть обязательность проведение общественной экспертизы нормативно-правовых актов всех уровней, устанавливающие права и обязанности граждан или затрагивающие их интересы

- Обязать Министерства и ведомства, органы государственные власти и управления публиковать в средствах массовой информации, интернете разрабатываемые проекты нормативно-правовых актов, для доступа широкому кругу общественности

- Обязать должностные лица государственных органов включать в рабочие группы (комиссии) представителей Федерации профсоюзов РУз, ННО, специализирующихся в области применения этих НПА.

Выводы. Участие общественности в процессе правотворчества, повысит не только качество принимаемых нормативно-правовых актов, но и снизит социальную напряженность в обществе. Федерация профсоюзов Республики Узбекистан являясь не только самой многочисленной негосударственной некоммерческой организацией, представляющая интересы всех слоев гражданского общества, но и самой подготовленной и информированной, имеющая многолетний успешный опыт взаимодействия как с государственными структурами, так и бизнес структурами, должна на постоянной основе проводить информационно-разъяснительную работу о необходимости участия общественности в правотворчестве на стадии их подготовки, для соответствия НПА международным стандартам.

Использованная литература

1. Конституция Республики Узбекистан, 2023.
2. <https://www.undp.org/ru/uzbekistan/press-releases/nacionalnye-celi-ustoychivogo-razvitiya-uzbekistana-progress-i-vyzovy-v-dostizhenii-cur>
3. Добровольный национальный обзор о реализации национальных целей и задач устойчивого развития Узбекистана до 2030 года (второй) https://api.mf.uz/media/document_files/DNO_IPMI_ru.pdf.
4. <https://www.state.gov/reports/2022-country-reports-on-human-rights-practices>.
5. https://kasaba.uz/wp-content/uploads/2022/01/RUS_UZB_DWCP-Uzbekistan-2021-2025_FF_21Sep-002.
6. Агентство статистики. <https://nsdg.stat.uz>.
7. Закон РУз «О профессиональных союзах, их правах и гарантиях их деятельности».
8. Абдуллаева Д.К. и др. Участие общественности Центральной Азии в процессе правотворчества, Казахстан, Алматы, 2014.
9. https://oldmy.gov.uz/en/site/statistic-graph?city_id=1733.
10. The role of good governance institutions, Central Asian Human Development Report, Bringing down the barriers: regional cooperation for human development and human security, 2005.
11. Ласточкина К.А. Участие профсоюзов в правотворчестве сравнительный анализ, Право и демократия, сб.научных трудов, вып.27, Минск.

II sho'ba. EKOLOGIK XAVFSIZLIKNING YURIDIK JIXATLARINI ZAMON TALABLARIGA MOSLASHTIRISH

O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK QONUNCHILIK VA YASHIL TARAQQIYOTINING HUQUQIY ASOSLARI

Xudoyberdiev. A¹

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida ekologik qonunchilik tizimi va yashil taraqqiyotning huquqiy asoslari tahlil qilingan. Mamlakatda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash yo'nalishida qabul qilingan asosiy qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar o'rganilgan. Shuningdek, "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, barqaror rivojlanish strategiyasi va "Yashil makon" loyihasining huquqiy asoslari yoritilgan. Maqolada ekologik huquqiy normalarning amaliyotga tatbiq etilishi, xalqaro ekologik standartlarga muvofiqligi va ularni yanada takomillashtirish istiqbollari ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ekologik qonunchilik, yashil taraqqiyot, huquq, atrof-muhit, yashil iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energiya, barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, "Yashil makon".

ENVIRONMENTAL LEGISLATION AND LEGAL FOUNDATIONS OF GREEN DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

Annotation. This article analyzes the system of environmental legislation and the legal foundations of green development in the Republic of Uzbekistan. It examines the main laws and normative-legal acts adopted in the country aimed at environmental protection, rational use of natural resources, and ensuring ecological safety. Additionally, the concept of the "Green Economy," the development of renewable energy sources, the strategy for sustainable development, and the legal foundations of the "Green Space" project are highlighted. The article also evaluates the practical implementation of environmental legal norms, their compliance with international environmental standards, and prospects for their further improvement.

Key words: Environmental legislation, green development, law, environment, green economy, renewable energy, sustainable development, ecological safety, "Green Space".

So'nggi yillarda O'zbekiston ekologik barqarorlik va yashil taraqqiyot yo'lida muhim qadamlar tashlamoqda. Mamlakatda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik

¹ Xudoyberdiev Axror Qosimalievich. Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi Umumkasbiy fanlar kafedراس professor, y.f.d.

xavfsizlikni ta'minlash maqsadida bir qator qonunchilik hujjatlari qabul qilindi.

Ekologik qonunchilikning asosini 1992-yilda qabul qilingan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun tashkil etadi. Ushbu hujjatda ekologik huquq va majburiyatlar, davlat organlarining vakolatlari hamda ekologik monitoring tizimi belgilangan. Shuningdek, "Ekologik ekspertiza to'g'risida", "Chiqindilar to'g'risida", "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida" kabi qonunlar ham ekologik me'yorlarni mustahkamlab berdi [1].

Yashil taraqqiyot tamoyillari esa O'zbekistonning rivojlanish strategiyalarida tobora muhim o'rin egallamoqda. 2023–2030-yillarga mo'ljallangan "Yashil O'zbekiston" konsepsiyasi mamlakatda uglerod neytralligiga erishish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va iqlim o'zgarishiga moslashuvni nazarda tutadi [2].

Shuningdek, 2021-yilda tashkil etilgan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi ushbu yo'nalishda markaziy muvofiqlashtiruvchi organ sifatida faoliyat yuritmoqda. Yangi tashabbuslar, jumladan "Yashil makon" loyihasi orqali daraxt ekish va ekologik madaniyatni oshirish ishlari ham keng ko'lamda olib borilmoqda.

XXI asrda urbanizatsiya jarayoni jadallashib, shaxar aholisi soni sezilarli darajada oshmoqda. Urbanizatsiya – bu aholining qishloqdan shaharga ko'chishi, shunga mos ravishda qishloqda yashovchi aholi ulushining kamayishi va jamiyatlarning bu o'zgarishga moslashish usullari hisoblanadi. BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha departamenti hisobotiga ko'ra, XXI asrning 80-yillariga kelib dunyo aholisi maksimal darajaga yetadi. "Dunyo aholisi yana 50-60 yil o'sishda davom etishi kutilmoqda, 2080-yillarning o'rtalariga kelib taxminan 10,3 milliardga yetadi. Hozir 2024-yilda bu ko'rsatkich 8,2 milliardni tashkil etadi" deydi tahlilchilar. Bu ko'rsatkichlar shahaarlardagi aholi sonining oshishiga ham bevosita ta'sir qiladi. Bu esa 43arar43 infratuzilmasiga yuklama oshishiga, ekologik muhitning yomonlashishiga va tabiiy resurslarning kamayishiga olib keladi. BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) hisobotiga ko'ra, dunyodagi shaharlarning ekologik me'yorlarga javob bermaydi, shuningdek Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining 2021yilgi ma'lumotlariga ko'ra yirik shaharlarda havo ifloslanishi natijasida har yili 7 million odam vafot etadi. Mamlakatimiz O'zbekiston shaharlarida ham ekologik muammolar dolrazb hisoblanib, Toshkent va Samarqand kabi yirik shaharlarda havo ifloslanishi yuqori darajada hisoblanadi. 2024-yilning yanvar oyida "O'zgidromet" ning ma'lumotlariga ko'ra Toshkentda zararli hisoblangan PM 2,5 mayda dispersli zarrachalar miqdori 67,5 mkg/m³ ni tashkil etdi, JSST tavsiyalaridan 18,7 marta (5

mkg/m³) oshdi. Bu muammolar ekologik standartlarning shaharsozlikka tatbiq etilishini zarur qiladi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ekologik standartlarni joriy qilish shaharlarning barqaror rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi. O'zbekiston Respublikasida shaharsozlik sohasida ekologik standartlarni joriy etish bo'yicha so'nggi yillarda xalqaro tajribalardan ilhomlangan holda muhim qadamlar qo'yilmoqda. Buning isboti sifatida 2025-yil "Atrof-muhitni asrash va "Yashil iqtisodiyot" yili deb nomlanganini ham keltirishimiz mumkin. Shuningdek "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida Prezident farmoni qabul qilingan bo'lib, shaharsozlik jarayonida ekologiga salbiy zarar keltirmaydigan homashyolardan foydalanish, ekologiyaga Zarar keltirmaydigan texnologiyalarni qo'llashga oid normalar kiritilgan [3].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 1992-yilda qabul qilingan "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun.
2. 2023–2030-yillarga mo'ljallangan "Yashil O'zbekiston" konsepsiyasi.
2. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining rasmiy sayti <https://uznature.uz/uz/activity/waste?numer=453>.

EKOLOGIYA SOHASIDA SODIR QILINADIGAN HQHQBUZARLIKLAR VA JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIKNING YURIDIK ASOSLARI

Xojiyeva R.X¹

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekaloga sohasidagi huquqbuzarlik va jinoyatlar uchun javobgarlik belgilashning yuridik asoslari, bugungi kunda ekalogiya sohasini rivojlantirish, ekalogik toza jamiyat barpo qilish uchun amalga oshiralyotgan islohotlar, ishlab chiqilayotgan normativ-hujjatlar haqida bayon qilingan.

Kalit sozlar: *ekalogiya, huquqbuzarlik, egologik jinoyat, javobgarlik, ekomahalla, yashilmakon.*

¹ Xojiyeva Ro'zigul Xudayberdiyevna, Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi Umumkasbiy fanlar kafedراسi katta o'qituvchisi, PhD. ruzigulkhojiyeva@mail.ru

LEGAL FOUNDATIONS OF LIABILITY FOR ENVIRONMENTAL OFFENSES AND CRIMES

Annotation. This article examines the legal foundations for establishing liability for environmental offenses and crimes, as well as the reforms being implemented today to advance the environmental sector and create an ecologically sustainable society. It also discusses the normative-legal acts being developed to support these efforts.

Key words: ecology, offense, environmental crime, liability, eco-neighborhood, green space.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ hujjatlariga asoslanadi. Asosiy qonunimizgada "yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir, deb belgilab qo'yilgan [1].

So'nggi yillarda mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning insonlar sog'lig'iga zararli ta'sirini oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holat sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Butun mamlakat miqyosida "Yashil makon" umummilliy loyihasi amalga oshirilmoqda, davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar qimmatbaho navlarining kesilishiga muddatsiz moratoriy amal qilmoqda.

Shu bilan birga, respublikada hudud rahbarlari, ekologiya va atrof-muhitni hamda huquqni muhofaza qilish organlarining e'tiborsizligi natijasida sohada o'tgan davrda jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yilgan, ayrim hollarda esa tabiatga va jamiyatga tiklab bo'lmas darajada zarar yetkazilgan. Xususan:

hududlarda, ayniqsa, shaharlarda havo ifloslanishi bo'yicha holat tobora yomonlashib bormoqda, atmosferaga chiqariladigan tashlanmalarning yukini kamaytirish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yilmagan;

daraxtlar va butalarni kesilishiga e'lon qilingan moratoriy davrida 44 mingga yaqin, shundan 9,5 mingga yaqin qimmatbaho daraxtlar noqonuniy kesilishi natijasida tabiatga 36 milliard so'mlik zarar yetkazilgan;

daraxtlarning ildiz tizimlarini beton va asfalt bilan qoplash, ularga turli elektr chiroq va reklama moslamalarini ilib qo'yish daraxtlarning jiddiy shikastlanishiga sabab bo'lmoqda;

jamiyatda hayvonlarga, shu jumladan, uy hayvonlari va qarovsiz hayvonlarga shafqatsiz munosabatda bo'lish holatlari ko'payib bormoqda, ularni identifikatsiya, chiplash, vaksinatsiya va sterilizatsiya qilishning zamonaviy tizimi mavjud emas;

muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda chorva mollari nazoratsiz va tizimsiz boqilishi holatlarining ortib borishi, yer osti suvlaridan ilmiy asoslarsiz foydalanish ekotizimlarning buzilishiga, katta yer maydonlari degradatsiyasining ortishiga hamda ularning cho'llanishiga olib kelmoqda, oqibatda iqlim o'zgarishining ta'siri kuchaymoqda, insonlar hayoti va sog'lig'iga xavf tug'ilmoqda;

O'zbekiston Respublikasi amaldagi Jinoyat Kodeksida Ekologiya sohasiga oid jinoyatlarning 14 tarkibdagi turi mavjud bo'lib, ular quyidagilar: Ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish (JK 193-modda), atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko'rsatish (JK 194-modda), atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralari ko'rmaslik (JK 195-modda), atrof tabiiy muhitni ifloslantirish (JK 196-modda), yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish (JK 197-modda), sug'oriladigan yerlarni o'zboshimchalik bilan egallab olishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rmaslik (JK 197¹-modda), ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklari shikastlantirish yohud nobud qilish (JK 198-modda), o'simliklar kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurash talablarini buzish (JK 199-modda), veteranariya, veteranariya-sanitariya qoidalarini va normalarini buzish (JK 200-modda), zararli kimyoviy moddalar bilan muomalada bo'lish qoidalarini buzish (JK 201-modda), hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish (JK 202-modda), hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish (JK 202¹-modda), suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish (JK 203-modda), muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning rejimini buzish (JK 204-modda). Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi [2].

Bundan tashqari yana bir qancha normative-huquqiy hujjatlarda ham ekologiya sohasidagi huquqbuzarlik va jinoyatlar uchun javobgarlik belgilashning huquqiy asoslari mavjud bo'lib, ular: O'zbekiston Respublikasining "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunining, O'zbekiston Respublikasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston

Respublikasi “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasini, O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmon to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.05.2023-yil 31-maydagi PQ-171-son qaroriga binoan 2025-yil 1-iyuldan boshlab quyidagi islohotlar amalga oshirilishi belgilangan [3]:

ekologik toza hudud rejimi joriy qilingan hududlardagi fuqarolar yig‘inlariga “ekomahalla”, “ekoqishloq” va “ekoovul” maqomi berilishi;

fuqarolar yig‘iniga tegishli hududda: elektr energiyasi quyosh batareyalariga almashtirilishi;

yo‘nalishli elektrobus harakatlanishi yo‘lga qo‘yiladi;

“yashil bog” va “yashil jamoat park”lar tashkil etiladi;

savdo shoxobchalarida plastik paketlar savdosi taqiqlanadi;

maishiy chiqindilarni saralash, shuningdek, qayta ishlanadigan chiqindilarni qabul qilish uchun fondomatlar o‘rnatiladi;

hududlarga “ekomahalla”, “ekoqishloq” va “ekoovul” maqomi beriladi.

Shuningdek, birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanishning toza suv va sanitariya, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini bilan kurashish, barqaror shaharlar va aholi punktlari, ekotizimni saqlash kabi maqsadlariga erishish uchun respublikaning iqtisodiyot tarmoqlari hamda hududlarni ekologik baholash tizimi joriy qilish vazifasi qo‘yilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/-6445145>.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/mact/-111453>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.05.2023-yil 31-maydagi PQ-171-son qaroriga. <https://lex.uz/docs/6479134>.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDAGI EKOLOGIK TALABLARGA KRIATIV YONDASHUV

Ro‘ziyev Sh.A.¹, Nigmatov A.N.²

Annotatsiya. Maqolada 2025-yil “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb atalishi munosabati bilan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi ekologik talablarga kreativ yondashish orqali innovatsion takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: kreativlik, O‘zbekiston, konstitutsiya, talablar, ekologiya, atrof-muhit, muammolar, takliflar.

A CREATIVE APPROACH TO ENVIRONMENTAL PROVISIONS IN THE CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract. In connection with the declaration of 2025 as the “Year of Environmental Protection and Green Economy,” this article presents innovative proposals based on a creative approach to incorporating environmental requirements into the new edition of Uzbekistan's Constitution.

Key words: creativity, Uzbekistan, constitution, environmental standards, ecology, environment, challenges, proposals

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 8-may kuni Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar, sud va ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari hamda jamoatchilik faollari bilan muloqotda “Shunday murakkab vaziyatda, har bir ishimizda, qabul qilayotgan barcha qonun va qarorlarimizda faqat va faqat xalqimiz, Vatanimiz manfaatlarini eng ustuvor o‘rinda turishi shart”, – deb aytgan edi [1]. Shuning uchun ham ushbu maqolada amaldagi Konstitutsiyamizga innovatsion xarakterda kreativ yondashishga harakat qilamiz.

Kreativlik nima? Kreativlik (lotincha creatio – ijodkorlik) – bu *insonning standart g‘oyalari, qoidalar va shablonlardan chetga chiqish qobiliyati*. Lekin ijodkorlik progressiv yondashuv, tasavvur va o‘ziga xoslikni nazarda tutadi. Uni turli faoliyat turlari, uning mahsulotlari, shuningdek, shaxs sifatining ayrim jihatlarida kuzatish mumkin. “Kreativlik” va “Ijodkorlik” o‘xshash, ammo bir xil tushunchalar emas. Ijod – bu insonning san‘at buyumlarini yaratish jarayoni. Ijodkorlik ijodiy ishning alohida sharti. Natijada, ijodkor kishi doimo ijodkorlikka ega, bu uning ajralmas faoliyat qismidir [2]. ***Ijodkor kishi yoki yakdil kishilar uyushmasi*** esa hech qanday tanqidiy yondashmasdan, taklif kiritimasdan,

¹ Ro‘ziyev Sh.A. Mehnat va ijtimoiy munosabalar akademiyasi 115-gurux talabasi, E-mail.shermuhammadroziyev@gmail.com.

² Nigmatov A.N. Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi kafedra mudiri, g.f.d., professor. E-mail: nigmatov_an@mail.ru.

davriy kuzatmasdan turib o'z she'rlarini yozishi, musiqachilar o'z musiqasini bitishi, haykaltarosh o'z san'at asarini yaratishi mumkin. Unga yoki ularga ijodiy muhit katta imkoniyat beradi, uning qobiliyati esa turtki bo'lib xizmat qiladi.

Биз ҳам бу фикрга қўшилган тарзда ушбу креативлик терминиға креативча ёндашамиз. Бизнингча, креативлик ижтимоий тушунча ва шунинг учун у faqatgina kishi va uning yakdillikdagi uyushmasiga xos hislat. ***Kreativlik** – kishilik jamiyati tomonidan aks ettirilgan unsur, narsa, holat, jarayon, hodisa va voqealarga kishi va yakdil kishilar uyushmasining tanqidiy qarashi orqali undagi muammo- kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini topish, amalga jorish etish taklifini berish, tatbiq etish va nazorat qilib borish tizimi.* Shunday qilib kreativ kishi yoki uning yakdil uyushmasiga xos hislat quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

- *masalaga tanqidiy yondashish;*
- *maummo yoki kamchiliklarni aniqlash;*
- *ularning yechimini topish;*
- *yechimni amalga joriy qilishga harakat qilish;*
- *uning davomiyligining davriy nazoratini olib borish.*

Lekin kreativlik doimo ham qullab-quvatlanmasligi, ya'ni davlat, jamiyat va hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmasligi ham mumkin. Bu har bir yurtning siyosiy, mavkuraiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'rifiy, ma'naviy va, albatta, madaniy darajasiga bevosita bog'liqdir. Bunga o'nlab misollarni keltirish mumkin. Masalan, tarixda ko'pgina kashfiyotlar sharq allomalari tomonidan yaratilgan deyiladiku, lekin xalqaro miqyosda uning e'tirofi "Yevrotsentrizim"ga borib taqaladi. Olaylik "Yaqin sharq" siyosiy atamasining kelib chiqishi va kundalik faoliyatimizda ishlatilishi Yevropa qit'asiga nisbatan mintaqaning joylashuviga qarab nomlangan. Vaholanki u Osiyo qit'asining g'arbida joylashgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati zamini. Hozirgi zamonda har bir davlatning mustaqilligini ifodalovchi shartlardan biri – milliy konstitutsiyasining mavjudligi va uning hayotiyligida. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi sobiq Ittifoq respublikalari orasida ilk bor qabul qilingan asosiy qonun bo'lib hisoblanadi. Lekin, Konstitutsiya dogma, ya'ni qotib qolgan "tishsiz qonun" emas, balki yashovchan yoki "tishli" bo'lishi uchun unga zamon talablariga mos va ilmiy asoslangan qo'shimcha hamda o'zgartirishlar kiritib boriladi. Biz ham o'zimizning kreativ-istiqbolli taklif va mulohazalarimizni 1995–2006-yillar mobaynida O'zR IIV Akademiyasi va O'zR Adliya vazirligi ToshDYUda ishlab yurgan kezlrimizda anjuman va kengashlardagi ma'ruza, kitob va maqolalar orqali kiritib borganmiz. Masalan, 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zR Konstitutsiyasi ekologik

jihatdan qaralganda uning 50,54,55,93,100-moddalarida ekologik shartlar bayon etilgan [3].

Konstitutsiyaning 50-moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar" deyilgan. Mazkur moddadagi "Fuqarolar" atamasiga berilgan rasmiy sharhda [4] fuqarolarga kimlar kirishiga aniqlik kiritilmagan. Keling fuqaro atamasiga alohida to'xtalib o'tamiz. Internet lug'ati Vikipediyada ***fuqaro – qonuniy ravishda ma'lum bir davlatga tegishli bo'lgan, ya'ni fuqarolikka ega bo'lgan shaxs***. Bu atama quyidagilarni ham anglatishi mumkin: fuqarolik – shaxs va davlat o'rtasidagi o'zaro huquqlar, burchlar va majburiyatlarning umumiyligida ifodalangan huquqiy munosabatlar [5]. Mazkur ta'rif O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida ham tasdiqlangan. Lekin ayrim yuridik adabiyotlarda, jumladan O'zR Fuqarolik kodeksi fuqarolik munosabatlarida – O'zR va chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar kiritib yuborilgan. Bir atamaga ikki xil yondashuv, albatta, qonunchilikda chalkashliklarga olib keladi. Bizning fikrimizcha Konstitutsiyamizning 50-moddasi, yangi tahrirdagi 62-moddasiga ***"Fuqarolar" atamasini "Shaxslar" bilan, "Burch" so'zini "Majburiyat" degan so'z bilan almashtirish, XI bobni esa "Shaxs va fuqarolar majburiyati"*** deb nomlash maqsadga muvofiq. Sababi:

✓ *O'zbekiston Respublikasida doimiy yoki vaqtinchalik yashayotgan har qanday jismoniy va yuridik shaxslar, fuqaroligi bor yoki yo'qligidan qat'iy nazar, milliy qonunchilikka rioya etishga majburdirlar;*

✓ *fuqaro – jismoniy shaxs va davlat o'rtasidagi o'zaro huquqlar, burchlar va majburiyatlarning umumiyligida ifodalangan huquqiy munosabatlardir;*

✓ *"burch" fuqaroga xos atama, lekin chet el fuqarosi, fuqarosi bo'lmagan jismoniy va yuridik shaxslarga xos emas;*

✓ *majburiyat esa nafaqat fuqaro, balki chet el fuqarosi, fuqarosi bo'lmagan jismoniy va yuridik shaxslarga xosdir.*

Barchamizga ma'lumki, majburiyat bor joyda huquq ham bo'ladi. Ko'rdikki yangi tahrirdagi O'zR Konstitutsiyasida fuqaro, to'g'rirog'i shaxslarning 62-moddada ekologik burchlari va o'z navbatida majburiyatlari bor, lekin ***X bob "Inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlari"***da ularning ekologik huquqlarini kafolatlovchi modda yoki band e'tirof etilmagan. Shuning uchun ham Konstitutsiyamizning ***55-moddaning 6-bandi*** qilib ***"Davlat shaxs va fuqarolarning ekologik xavfsiz muhitda yashash hamda faoliyat yuritish huquqini ta'minlashga xizmat qiladi"*** degan normalarni kiritish zarur. Chunki XXI asrning 20 yillariga kelib jadal qurilish va avtomobil sanoati rivojlanayotgan davrda jismoniy shaxslarning ekologik xavfsiz muhitda yashash, yuridik shaxslarning esa faoliyat yuritish huquqi inobatga

olinmay qolayapti. Reklamalarda uy-joy, savdo-sotiq, dori-darmon, sport-ko'ngil ochar tadbirlar joy olmoqdaku, lekin shaharsozlikda qo'llaniladigan xalqaro ekologik talablar, ya'ni aholining jon boshiga kamida 16 m² kam bo'lgan yashil yuzaning barpo etish talabi davlat va jamiyatning nazaridan chetda qolmoqda.

Eski tahrirdagi *O'zR Konstitutsiyasining 55-moddasida "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir"*, deyilgan [6]. Mazkur moddadagi "zaxira" so'zi noo'rin ishlatilgan edi. Zero "zaxira" degan so'z O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida "ehtiyot qilib saqlangan narsalar" deb noto'g'ri ta'riflangan. Zero ruschada zaxira "*Zapas*" degan ma'noni anglatib, ommaviy ravishda tan olingan S.I.Ojegovning rus tili lug'atida "Kelgusida ishlatish uchun zaxiraga olingan, tayyorlangan, to'plangan narsalar", deb to'g'ri aytilgan. Shunday ekan. Konstitutsiyaga muvofiq ravishda davlat barcha tabiat unsurlarini kelgusida ishlatish uchun zaxiraga olib qo'yish va ularni muhofaza qilishiga to'g'ri keladi. Lekin mustaqil O'zbekistonda qabul qilingan "Yer kodeksi", "Suv va suvdan foydalanish", "Yer osti boyliklari" kabi tabiat boyliklariga nisbatan qabul qilingan barcha milliy qonunlarda ulardan foydalanish to'g'risidagi normalar asosiy me'yorlarni tashkil etadi.

Yangi tahrirdagi *O'zR Konstitutsiyasi 68-moddasida "Yer...boshqa tabiiy resurslar..."*, deyilgan. Bunday tahrir ham mantiqan to'g'ri emas. Zero "resurs" atamasining lug'aviy tor ma'nosi "xo'jalik faoliyatida foydalanadigan...tiklanadigan va tiklanmaydigan..." [O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 7-jild.– Toshkent; "O'zME DIN".– 315-b.7]. Lekin 2005-yil 6-yanvarda kuchga kirgan va amaldagi "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risidagi" O'zR qonunining III qism "Davlat qo'riqxonalarini", 18-20-moddalariga binoan ularda "*...har qanday faoliyat taqiqlanadi...*" deyilgan. Davlat qo'riqxonalarida faqatgina ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish va atrof tabiiy muhit monitoringini yuritish mumkin. Shuning uchun ham *Konstitutsiyamizning 68-moddasini "Yer, yer osti, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy boyliklar fuqarolarnikidir, ularni muhofaza qilish, oqilona foydalanish, buzilganlarini qayta tiklash zarur va ular davlat muhofazasidadir"* deb o'zgartirish maqsadga va davlatimizning ekologik siyosatiga mosdir. Nima uchun:

Birinchidan, "resurs" va "zaxira" atamalarining har ikkalasi millat, to'g'rirog'i O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining boyligi. Resurslardan oqilona foydalanish va buzilganlarini qayta tiklashga, zaxirani esa muhofaza qilishga to'g'ri keladi.

Ikkinchidan, boylik so'zi bir moddada ikki marotaba "yer osti boyliklari" va "umummilliy boylik" deb ishlatilgan. Vaholanki, yer osti

boylıklardan tashqari barcha tabiat unsurlari biz uchun “kelajak avloddan qarz olingan boylkdir”. Uni asrab avaylash va kelajak avlodlarimizga qoldirish ham qarz ham farzdir.

Uchinchidan, “umummilliy” degan so‘z barcha O‘zbekistonda yashovchi aholiniki dengan ma‘noni anglatadi. Aksariyat (Quvayt, Saudiya Arabistoni, Bahrayn kabi) arab davlatlarida tabiat boylıklaridan tushgan daromadni fuqaroligi bor jismoiy shaxslarga taqsimlab beriladi, chunki asosiy daromad manbai neft o‘sha davlatga tegishli fuqarolar mulkidir. Masalan Quvaytda davlat tomonidan, Konstitutsiyaga muvofiq ravishda, o‘zining 4,3 mln. (2024-yildagi ko‘rsatkich) fuqarosiga o‘nlab turdagi moliyaviy imtiyozlarni tabiat boylıkları – neft hisobidan beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ko‘pgina moddalari ekologik munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishda **“bilvosita”** xizmat qiladi. Masalan, yangi tahrirdagi ***O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddimasida*** (*kursiv bilan bizning sharhimiz berilgan*)

Biz, O‘zbekistonning yagona xalqi: inson huquq va erkinliklariga (jumladan, *fuqarolarning ekologik xavfsiz muhitda yashash huquqiga ega ekanligi va bu borada ular erkin o‘z fikrini bayon qilishiga*), milliy va umuminsoniy qadriyatlarga (*ona tilimizda va o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan ekologik tarbiyani yo‘lga qo‘yish va o‘zga millatlarning ijobiy ekologik tarbiyalarini inobatga olish*), davlat suverenteti prinsiplariga (*jumladan, tabiiy boylıklarimizni o‘zimiz tasarruf etish tamoyillariga*) sodiqligini tantanali ravishda e‘lon qilib... . Shu tariqa Konstitutsiyamizning barcha moddalarini bevosita hamda bilvosita tarzda e‘tirof etish orqali ekologik fan, ta‘lim va amaliyotni huquqiy tartibga solishga yo‘naltirish mumkin.

Hulosa. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi milliy davlatchilikning asosiy qonuni sifatida qaralayotgan ekan, uni zamon talablariga moslashtirish orqali aholining turli faoliyat jabhalarida farovon turmush tarzi, jumladan ekologik xavfsiz muhitda yashash huquqini ta‘minlash Yangi O‘zbekistonning usutuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 8-maydagi nutqi.
2. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/05/08/president>.
3. Криативность. <https://ru.wikipedia.org/wiki>.
4. Нигматов А., Абдуназаров Ў., Каримов И. Конституциявий мулкый экологик муносабатлар.– Т.: ЎЗМУ нашриёти, 2005.8-10-б.
5. Ўзбекистон Республикаси Конституциясига шарҳ.– Т.:“Ўзбекистон”, 2001. 263-267-б.
6. Гражданство. <https://ru.wikipedia.org/wiki>.
7. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.–Т.: «Ўзбекистон», 2005.– 40 б.

O‘ZBEKISTONING FAO BILAN O‘ZARO XAMKORLIK YO‘NALISHLARI VA UNING ISTIQBOLLARI

Xodjayeva A.B¹

Annotatsiya. Ushbu maqolada FAOning Markaziy Osiyodagi ozig-ovgat xavfsizligiga qo‘shgan hissasi, mintaqaviy tashabbuslar, iqlim o‘zgarishiga moslashuv, qishloq xo‘jaligi barqarorligi va resurslardan oqilona foydalanish masalalari yoritiladi. Shuningdek, FAO tavsiyalari asosida O‘zbekistonning xalqaro oziq-ovqat xavfsizligi masalalari va qishloq xo‘jaligi kabi xalqaro huquqiy masalalarining istiqbolli strategik yo‘nalishlar taklif qilinadi.

Kalit so‘zlar: BMT, Xalqaro oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO), Jahon oziq-ovqat jamg‘armasi dasturi (WFP), oziq-ovqat xavfsizligi, Samarqand Iqlim Forumi.

UZBEKISTAN'S COOPERATION DIRECTIONS WITH FAO AND ITS PROSPECTS

Annotation. This article highlights the contribution of the Food and Agriculture Organization (FAO) to food security in Central Asia, focusing on regional initiatives, climate change adaptation, agricultural sustainability, and the rational use of resources. Additionally, it proposes promising strategic directions for Uzbekistan's engagement in international food security and agricultural issues, as well as related international legal matters, based on FAO recommendations.

Key words: United Nations, Food and Agriculture Organization (FAO), World Food Programme (WFP), food security, Samarkand Climate Forum.

Jahonda global miqiyosda oziq ovqat xavfsizligi va oziq-ovqatga bo‘lgan huquq masalalari eng dolzarb muammo maqomini olmoqda. Bugungi kunga kelib dunyo bo‘ylab aholi soni keskin oshib ketishi va ushbu jarayon davomiy ekanligi, dunyo bozorlarida oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabning demografik oshib ketishiga olib kelmoqda.

Dunyoning turli hududlarida oziq-ovqat tanqisligi yoki iqlimning keskin o‘zgarishi natijasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish masalsida yuzaga kelgan muammolar natijasida ushbu sohaning ahamiyati oshib bormoqda.

¹ Xodjayeva Aziza Bahtiyarovna, Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi Umumkasbiy fanlar kafedrası katta o‘qituvchisi (PhD), azihodje@gmail.com

Shuningdek, davlat rahbarimizning, “Yana bir muhim masalaga e’tiboringizni qaratmoqchiman. Shuni tan olish kerakki, mamlakatlarimiz qishloq xo’jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining yirik ishlab chiqaruvchilari, eksport va import qiluvchilari bo’lishiga qaramasdan, SHHT maydonchasida oziq-ovqat xavfsizligi masalalari bo’yicha hali jiddiy hamjihatlikni yo’lga qo’ya olmadik. Davlatlarimiz salohiyati ichki bozorlarni boshqoli ekinlar, chorvachilik va meva-sabzavot mahsulotlari, asosiy oziq-ovqat turlari hamda zarur o’g’itlar bilan muntazam ta’minlash imkonini beradi. Bundan tashqari, biz ushbu muammoni global darajada hal qilishga hissa qo’shishimiz kerak”, - deb keltirgan fikrlari hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligi barchamizga ma’lum.

Bundan tashqari, yuqori sifatli va arzon oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish uchun samarali logistika, “yashil” va ekspress-yo’laklarni tashkil etishga jiddiy e’tibor qaratish lozimligi ta’kidlandi.

Prezidentimiz tomonidan kelgusi yili oziq-ovqat xavfsizligi bo’yicha xalqaro konferensiya o’tkazish taklif etilganligi ham aynan bugungi pandemiya davrida muhim ekanligini yana bir isboti ekanligini ko’rishimiz mumkin. “Biz birgalikda mintaqaviy va global xavfsizlikni ta’minlash yo’lida tashkilotni yangi marralarga olib chiqishga qodirmiz» deb ta’kidlagan takliflari ham bejizga emas.

Bundan tashqari O’zbekistonning BMT Bosh kotibi 2021 yilning kuzida Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga erishish bo’yicha o’n yillik harakatlar doirasida oziq-ovqat tizimlari bo’yicha navbatdagi sammiti bo’lib o’tgan sammiti ham aynan bizning mamlakat bilan bo’layotgan xalqaro hamkorliklarning doimiy ekanligini ko’rsatib turibti. Sammitning maqsadi sa’y-harakatlarni o’zaro birlashtirish va ochlikka barham berish, yanada inklyuziv va barqaror oziq-ovqat tizimlarini yaratish ishlarini jadallashtirishdan iborat bo’lib, quydagi maqsadlarni qamrab olgan:

-to’yimli oziq-ovqat mahsulotlariga ega bo’lish imkoniyatini ta’minlash,

- ishlab chiqarish va iste’molning barqaror modellariga o’tish,

-tabiiy resurslardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish hamda qishloq xo’jaligining inqiroz va zarbalarga chidamliligini oshirish maqsadlari muhokama etilgan bo’lib, O’zbekiston Respublikasi qishloq xo’jaligi vazirining maslahatchisi, shuningdek, BMTning Oziq-ovqat tizimlari bo’yicha sammiti arafasida milliy muloqotlarning tashkilotchisi bo’lgan Alisher Shukurov tadbirda O’zbekiston tomonidan ishtirok etib. U o’z nutqida quyidagilarni ta’kidladi: "O’zbekistonda o’tkazilgan milliy muloqotlar, shu jumladan, viloyatlarda o’tkazilgan submilliy muloqotlar munozaralar, hamkorlik, konsensus yaratish va umumiy majburiyatlarni bajarish uchun imkoniyatlar yaratganligi haqida, shuningdek, O’zbekiston

SHHT va FAO a'zolari bilan o'z tajribasini o'rtoqlashishga tayyorligini ma'lum qiqilishini ham o'z ishtiroki davomida ma'lum qilganligi ham O'zbekistonning jahon arenasida oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq xo'jaligi sohasida xalqaro hamkorlik munosabatlariga tayyor ekanligini ko'rishimiz mumkin.

FAO Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish qomitasi oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi bilan bog'liq yangi muammolar tendentsiyalarani tahlil qiladi. Turli xil statistik ma'lumotlarga yega FAOga a'zo mamlakatlarni so'ngi global oziq-ovqat va qishloq xo'jaligida o'zgarishlardan xabardor qilish uchun ma'lumotlar bazalari umumlashtiradi. Muntazam ravishda mamlakatga tegishli baholarni o'tkazib, qomita xalqaro hamjamiyatni yaqinlashib kelayotgan oziq-ovqat inqirozi to'g'risida ogohlantiradi va strategik siyosat ishlab chiqaruvchilarga qimmatli maslahatlar va yordam beradi.

Bu haqda fikr yuritganda, FAOning «Raqamli 1000 ta qishloq» tashabbusi sharofati bilan sayyoramizning bir qator qishloq joylarida turmush sifati yaxshilanib, yangi davr talablari darajasiga moslashayotganini qayd etish lozim. Ayni tashabbus mamlakatimiz qishloqlarida ham keng yoyilayotgani tufayli hamyurtlarimiz yilning issiq va qurg'oqchil faslida ham zamonaviy texnika-texnologiyalar ko'magida qishloq xo'jaligi ekinlaridan salmoqli hosil olayotganiga hayotiy misollar bisyor.

Eng asosiysi, koronavirus ofati va uning oqibatida yuzaga kelgan butunjahon iqtisodiy bo'hroni avvalboshda dunyo jamoatchiligini katta tashvish va xavotirga solib qo'ygandi. Shuningdek, ushbu sohani keng aholi soni o'rtasida o'ragnish maqsadida ijtimoiy online so'rovnoma o'tkaganimizda ham, bu yo'nalishda aholining huquqiy savodhonligini oshirishimiz kerakligi va inson huquqlarining alohida bir ijtimoiy huquq sohasi ekanligini chunib yetshlari hamda oziq-ovqat mahsulotlarini adolatli is'temol qilish kerakligi muhim ahamiyatga ega ekanligini bildik. So'rovnoma natijalari 2-ilovamizda o'z aksini topgan.

So'nggi o'n yillarda "yashil inqilob" va innovasion texnologiyalarning keng joriy etilishi hisobiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi keskin oshayotganiligini ham kuzatishimiz mukin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti aytganlaridek, "tobora ko'payib borayotgan dunyo aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlashda sezilarli yutuqlarga erishildi".

O'rta asrlarda yashab o'tgan ulug' alloma va tabib bobomiz Abu Ali ibn Sino o'z davrida "Kimki uzoq va sog'lom hayot kechirishni istasa, avvalo, ovqatning sifati va miqdoriga e'tibor qaratsin", deb ta'kidlaganlar. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev FAO texnik ko'magida 2023 yil 7-8 sentyabr kunlari Samarqandda o'tkazilgan Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha

xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida Ibn Sino hazratlarining ayni shu hikmatli so'zlariga murojaat qilgani bejiz emas.

Oradan yuz va ming yillar o'tganiga qaramay, oziq-ovqat xavfsizligi, uni barqaror yetkazish, ochlik va qashshoqlikka qarshi kurashish masalalari bugun ham insoniyat uchun dolzarb bo'lib qolmoqda. Koronavirus pandemiyasi, jahon siyosati va iqtisodiyotidagi inqirozlar esa, albatta, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish tizimida zanjirlarning uzilishi va narxlar oshishi misolida bu boradagi ahvolning yanada qaltirlashiga olib keldi.

O'zbekiston Prezidenti bundan ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar jabr ko'rayotganiga e'tiborni qaratdi. Davlatimiz rahbarining fikricha, "Global iqlim o'zgarishlari, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tizimiga investisiya hajmi kamayishi vaziyatni yanada og'irlashtirmoqda. Bu esa Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni xavf ostida qoldirmoqda". Yanada muhimi, Prezidentimiz Samarqand forumiga yo'llagan tabrigida "dunyo aholisi o'rtasida sog'lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish - uzoq davom etadigan jarayon" ekanligini e'tirof etgan holda, bu borada bir qator yangi tashabbus va g'oyalarni ilgari surdi.

Birinchidan, "Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligi ekinlarining serhosil, tashqi ta'sirlarga chidamli navlarini yaratish, chorva naslini yaxshilash o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Fermerlar va kichik ishlab chiqaruvchilar uchun axborot-konsalting markazlarini tashkil etish, ularni resurs tejaydigan ilg'or texnologiya va usullar bo'yicha o'qitish uchun agro-konsalting xizmatlari sifatini tubdan yaxshilash ham dolzarb bo'lib bormoqda".

Ikkinchidan, "Zamonaviy texnologiyalar va qishloq xo'jaligi texnikasi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi fermerlar uchun bir xilda ochiq va hamyonbop bo'lishi kerak. Biz xalqaro moliya institutlarini ushbu masalaga alohida e'tibor qaratib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining "yashil texnologiyalar"dan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha aniq amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishga chaqiramiz".

Uchinchidan, "Biz eng zarur mahsulotlar savdosi va transportirovkasida to'liq erkinlik hamda oziq-ovqat yuklari harakatini tartibga soladigan qoidalarni soddalashtirish tarafdorimiz. Savdo yo'llari xavfsizligi va ochiqligini ta'minlash davlatlararo munosabatlarda o'zgarimas tamoyil bo'lib qolishi zarur".

Samarqand konferensiyasi davomida ana shu yangi tashabbuslar yuzasidan atroflicha fikr almashildi va global miqyosda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladigan muhim masalalar

yechimlari bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi. Forum yakunida qabul qilingan Global oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risidagi Samarqand deklaratsiyasi O'zbekiston hukumati tomonidan xalqaro anjumanda erishilgan kelishuvlarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Darvoqe, bu o'rinda Prezidentimiz 2022 yili qadimiy va navqiron Samarqand shahri mezbonlik qilgan Shanxay hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlari kengashining majlisida bugungi kunda dunyo miqyosida global ahamiyat kasb etayotgan oziq-ovqat xavfsizligi masalasiga alohida e'tibor qaratib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning umumiy tamoyillari va yondashuvlarini ishlab chiqish zarurligini haqida ta'kidlaganlari ham bu jabhada doimiy rivojlanishda davom etishimizni ko'rsatadi.

Bundan tashqari joriy yilda Dohada bo'lib o'tkan, Doha xalqaro konferensiyasida ham butun dunyo bo'ylab 300 dan ortiq hukumat va nohukumat tashkilot vakillari ishtirok etkanligi so'zimizning yana bir isboti sifatida ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olib, xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, aytishimiz mumkunki, FAO qishloq xo'jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. FAO BMTning ixtisoslashtirilgan muassasasi sifatida rivojlanayotgan mamlakatlar manfaatlarini himoya qilishning muhim mexanizmi bo'lib xizmat qilyapti. Uning tashkiliy tuzilishi va asosiy ishchi organlari qishloq xo'jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda dunyo davlatlarini rag'batlantirib va qo'llab quvatlab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.08.2024-y., 03/24/951/0673-son;
2. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2022-y., 09/22/133/0237-son, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son;
3. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.12.2024-y., 06/24/227/1089-son;
4. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.05.2024-y., 06/24/74/0332-son; 23.11.2024-y., 06/24/184/0954-son.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISHNING KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI

Abdullayev S.K¹, Mansurova M.M²

¹ Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi Mehnat sohasini boshqarish fakulteti yurisprudensiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi, "Adolat" talabalar ligasi tashkilotchisi

² Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi Mehnat sohasini boshqarish fakulteti yurisprudensiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi, "Adolat" talabalar ligasi tashkilotchisi

Annotatsiya. soʻnggi yillarda Oʻzbekiston Respublikasi barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlikni taʼminlash maqsadida “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini faol joriy etmoqda. Bu jarayonda korporativ boshqaruv tizimining roli beqiyos boʻlib, u korxonalarni ekologik masʼuliyatli faoliyat yuritishga undaydi. “Yashil iqtisodiyot” atamasi ekologik barqarorlikni taʼminlash, resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash, hamda energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy faoliyatni anglatadi. Bu konsepsiya nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqtisodiy oʻsish va ijtimoiy farovonlikni taʼminlashga ham xizmat qiladi. Ushbu maqolada Oʻzbekiston korxonalari uchun “yashil iqtisodiyot”ga oʻtishda korporativ boshqaruv tizimining ahamiyati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish boʻyicha taklif etilayotgan yechimlar haqida batafsil maʼlumot beriladi.

Kalit soʻzlar; korporativ boshqaruv, ekologik barqarorlik, ESG tamoyillari, MRV tizimi, “Yashil sertifikatlash”, ekologik tamoyillar, xalqaro standartlar, ekologik nazorat, atrof-muhit muhofazasi

THE TRANSITION TO A “GREEN ECONOMY” IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN THROUGH THE CORPORATE GOVERNANCE SYSTEM

Abstract In recent years, the Republic of Uzbekistan has been actively implementing the concept of "green economy" to ensure sustainable development and environmental safety. In this process, the role of the corporate governance system is invaluable, as it encourages enterprises to engage in environmentally responsible activities. The term "green economy" refers to economic activities aimed at ensuring ecological sustainability, rational use of resources, reducing and recycling waste, as well as increasing energy efficiency. This concept serves not only to protect the environment but also to ensure economic growth and social well-being. This article provides detailed information on the importance of the corporate governance system in the transition to a "green economy" for Uzbek enterprises, the existing problems, and proposed solutions to overcome them.

Key words: corporate governance, environmental sustainability, ESG principles, MRV system, "Green certification", environmental principles, international standards, environmental control, environmental protection,

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-sonli qarorida 2030-yilgacha “yashil iqtisodiyot”ga oʻtish strategiyasi belgilangan boʻlib, unda iqtisodiyot tarmoqlarida “yashil” texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik toza ishlab chiqarishni rivojlantirish kabi yoʻnalishlar koʻzda tutilgan. Korporativ boshqaruv tizimi esa korxonalarni samarali boshqarish, investitsiyalarni jalb qilish, moliyaviy barqarorlikni taʼminlash va ijtimoiy masʼuliyatni oshirishga qaratilgan boshqaruv mexanizmlarini oʻz ichiga oladi. Ushbu tizimning samarali ishlashi korxonalarni ekologik tamoyillarga rioya qilishga undaydi. Shu sababli, “yashil iqtisodiyot”ga oʻtishda korporativ boshqaruvning oʻrni juda muhimdir.

Tatqiqotlar natijasida korporativ boshqaruvda ekologik tamoyillarning yetarlicha integratsiyalanmaganligi O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlar jadallashgan bir paytda, korporativ boshqaruv tizimini zamonaviy va barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslash dolzarb masalaga aylandi. Biroq hozirgi kunda ko'plab yirik va o'rta korxonalar boshqaruv tizimida ekologik tamoyillarni yetarlicha inobatga olmayapti. Ayniqsa, korporativ siyosat va strategik rejalarda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va energiya samaradorligini oshirishga doir aniq ko'rsatkichlar yoki majburiyatlar yetarlicha aks etmagan. Ko'plab korxonalar korporativ boshqaruv kodeksini ishlab chiqishda yoki joriy etishda ekologik mezonlar asosida faoliyat yuritish tamoyillariga yetarlicha urg'u bermaydilar. Bu esa, bir tomondan, ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha xalqaro standartlarga zid holatni yuzaga keltiradi, ikkinchi tomondan esa, ichki qonunchilikda belgilangan ekologik talablarga rioya etmaslik xavfini kuchaytiradi.

Masalan, aksariyat korxonalarda yillik strategik biznes-rejalarda faqat iqtisodiy ko'rsatkichlarga urg'u beriladi, atrof-muhitga ta'sir darajasi, karbon izlari, chiqindilar hajmi yoki suv iste'moli kabi ekologik indikatorlar umuman nazarda tutilmaydi. Bu kabi yondashuv esa korxonalarni nafaqat ekologik xavfga, balki xalqaro moliyaviy va investitsion bozorlar oldidagi ishonchliligini yo'qotish xavfiga ham olib keladi. Bundan tashqari, korporativ rahbarlar va qaror qabul qiluvchilarning ekologik savodxonligi yetarli emasligi, "yashil" boshqaruv haqida chuqur bilimga ega bo'lmasligi ham ushbu muammoning ildizlaridan biri hisoblanadi. Aksariyat holatlarda ekologik masalalar faqat davlat tomonidan berilgan majburiy ko'rsatmalarga binoan ko'rib chiqiladi, ya'ni bu tashabbus ichki strategik manfaat sifatida emas, balki tashqi bosim sifatida qaraladi. Bu esa korxonalarni passiv pozitsiyada qoldiradi.

Yana bir muammo - ekologik tamoyillarni integratsiya qilishda yagona normativ baza va metodikaning yetishmasligidir. Korxonalar uchun ekologik mezonlarni aniqlash, monitoring qilish va baholashning aniq algoritmlari mavjud emas. Bu esa korxonalarining o'z faoliyatiga ekologik yondashuvni aniq qanday kiritishini noaniqlashtiradi.

Umumiy taxlil natijasida korporativ boshqaruv kodeksini tashkillashtirish ekologik tamoyillar bilan boyitish mumamolarga oydinlik kiritadi. Korporativ boshqaruv kodeksi – bu yuridik shaxslar, ayniqsa aksiyadorlik jamiyatlari va yirik korxonalar faoliyatini ochiqlik, javobgarlik, samaradorlik va adolat tamoyillari asosida tashkil etishga xizmat qiluvchi asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatdir. Biroq hozirgi kunda mavjud korporativ boshqaruv kodekslarida ekologik tamoyillar to'liq qamrab olinmagan. Shu bois, ekologik barqarorlikni ta'minlash va "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini real korporativ siyosatga integratsiyalash uchun ushbu kodeksni ekologik mezonlar bilan boyitish zarur.

Birinchidan, korxonalar boshqaruvining strategik yo'nalishlari orasida ekologik xavfsizlik va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni alohida band sifatida belgilash lozim. Bu orqali har bir korxonada o'zining ekologik ta'sirini kamaytirish, chiqindilarni optimallashtirish, suv va energiya resurslarini tejash bo'yicha aniq maqsadlarga ega bo'ladi. Ekologik tamoyillar boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim omilga aylanishi kerak.

Ikkinchidan, Kodeksga “atrof-muhitga ta’sirni baholash” va “barqarorlik bo’yicha yillik hisobot” kabi majburiy mezonlarni kiritish taklif etiladi. Bu har bir korxonani o’z ekologik faoliyati haqida muntazam hisobot yuritishga undaydi. Xususan, chiqindilar hajmi, CO₂ emissiyasi, qayta tiklanuvchi energiya ulushi kabi indikatorlar korporativ boshqaruv samaradorligini baholashda muhim rol o’ynaydi.

Uchinchidan, Kodeksga ekologik risklarni boshqarish bo’yicha alohida bob kiritilishi mumkin. Bu risklarni oldindan aniqlash, ularni yumshatish strategiyalarini ishlab chiqish va ekologik favqulodda vaziyatlarda harakat rejalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv ESG tamoyillariga ham mos keladi.

To’rtinchidan, Kodeksda ekologik mas’uliyatli investitsiyalar (green investments) bo’yicha normalarni kiritish, “yashil obligatsiyalar” yoki ekologik loyihalarni moliyalashtirishga ustuvorlik berish ko’zda tutilishi kerak. Bu orqali korxonalar o’z faoliyatini ekologik standartlarga moslashtirishda moliyaviy va institutsional yordamga ega bo’ladi.

Tatqiqotning ikkinchi bosqichida; Issiqxona gazlari chiqarilishini monitoring qilish tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi yani O’zbekiston Respublikasida barqaror rivojlanish va iqlim o’zgarishiga qarshi kurashish yo’lida ko’plab strategik hujjatlar, jumladan, “2030-yilgacha yashil iqtisodiyotga o’tish strategiyasi” va “Iqlim o’zgarishi bo’yicha milliy strategiya” qabul qilindi. Ushbu strategiyalarda issiqxona gazlarini kamaytirish, ularni monitoring qilish, hisobotga olish va tekshirish (MRV – Monitoring, Reporting, Verification) tizimini joriy etish asosiy yo’nalish sifatida belgilangandir. Ammo amaliyotda bu tizimning to’liq va samarali ishlashi hali ta’minlanmagan. Avvalo, MRV tizimining texnik va tashkiliy infratuzilmasi hali yetarli darajada shakllanmagan. Yirik sanoat korxonalarida, xususan energetika, kimyo, sement va metallurgiya tarmoqlarida atmosferaga chiqarilayotgan karbon (CO₂), metan (CH₄), azot oksidi (N₂O) kabi issiqxona gazlarining aniq hisobini yuritish uchun zarur bo’lgan uskunalar va texnologik vositalar mavjud emas yoki yetishmaydi. Bu esa chiqindilar haqidagi ma’lumotlarning aniqligi va ishonchligiga jiddiy ta’sir ko’rsatadi.

Shuningdek, MRV tizimida ishtirok etayotgan xodimlar va mutaxassislarning ekologik monitoring bo’yicha bilim va ko’nikmalari past darajada. Maxsus sertifikatliyadan o’tgan mutaxassislar soni oz, bu esa xalqaro amaliyot talablariga mos kelmaydi. Bu borada zamonaviy, xalqaro mezonlarga asoslangan kadrlar tayyorlash tizimi sust rivojlangan. Bundan tashqari, chiqindilar hajmi bo’yicha tuzilayotgan hisobotlar, ko’pincha, korxonaning o’z bahosiga tayaniladi. Mustaqil audit va tekshiruv tizimi yo’lga qo’yilmagani sababli, real ma’lumotlar va deklaratsiya qilinayotgan raqamlar o’rtasida tafovutlar yuzaga chiqadi. Bu holat, o’z navbatida, hukumatning iqlim siyosatini rejalashtirishda noto’g’ri asoslar bo’yicha qarorlar qabul qilishiga olib keladi. Bu esa mavjud huquqiy-me’yoriy hujjatlar MRV tizimining ishlash tartibi, standartlari va majburiy qoidalarini yetarlicha aniqlashtirmagan. Issiqxona gazlari bo’yicha yillik kvotalar, chiqindilarni kamaytirish rejalarini, monitoring uslublari va javobgarlik mexanizmlari to’liq tartibga solinmaganligini yana bir muammo sifatida ko’rsatadi.

Demak; MRV tizimini takomillashtirish bu - Issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va ekologik mas’uliyatni oshirishda MRV (Monitoring, Reporting and

Verification — Kuzatuv, Hisobot va Tasdiqlash) tizimi muhim o‘rin tutadi. Bu tizim korxonalarining ekologik faoliyatini aniq, shaffof va tekshirib bo‘ladigan tarzda baholash imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasida MRV tizimi joriy etilmoqda, biroq u hali to‘liq takomillashmagan, tizimli va birxil standartlarga ega emas. Shu bois uni xalqaro talablarga muvofiq ravishda modernizatsiya qilish zarurati mavjud.

Birinchidan, MRV tizimini takomillashtirish uchun milliy darajadagi yagona normativ-huquqiy asosni ishlab chiqish zarur. Hozirgi kunda turli vazirlik va idoralar ekologik hisobotlar va monitoringni o‘z metodologiyasi asosida yuritmoqda, bu esa yagona standartning shakllanmasligiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois, milliy MRV standartlari, metodikasi va ko‘rsatkichlari (indikatori) ishlab chiqilishi kerak. Bu ekologik monitoring va hisobot berishda umumiy yondashuvni shakllantiradi.

Ikkinchidan, korxonalarda real va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlarini joriy etish zarur. Masalan, havoga chiqayotgan CO₂, metan yoki boshqa issiqxona gazlari chiqindilarini o‘lchash uchun sensorlar o‘rnatilishi va bu ma‘lumotlar markaziy ma‘lumotlar bazasiga uzatilishi kerak. Raqamli texnologiyalar MRV tizimining shaffof va xolis bo‘lishini ta‘minlaydi.

Uchinchidan, ekologik hisobotlarni yuritish va topshirishni majburiy qilish kerak. Bu hisobotlarda korxonadan hosil qilingan chiqindilar, ularni kamaytirish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar, ekologik xarajatlar, energiya sarfi va qayta tiklanuvchi energiyalardan foydalanish ulushi aks ettirilishi lozim. Bunday yillik yoki choraklik hisobotlar e‘lon qilinib, ular asosida baholash va rag‘batlantirish tizimi yo‘lga qo‘yilishi kerak.

To‘rtinchidan, MRV tizimida mustaqil va akkreditatsiyalangan verifikator (tasdiqlovchi) tashkilotlar ishtirokini ta‘minlash muhim. Ular korxonalar tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotlarning ishonchliligini tekshiradi. Bu orqali noto‘g‘ri yoki sun‘iy ravishda kamaytirilgan raqamlar oldi olinadi.

Beshinchidan, MRV tizimi xalqaro talablarga muvofiq integratsiyalashgan bo‘lishi kerak. Xususan, BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha doiraviy konvensiyasi (UNFCCC) va Parij kelishuvi talablariga mos ravishda ishlab chiqilishi, hamda xalqaro donorlar va investorlar uchun qabul qilinadigan ochiq tizimga aylanishi lozim.

Tatqiqotning uchinchi bosqichida : “Yashil” sertifikatlash tizimining to‘liq yo‘lga qo‘yilmaganligi O‘zbekiston Respublikasida ekologik barqarorlikni ta‘minlash va “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini amaliyotga joriy etish borasida muhim qadamlar qo‘yilayotgan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishda ayrim tizimli kamchiliklar mavjud. Jumladan, ishlab chiqarish, qurilish, energetika va qishloq xo‘jaligi kabi sohalarda “yashil” sertifikatlash tizimining to‘liq yo‘lga qo‘yilmaganligi dolzarb muammolardan biri sanaladi. Mazkur tizimning to‘laqonli ishlamasligi ekologik jihatdan barqaror va samarali boshqaruvga erishish imkoniyatlarini cheklamoqda.

Hozirgi kunda ko‘pgina ishlab chiqaruvchilar o‘z mahsulotlari yoki xizmatlarini ekologik toza deb ta‘riflaydilar, ammo bu da‘volarni mustahkamlovchi, xalqaro yoki milliy darajadagi “yashil” sertifikatlar bilan tasdiqlovchi tizim yetarlicha ishlab chiqilmagan. Masalan, bino va inshootlar qurilishida energiya samaradorligi, suv tejovchanlik, chiqindilarni kamaytirish kabi mezonlarga asoslangan LEED yoki BREEAM kabi xalqaro standartlar joriy etilmagan yoki faqatgina ayrim xorijiy

loyihalarda sinov tariqasida qo'llanilmoqda. Milliy darajadagi muqobil standartlar esa hali ishlab chiqilmagan yoki majburiy emas.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasida "yashil" mahsulotlar yoki xizmatlar uchun ekologik markirovka berish, ularni baholash va tasdiqlash bilan shug'ullanuvchi mustaqil, akkreditatsiyadan o'tgan tashkilotlar soni juda kam. Bu esa bozorda ekologik tozalikka oid noto'g'ri va yolg'on da'volarning ko'payishiga olib kelmoqda. Natijada, iste'molchilarda "yashil" mahsulotlarga bo'lgan ishonch pasaymoqda, korxonalar esa haqiqiy ekologik ustunlik uchun emas, balki marketing maqsadida soxta iddaolarni ilgari surmoqda. Shu bilan birga, korxonalar tomonidan "yashil" sertifikat olishga bo'lgan rag'batlar ham yetarli emas. Moliyaviy yengilliklar, soliqqa oid imtiyozlar yoki grant dasturlarining yo'qligi sababli ko'pchilik ishlab chiqaruvchilar ekologik sertifikatlashdan o'tish uchun motivatsiyaga ega emas. Natijada, bu tizim keng ommalashmayapti va mamlakat miqyosida barqaror ekologik boshqaruvga zamin yaratmayapti.

Umuman olganda "Yashil" sertifikatlash tizimini kengaytirish atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda "yashil" sertifikatlash tizimi muhim vositalardan biridir. Ushbu tizim mahsulotlar, xizmatlar, binolar yoki ishlab chiqarish jarayonlarining ekologik xavfsizligini baholaydi hamda ekologik mezonlarga javob beradigan subyektlarga maxsus sertifikatlar beradi. O'zbekiston Respublikasida bu borada dastlabki qadamlar qo'yilgan bo'lsa-da, "yashil" sertifikatlash hali to'laqonli tizim sifatida shakllanmagan va keng amaliyotga tatbiq etilmagan. Shu sababli, ushbu tizimni kengaytirish dolzarb yechim sifatida qaraladi.

Birinchidan, "yashil" sertifikatlash bo'yicha yagona milliy standartlar, mezonlar va texnik reglamentlar to'plamini ishlab chiqish zarur. Hozirgi paytda bu boradagi mezonlar yetarlicha aniqlashtirilmagan, ko'p hollarda xalqaro standartlarga tayaniladi. Milliy me'yorlarning bo'lmasligi sertifikatlash jarayonini noaniq va subyektivlashtiradi. Shu sababli, energetik samaradorlik, chiqindisiz texnologiyalar, resurs tejoychi ishlab chiqarish, karbon izini kamaytirish va ekologik xavfsizlik kabi yo'nalishlarda qat'iy talablar belgilanishi lozim.

Ikkinchidan, "yashil" sertifikatlarni beruvchi mustaqil, akkreditatsiyadan o'tgan va nufuzli tashkilotlarni shakllantirish muhim. Ular sertifikatlash jarayonini professional va xolis o'tkazishi, korxonalarining ekologik faoliyatini mustaqil baholay olishi kerak. Bu esa tizimga bo'lgan ishonchni oshiradi va korrupsiyaviy xavflarni kamaytiradi.

Uchinchidan, "yashil" sertifikatga ega bo'lgan korxonalar uchun iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish zarur. Masalan, ekologik sertifikatga ega ishlab chiqaruvchilarga soliq imtiyozlari, subsidiyalar, davlat buyurtmalarida ishtirok etishdagi ustuvorliklar berilishi mumkin. Bu tizim ko'proq tadbirkorlarni "yashil" texnologiyalarni joriy etishga undaydi.

To'rtinchidan, xalqaro "yashil" sertifikatlash tizimlari — masalan, LEED, BREEAM, ISO 14001 kabi tizimlarga integratsiya qilinish, ularning talablariga mos milliy tizim yaratish ham O'zbekiston mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bu orqali ekologik sertifikatlangan mahsulotlar xalqaro bozorda raqobatbardosh bo'lishi mumkin.

Beshinchidan, aholining va tadbirkorlarning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik sertifikatlashning afzalliklari haqida keng axborot kampaniyalari o'tkazish muhim. Chunki "yashil" sertifikat faqat hujjat emas, balki iste'molchilarga mahsulot yoki xizmatning ekologik xavfsizligi haqida kafolatdir.

Tatqiqotning to'rtinchi bosqichida : ESG tamoyillarining yetarlicha joriy etilmaganligi so'nggi yillarda global miqyosda barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun ESG — ya'ni ekologik (Environmental), ijtimoiy (Social) va korporativ boshqaruv (Governance) tamoyillariga asoslangan yondashuv tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu tamoyillar korxonalarini nafaqat moliyaviy natijalar, balki ularning atrof-muhit, jamiyat va boshqaruvdagi mas'uliyati asosida baholashga imkon beradi. O'zbekiston ham barqaror rivojlanish strategiyasida ESG tamoyillarini joriy etishga intilmoqda. Biroq amaliyotda bu yondashuv yetarli darajada shakllanmagan va korporativ boshqaruv tizimida keng qo'llanilmayapti.

Avvalo, korxonalar tomonidan ESG tamoyillariga nisbatan tushunchaning chuqurligi yetishmaydi. Aksariyat rahbarlar ESGni faqatgina atrof-muhit bilan bog'liq masala deb hisoblaydi va bu tamoyillarni to'liq tushunmaydi. Aslida esa, ESG ekologik xavfsizlikdan tashqari xodimlarning huquqlari, tenglik, korporativ etik qoidalar, manfaatlar to'qnashuvi, shaffoflik, korrupsiyaga qarshi choralar va boshqaruv tizimining ochiqligi kabi ko'plab masalalarni qamrab oladi. Bu keng qamrovli yondashuv ko'pchilik korxonalarining strategik hujjatlarida aks ettirilmagan. Yana bir jihati ESG bo'yicha majburiy hisobot berish tizimining mavjud emasligi. Ko'pgina kompaniyalar o'z ijtimoiy yoki ekologik faoliyatlari haqida ochiq, muntazam va standartlashtirilgan hisobot tayyorlamaydilar. Bunday axborotning yo'qligi esa nafaqat investorlarga, balki jamoatchilikka ham korxonaning barqarorlik bo'yicha real holatini baholashga to'sqinlik qiladi. Chet ellik investorlar aynan ESG ko'rsatkichlariga e'tibor qaratadi va shaffof hisobotlar talab qiladi. Bu tizim rivojlanmaganligi xorijiy investitsiyalar oqimini kamaytirishi mumkin. Bundan tashqari, ESG yondashuvini korporativ madaniyatga singdirish, rahbar va xodimlar ongiga barqarorlik qadriyatlarini singdirish bo'yicha yetarli tashabbuslar yo'q. Aksariyat hollarda ESG faqat xalqaro loyihalarda yoki donorlar talabi bo'yicha ko'riladigan ikkilamchi masala sifatida qaraladi. Huquqiy jihatdan ham ESG tamoyillarini korporativ boshqaruvga integratsiya qilish bo'yicha maxsus normativ hujjatlar, indikatorlar yoki milliy standartlar to'liq ishlab chiqilmagan. Bu esa korxonalar uchun yagona yondashuv va baholash mezonlarining mavjud emasligiga olib keladi.

ESG tamoyillarini joriy etish bu so'nggi yillarda global miqyosda korporativ boshqaruv va investitsiya qarorlarini qabul qilishda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari asosiy mezonlardan biriga aylangan. ESG tamoyillari tabiatga munosabat (Environmental), ijtimoiy mas'uliyat (Social) va boshqaruv sifatini (Governance) o'z ichiga oladi. Bu tamoyillarni joriy etish nafaqat korxonalarining ekologik va ijtimoiy barqarorligini ta'minlaydi, balki investorlar va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda ishonchli va ochiq faoliyat yuritish imkonini beradi. O'zbekistonda ESG tamoyillari hali keng miqyosda amaliyotga joriy etilmagan. Bu esa ekologik xavfsizlik, mehnat huquqlari, boshqaruvdagi shaffoflik va korrupsiyaga qarshi kurash kabi sohalarda korxonalar faoliyatining yetarlicha baholanmasligiga olib

kelmoqda. Shu sababli ESG tamoyillarini milliy darajada joriy qilish muhim strategik yoʻnalishdir.

Birinchiidan, ESG tamoyillariga asoslangan milliy standartlar va baholash mezonlari ishlab chiqilishi zarur. Har bir korxonalar oʻzining ekologik taʼsiri (masalan, chiqindilar, suv va energiya sarfi), ijtimoiy siyosati (xodimlar uchun shart-sharoitlar, gender tengligi, xavfsizlik) hamda boshqaruv (ijro organlari faoliyati, manfaatlar toʻqnashuvi, ochiqlik) koʻrsatkichlarini aniq mezonlar asosida baholashi kerak boʻladi.

Ikkinchiidan, ESG hisobotlarini yuritish va eʼlon qilishni korxonalar uchun majburiy holatga aylantirish lozim. Yirik biznes subyektlari va davlat ishtirokidagi korxonalar har yili ESG hisobotlarini taqdim etishi, bu maʼlumotlar ochiq platformalarda jamlanishi zarur. Bu shaffoflikni oshiradi va jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi.

Uchinchiidan, ESG koʻrsatkichlari asosida reyting tizimini joriy etish mumkin. Reyting yuqori boʻlgan korxonalar soliq imtiyozlari, grantlar, davlat koʻmagidan ustuvor foydalanish kabi ragʻbatlantiruvchi vositalarga ega boʻladi. Bu esa biznes subyektlarini ekologik va ijtimoiy jihatdan masʼuliyatli boʻlishga undaydi.

Toʻrtinchiidan, ESG tamoyillarini korporativ boshqaruv kodekslari va kompaniya ichki siyosatlariga integratsiya qilish zarur. Bu orqali kompaniyalar strategik rejalarini barqaror rivojlanish maqsadlariga mos ravishda shakllantira oladi.

Beshinchiidan, moliya va bank sohasida ESG mezonlarini inobatga oluvchi “yashil moliyalashtirish” mexanizmlarini keng joriy etish muhim. Bu orqali ESG ga javob beruvchi loyihalar ustuvorlik bilan kreditlanadi.

Oʻzbekiston Respublikasida “yashil iqtisodiyot”ga oʻtish jarayoni mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorligini taʼminlash uchun muhim bosqichdir. Bu jarayon korporativ boshqaruv tizimining toʻgʻri tashkil etilishi, ekologik tamoyillarni amaliyotga joriy etish va ilgʻor xalqaro standartlarga moslashishni talab qiladi. Oʻzbekistonning oʻsib borayotgan iqtisodiyoti va tabiiy resurslarga boʻlgan ehtiyoji, shuningdek, atrof-muhitning yomonlashishi, ushbu oʻzgartirishlarni amalga oshirishda qatʼiyatni talab qiladi. “Yashil iqtisodiyot”ga oʻtish nafaqat ekologik barqarorlikni, balki ijtimoiy va iqtisodiy yaxshilanishlarni ham koʻzda tutadi. Shu sababli, korporativ boshqaruv tizimida ekologik tamoyillarni integratsiyalash, yangi tizimlarni joriy etish va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini qoʻllash juda muhim.

Birinchiidan, korporativ boshqaruv tizimida ekologik tamoyillarning integratsiyasi — bu korxonalar va tashkilotlarning ekologik taʼsirini kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va chiqindilarni kamaytirish boʻyicha aniq yoʻnalishlarni belgilashni taʼminlashdir. Bugungi kunda koʻplab yirik va oʻrta korxonalar ekologik masʼuliyatni oʻz faoliyatining ajralmas qismi sifatida qarashmoqda. Biroq, barcha korxonalar bu tamoyillarni toʻliq qamrab olmagan. Shuning uchun, ekologik tamoyillarni korporativ boshqaruv kodekslariga kiritish, shuningdek, ularni yirik kompaniyalar va tashkilotlar tomonidan majburiy ravishda amalga oshirish kerak. Bu jarayon faqat ekologik barqarorlikni taʼminlab qolmay, balki biznesning xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshiradi va investorlar uchun koʻproq imkoniyatlar yaratadi.

Ikkinchidan, MRV tizimini takomillashtirish orqali korxonalar o'zlarining ekologik faoliyatini yanada shaffof va tizimli ravishda kuzatib borishlari mumkin. Hozirgi vaqtda MRV tizimi to'liq rivojlanmagan bo'lib, ba'zi korxonalar ushbu tizimdan faqat nominal ravishda foydalanmoqdalar. MRV tizimini yaxshilash va unga yangi texnologiyalarni, xususan raqamli monitoring vositalarini qo'shish orqali, korxonalar o'zlarining ekologik ta'sirini aniq o'lchab, tegishli choralarni ko'rishlari mumkin. Bu esa, o'z navbatida, ekologik barqarorlikka erishishga yordam beradi va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, "yashil" sertifikatlash tizimini kengaytirish orqali ham ekologik barqarorlikni ta'minlash mumkin. Yashil sertifikatlash, masalan, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiyalardan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish kabi ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston korxonalari uchun bunday sertifikatlarni olish nafaqat ekologik imijni yaxshilash, balki xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Bu tizimni kengaytirish orqali, korxonalar o'z faoliyatlarining ekologik xavfsizligini ishonchli va tasdiqlangan tarzda ko'rsata olishadi, shuningdek, jahon bozori talablari bilan hamohang bo'lishadi.

To'rtinchidan, ESG tamoyillarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. ESG tamoyillari (Environmental, Social, Governance) — atrof-muhit, ijtimoiy mas'uliyat va boshqaruv sohalarida korxonalarining yuqori standartlarga mos kelishini ta'minlaydi. ESG tamoyillarini joriy etish, nafaqat ekologik xavfsizlikni, balki ijtimoiy barqarorlikni va korporativ boshqaruvning yuqori standartlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu tamoyillarni amalga oshirish, O'zbekiston korxonalari uchun moliyaviy va ijtimoiy manfaatlarni oshirishga yordam beradi. ESG tamoyillarini amaliyotga joriy etish orqali, mamlakat iqtisodiyoti, ijtimoiy barqarorlik va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim yutuqlarga erishish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonida korporativ boshqaruv tizimi asoslidir. Korxonalarda ekologik tamoyillarni integratsiyalash, MRV tizimini takomillashtirish, "yashil" sertifikatlash tizimini kengaytirish va ESG tamoyillarini joriy etish orqali mamlakat o'zining ekologik barqarorlikka erishishi va atrof-muhitni yaxshilashga xizmat qiladigan bir qator muhim qadamlarni tashlashi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatning umumiy ekologik holatini yaxshilash, global miqyosda o'zining barqaror rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish va xalqaro miqyosda yuqori reytingga ega bo'lish imkoniyatlarini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islomov, A. (2015). "O'zbekiston iqtisodiyoti: Rivojlanish strategiyasi va barqaror iqtisodiyotga o'tish".
2. Toshmatov, T. (2018). "Yashil iqtisodiyot va uning O'zbekistondagi istiqbollari".
3. Mahmudov, M. (2020). "Ekologik boshqaruv va barqaror rivojlanish: O'zbekiston misolida".
4. Qosimov, R. (2016). "Korporativ boshqaruv va yashil iqtisodiyot: O'zbekiston tajribasi".
5. Mirzaev, S. (2019). "Sustainable Development va O'zbekiston: Rivojlanishning yangi tamoyillari".

6. Maqsudov, A. (2021). "O'zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasi".
7. Abdullayev, D. (2022). "Ekologiya va iqtisodiy barqarorlik: O'zbekistonning
8. yashil iqtisodiyotga o'tishi".
9. World Bank. (2012). "Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development".
10. United Nations Environment Programme (UNEP). (2011). "Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication".
11. OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development). (2011). "Towards Green Growth".
12. Hawken, P., Lovins, A., & Lovins, L. H. (1999). "Natural Capitalism: Creating the Next Industrial Revolution".
13. Elkington, J. (1998). "Cannibals with Forks: The Triple Bottom Line of 21st Century Business".
14. Kotsantonis, S., Pinney, C., & Serafeim, G. (2016). "ESG and Responsible Institutional Investing: A Critical Review".
15. ISO 14001:2015. "Environmental Management Systems - Requirements with Guidance for Use".
16. Gunningham, N., Kagan, R. A., & Thornton, D. (2004). "Social License and Environmental Protection: Why Businesses Go Beyond Compliance".
17. UN Global Compact (2015). "The Ten Principles of the UN Global Compact".
18. Sachs, J. D. (2015). "The Age of Sustainable Development".

EKOLOGIK XAVFSIZLIK VA INSON HUQUQLARI: DAVLATNING HUQUQIY MAJBURIYATLARI

To'xtashev H.I.¹, Tursunkulov E.O.²

Annotatsiya. Ekologik xavfsizlik va inson huquqlari zamonaviy dunyoda tobora muhim bo'lib borayotgan mavzulardan biridir. Atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi kabi global muammolar nafaqat inson salomatligiga, balki kelajak avlodlarining hayotiga ham jiddiy tahdid solmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham bu muammolarga qarshi kurashish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha bir qator huquqiy va amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, xalqaro shartnomalar va konsepsiyalar asosida davlatning ekologik xavfsizlik sohasidagi huquqiy majburiyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ekologik xavfsizlik, inson huquqlari, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslar, ekologik huquqlar, O'zbekistondagi ekologik qonunchilik, ekologik innovatsiyalar, yashil texnologiyalar, ekologik monitoring, ekologik nazorat, ekologik ekspertiza.

¹ To'xtashev Hikmatilla Ismatillayevich, "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti Huquqiy fanlar kafedrasini mudiri v.b. yu.f.f.d. (PhD).

² Tursunkulov E.O. "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti "Ekologiya va Huquq" fakulteti "Yurisprudensiya" yo'nalishi 1-kurs talabasi "Eco-Lawyer scientist tadqiqotchi huquqshunos ekologlar" ilmiy to'garagi a'zosi.

ENVIRONMENTAL SECURITY AND HUMAN RIGHTS: LEGAL OBLIGATIONS OF THE STATE

Annotation. Environmental security and human rights are becoming increasingly important topics in the modern world. Global issues such as environmental pollution, climate change, and the depletion of natural resources pose serious threats not only to human health but also to the lives of future generations. The Republic of Uzbekistan is also taking a number of legal and practical measures to combat these problems and ensure environmental security. This article examines the legal obligations of the state in the field of environmental security based on the Constitution of the Republic of Uzbekistan, resolutions of the Cabinet of Ministers, international treaties, and concepts.

Key words: environmental security, human rights, climate change, natural resources, environmental rights, environmental legislation in Uzbekistan, environmental innovations, green technologies, environmental monitoring, environmental control, environmental expertise.

Ekologik xavfsizlik deganda, atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi, iqlim o'zgarishi kabi omillar natijasida yuzaga keladigan xavflardan insoniyatni himoya qilish tushuniladi. Bu xavflar nafaqat inson salomatligiga, balki iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorlikka ham ta'sir ko'rsatadi. Inson huquqlari va ekologik xavfsizlik o'rtasida chambarchas bog'liqlik mavjud. Masalan, toza havoga ega bo'lish, suv resurslaridan foydalanish, sog'lom atrof-muhitda yashash kabi huquqlar insonning asosiy huquqlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonning Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ekologik xavfsizlikni himoya qilish va ekologik muvozanatni saqlash davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida "Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik majburiyatini oladi. Shuningdek, Konstitutsiyada Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish va tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish bo'yicha zarur choralar ko'rish belgilab qo'yilgan." deb keltirilgan.[1] Ushbu moddaning maqsadi O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiladigan har qanday shaxs, u xoh O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'ladimi, chet el fuqarosi bo'ladimi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs bo'lishidan qat'iy nazar, o'zi yashab turgan joy va tabiat, uning holati haqida ma'lumotlar olish va talab qilish huquqini ta'minlab beradi. Albatta, bu ma'lumotlar ishonchli manbalar tomonidan asosli berilishi kerak. Shuningdek Konstitutsiyaning 68-moddasida "Yer, yerosti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona

foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir".[2] Ushbu norma esa yuqorida keltirilgan normaning mantiqiy davomi hisoblanadi. Sababi, yuqoridagi normada shaxsning huquqi keltirilgan bo'lsa, ushbu normada esa shaxsning majburiyati keltirilgan. Insonlar o'z huquqlaridan foydalangan holatda majburiyatlarini ham bajarishi zarur.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ekologik xavfsizlikni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha bir qator qarorlar qabul qilgan. Ushbu qarorlar orqali davlat ekologik muammolarni hal qilish, aholining ekologik savodxonligini oshirish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Masalan, 2019-yil 27-maydagi 434-sonli qarorda ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan. Ushbu konsepsiya orqali aholining ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ta'limni ta'limning barcha bosqichlariga kiritish va ekologik madaniyatni shakllantirish maqsad qilingan.[3] Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-76-sonli 30.12.2021-yildagi "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror. Ushbu qarorda atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha bir qator chora-tadbirlar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi ekologik xavfsizlikni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha bir qator xalqaro shartnomalarga qo'shilgan va ularni ratifikatsiya qilgan. Ushbu shartnomalar orqali O'zbekiston xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikda ekologik muammolarni hal qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Quyida ushbu hujjatlardan misollar keltiriladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim O'zgarishi To'g'risidagi Konvensiyasi (UNFCCC). Ushbu hujjatga O'zbekiston Respublikasi 1993-yil qo'shilgan. Ushbu hujjatga qo'shilishdan maqsad: Iqlim tizimiga xavfli antropogen ta'sirning oldini olish va iqlim o'zgarishiga moslashishni ta'minlash. Ushbu hujjat asosida O'zbekiston ushbu konvensiya iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha milliy strategiyalar va rejalarni ishlab chiqdi. Masalan, iqlim o'zgarishiga moslashish va uning salbiy oqibatlarini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rildi.[6][7]

O'zbekiston Respublikasida ekologik xavfsizlikni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha bir qator huquqiy mexanizmlar mavjud. Ushbu mexanizmlar orqali davlat atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash, ekologik muammolarni bartaraf etish va fuqarolarning ekologik huquqlarini himoya qilish

maqsadida chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Quyida ushbu huquqiy mexanizmlar haqida batafsil ma'lumot keltirilgan:

Ekologik Ekspertiza bu xo'jalik va boshqa faoliyat turlarining atrof-muhitga ta'sirini baholash, uning ekologik xavfsizlik talablariga muvofiqligini aniqlash hamda zararli oqibatlarining oldini olishga qaratilgan ilmiy-huquqiy jarayondir. Ekspertizadan maqsad: loyihalarning atrof-muhitga ta'sirini baholash va ularning ekologik jihatdan xavfsizligini ta'minlash.[15] Loyihalarni ekologik ekspertizadan o'tkazilishi qat'iy belgilab qo'yilgan va har qanday yangi loyiha (sanoat, qurilish, transport va boshqalar) davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazilishi shart. Ekspertiza jarayonida loyihaning atrof-muhitga salbiy ta'siri baholanadi va zararli ta'sirlarning oldini olish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Ushbu jarayonda jamoatchilik ham ishtirok etishi mumkin. Ba'zi hollarda ekologik ekspertiza jarayonida jamoatchilik fikri hisobga olinadi, ayniqsa, loyiha mahalliy aholi hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan bo'lsa.[16]

Ekologik Monitoring bu atrof-muhit holatini muntazam kuzatish, o'zgarishlarini baholash va prognoz qilish tizimidir. Bu amaliyotdan maqsad, atrof-muhit holatini doimiy ravishda kuzatish, ifloslanish darajasini aniqlash va zararli ta'sirlarning oldini olish hisoblanadi. Ushbu jarayonga amaliy misollar, atrof-muhit holatini kuzatish, havo, suv, tuproq va boshqa tabiiy resurslarning holatini doimiy ravishda kuzatish. Buning uchun maxsus sensorlar, stansiyalar va laboratoriyalardan foydalaniladi. Ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish, ekologik monitoring tizimi orqali to'plangan ma'lumotlar asosida atrof-muhit holati baholanadi va zararli ta'sirlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Ochiq ma'lumotlar foydalanish. Ekologik monitoring natijalari fuqarolarga ochiq tarzda taqdim etiladi. Bu orqali fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqi ta'minlanadi. Ya'ni aholi atrof-muhit holati to'g'risida vaqtida ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'ladi. [17]

Shuningdek, huquqiy mexanizmlar bilan birga bu sohada ekologik tarbiya mexanizmini ham takomillashtirish kerak. Sababi tarbiya axloq me'yorlari bilan o'lchansa, huquqning eng asosiy manbalaridan biri bu axloq hisoblanadi. Ekologik tarbiya mexanizmini takomillashtirish ekologik ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari va usullarini didaktik tizimlarga joriy etishda o'z ifodasini topadi. Buning uchun, avvalo, o'quv dasturlari, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalarining ilg'or xalqaro dasturlarga moslashtirilishi maqsadga muvofiq. Tahsil oluvchilarning kreativ, analitik, nostandart fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun o'zining yangilangan shakl va mazmuniga ega darsliklar yaratish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoniga binoan, mamlakatimizda oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish vazifalari belgilandi.[18]

Umumiy ta'lim sohasida ekologik tarbiya mexanizmlarini rivojlantirish maqsadi va vazifalari ijtimoiy o'zgarishlarga yuz tutib, shaxsning butun hayoti davomida malakaviy, moslashuv va integratsion ehtiyojlarini qondirishga ixtisoslashgan o'z resurslari va harakat mexanizmlarini kuchaytiradi. Ushbu tizimda jamiyat uchun chinakam muhim bo'lgan aniq ekologik maqsadlar, vazifalar va funksiyalar mavjud. Biroq, bu tizimni yanada rivojlantirish, uning ishlash mexanizmlarini qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash zarur.[19]

Hozirgi davrda ta'lim olayotgan talaba va o'quvchilar bu kelajak hayotining asosiy subyektlari hisoblanadi,shuning uchun ham nafaqat o'zimizni ,balki ularni ham o'ylagan holda ekologik xavfsizlikni ta'minlashni ,shuningdek bu sohada insonlarning huquqlari toptalmasligi uchun asoslar yaratish uchun harakat qilishimiz kerak. Bu borada albatta asosiy va majbur subyekt bbu – davlatdir. Fuqarolar ushbu sohada o'z huquqlarini talab qila olishi kerak. Buning uchun albatta yuqorida keltirilgan tarbiya mexanizmlari to'laqonli ishlasagina erisha olamiz.

Xulosa. Ekologik xavfsizlik inson huquqlarining ajralmas qismi bo'lib, davlatning ushbu sohadagi majburiyatlari tabiatni muhofaza qilish, sog'lom muhit yaratish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha mustahkam qonunchilik bazasiga ega bo'lib, atrof-muhitni muhofaza qilishga oid milliy va xalqaro majburiyatlarini bajarishga intilmoqda.So'nggi yillarda O'zbekistonda ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha qator muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. "Yashil makon" loyihasi, Orolbo'yi hududida ekologik tiklash dasturlari, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish strategiyalari ekologik muhitni yaxshilashga xizmat qilmoqda. Xalqaro ekologik hamkorlik va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi ushbu sohadagi ijobiy natijalarni tezlashtirishga yordam beradi.Biroq ekologik xavfsizlik faqat davlat siyosati bilan cheklanib qolmaydi. Fuqarolar ham ekologik madaniyatni oshirish, tabiatni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish va chiqindilarni kamaytirish orqali ekologik barqarorlikka hissa qo'shishlari lozim. Kelajak avlodlarga toza va xavfsiz muhitni qoldirish uchun davlat,

jamiyat va xalqaro hamjamiyatning hamkorlikda harakat qilishi muhimdir. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash nafaqat bugungi kunning, balki kelajakning ham muhim vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 49-moddasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 68-moddasi.
3. 434-сон 27.05.2019. O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida <https://lex.uz/docs/-4354743>
4. PQ-76-сон 30.12.2021. Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida <https://lex.uz/uz/docs/-5801426>
5. O'RQ-951-сон 29.08.2024. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida <https://lex.uz/docs/-7088059>
6. 22.03.1985. Ozon qatlamini himoya qilish to'g'risida <https://lex.uz/docs/-2597142>
7. 09.05.1992. Iqlimning o'zgarishi to'g'risida <https://lex.uz/ru/docs/-2598540>
8. 25.11.1992. Ozon qatlamini buzuvchi moddalarga doir Monreal protokoli <https://lex.uz/docs/-3043111?otherlang=1>
9. PQ-171-сон 31.05.2023. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida <https://lex.uz/docs/-6479134>
10. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi <https://www.uznature.uz/uz/site/page?numer=102>
11. 41-сон 25.01.2022. Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida <https://lex.uz/ru/docs/-5836850>
12. PQ-5202-сон 29.07.2021. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2021-yil 18-maydagi "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida"gi maxsus rezolyutsiyasini amalga oshirish choralari to'g'risida <https://lex.uz/docs/-5538638>
13. O'RQ-951-сон 29.08.2024. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida <https://lex.uz/docs/-7088059>
14. <https://uznature.uz/uz/site/news?id=3327>
15. Тухташев , Х. (2022). Применение стимулов для повышения эффективности землепользования фермерских хозяйств: национальный и зарубежный опыт. *Общество и инновации*, 3(11/S), 260–269. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss11/S-pp260-269>
16. <https://lex.uz/docs/-32955>
17. <https://uzspace.uz/oz/area-of-use/view/23>
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, "Xalq so'zi" gazetasi, 2019., 9 oktyabr, N 209(7439)-son
19. <https://journal.fdu.uz/index.php/sifsu/article/view/3865/3067>

“YASHIL MAKON” LOYIHASI: DARAXTLARNI TEKIN FOYDALANISHGA BERISH SHARTNOMASINING HUQUQIY ASOSLARI VA NOTARIAL TASDIQLANISHINING AHAMIYATI

G'ofurova D.M.¹, Muxtorov K.M.²

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirishga qaratilgan Farmonining mohiyati, ayniqsa, yashil bog'lardagi daraxt va butalarni tekin foydalanishga berish mexanizmining ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi roli tahlil qilinadi. Ushbu tashabbusning huquqiy asoslari, xususan, tekin foydalanish shartnomasini notarial tartibda rasmiylashtirish tartibi yoritiladi. Shuningdek, daraxtlarni aholiga birlashtirish va parvarishlash bo'yicha xalqaro tajribalar o'rganilib, O'zbekistondagi loyihaning istiqbollari baholanadi. Tashabbusning jamiyatda ekologik ongini oshirish va shaharlar ekologiyasini yaxshilashga qo'shadigan hissasiga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: yashil makon, ekologiya, atrof-muhit muhofazasi, ekologik barqarorlik, O'zbekiston, tekin foydalanish, notarial rasmiylashtirish, jamoatchilik ishtiroki, shaharsozlik.

“GREEN SPACE” PROJECT: LEGAL FOUNDATIONS OF THE CONTRACT FOR FREE USE OF TREES AND THE IMPORTANCE OF NOTARIAL FORMALIZATION

Annotation. The article analyzes the essence of the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan aimed at consistently implementing the nationwide “Green Space” project, particularly focusing on the role of the mechanism for granting free use of trees and shrubs in green areas in ensuring ecological sustainability. The legal foundations of this initiative, specifically the procedure for notarizing free-use contracts, are highlighted. Additionally, international experiences in assigning and maintaining trees by the population are examined, and the prospects of the project in Uzbekistan are evaluated. Special attention is given to the initiative's contribution to raising environmental awareness in society and improving urban ecology.

Key words. Green Space, ecology, environmental protection, ecological sustainability, Uzbekistan, free use, notarial formalization, public participation, urban planning.

Bugungi kunda global iqlim o'zgarishlari va atrof-muhitning ifloslanishi jahon hamjamiyati oldida turgan eng dolzarb muammolardan biridir. Ko'pgina mamlakatlar, shu jumladan O'zbekiston ham, bu muammolarga qarshi kurashish uchun kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan boshlangan “Yashil makon” umummilliy loyihasi aynan shunday strategik ahamiyatga ega tashabbuslardan biri bo'lib, uning doirasida yashil

¹ G'ofurova Dilafuz Murod qizi. Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi Umumkasbiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi (PhD), dilafuz.gofurova.92@mail.ru

² Muxtorov Kamronbek Muxsin o'g'li. Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi talabasi.

hududlarni kengaytirish, bioxilma-xillikni saqlash va aholining ekologik madaniyatini oshirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Ushbu loyihaning muhim jihatlaridan biri – daraxt va butalarni jismoniy va yuridik shaxslarga tekin foydalanishga berish mexanizmi hamda ushbu jarayonning notarial tartibda rasmiylashtirilishidir.

“Yashil makon” umummilliy loyihasining asosiy maqsadi – respublika hududida yashillik darajasini sezilarli darajada oshirish hamda ekologik barqarorlikni ta’minlashdan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-son Farmoni “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” ushbu loyihaning huquqiy asosini mustahkamladi [1. B.1-3]. Ushbu Farmon doirasida bir qator vazifalar belgilangan: Har yili kamida 200 million tup daraxt va buta ko‘chatlari ekish.

“Yashil bog‘lar”, “Yashil jamoat parklari” va “Yashil hududlar” barpo etish, ularning maydonini kengaytirish.

Aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, ularning atrof-muhitni muhofaza qilishga bo‘lgan mas’uliyatini oshirish.

Suv tanqisligi sharoitida daraxtlarni sug‘orishning samarali mexanizmlarini, jumladan, tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini keng joriy etish.

Ekologik nazoratni kuchaytirish va daraxtlarni noqonuniy kesishga qarshi kurashish.

Prezident Farmonida nazarda tutilgan asosiy mexanizmlardan biri – bu davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxt va butalarni jismoniy va yuridik shaxslarga tekin foydalanishga berishdir. Bu mexanizm aholi va tashkilotlarni yashil hududlarni yaratish va saqlash jarayoniga faol jalb qilishga qaratilgan bo‘lib, quyidagicha amalga oshiriladi:

Tekin foydalanish shartnomasining mazmuni. Jismoniy va yuridik shaxslar o‘ziga biriktirilgan daraxt va butalarni parvarish qilish, sug‘orish, zararkunandalardan himoya qilish va muhofaza qilish majburiyatini olgan holda, tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi yoki maxsus vakolatli organ (masalan, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishlari vazirligining hududiy bo‘linmalari) bilan shartnoma tuzadilar. Bu shartnomada daraxtlarning soni, turi, joylashgan joyi (kadastr raqami yoki aniq manzili ko‘rsatilgan holda) va parvarish qilish shartlari aniq ko‘rsatiladi. Shartnoma muddati, tomonlarning huquq va majburiyatlari, shartnoma shartlari buzilgandagi javobgarlik ham aks etadi.

Notarial tartibda rasmiylashtirishning ahamiyati. Shartnomaning huquqiy kuchini ta’minlash va tomonlarning majburiyatlarini aniq

belgilash maqsadida, ushbu shartnoma notarial tartibda rasmiylashtirilishi talab etiladi. Bu quyidagilarga xizmat qiladi:

Huquqiy kafolat. Notarial tasdiqlangan shartnoma yuridik jihatdan mustahkam bo'lib, tomonlarning majburiyatlarini bajarishini kafolatlaydi.

Shaffoflik: Shartnomaning mazmuni va shartlari barcha uchun ochiq va tushunarli bo'ladi.

Niqoblangan munosabatlarning oldini olish. Notarial rasmiylashtirish shartnomaning soxta yoki qonunga xilof bo'lishining oldini oladi.

Nizomlarni hal qilish. Kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni hal qilishda notarial tasdiqlangan shartnoma muhim daliliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Qonuniylik. "Notariat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va uning ijrosi yuzasidan qabul qilingan tegishli me'yoriy hujjatlar, jumladan, Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan notarial harakatlarni amalga oshirish tartiblari tekin foydalanish shartnomalarini 74uzi shva ularni notarial tasdiqlash tartibini aniqlashtiradi [2. B.1-10].

Daraxt va butalarni tekin foydalanishga berish mexanizmi ham ijtimoiy, ham ekologik jihatdan muhim samaralar beradi:

Aholining ekologik ongini oshirish. Fuqarolar va tashkilotlarning bevosita daraxt parvarishiga jalb qilinishi ularda atrof-muhitga nisbatan mas'uliyat hissini oshiradi. Bu, o'z navbatida, jamiyatda ekologik madaniyatning shakllanishiga xizmat qiladi.

Yashil hududlarning kengayishi. Shahar va qishloq joylarda yashil zonalarining ko'payishi havo ifloslanishini kamaytirish, mikroiklimni yaxshilash, shovqin darajasini pasaytirish, bioxilma-xillikni oshirish va aholining dam olishi uchun qulay sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy samaradorlik. Davlat byudjetidan daraxtlarni parvarish qilish uchun ajratiladigan mablag'lar tejaladi, bu mablag'lar boshqa ekologik loyihalarga yoki ijtimoiy ehtiyojlarga yo'naltirilishi mumkin.

Ijtimoiy birdamlik. Bir hudud aholisining umumiy maqsad yo'lida birlashishi jamoaviy ruhni kuchaytiradi.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 2021-yildan buyon O'zbekiston bo'ylab umumiy hisobda 210 million tupdan ortiq daraxt va buta ko'chatlari ekildi (Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishlari vazirligi ma'lumotlariga asosan). Xususan, 2023-yil kuzgi mavsumida 85 million tupdan ortiq ko'chat ekish rejalashtirilgan bo'lsa, 2024-yil bahor mavsumida ham keng ko'lamli ekish ishlari olib borildi. Prezident Farmonida har yili kamida 200 million tup ko'chat ekish maqsadi belgilangan. Tekin foydalanish shartnomalarining notarial rasmiylashtirilishi ushbu jarayonning muntazamligini va samaradorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi [3. B.1-10].

Daraxtlarni aholiga yoki tashkilotlarga biriktirish va parvarishlash bo'yicha ko'plab mamlakatlarda muvaffaqiyatli tajribalar mavjud: AQSH (Tree Adoption Programs): AQSHning ko'plab shaharlarida, masalan, Nyu-York, Sietl va Los-Anjelesda "Daraxt asrash" dasturlari amal qiladi. Bunda fuqarolar yoki kompaniyalar ma'lum bir daraxtni "asrab olishadi" va uning parvarishi, sug'orilishi va salomatligi uchun mas'ul bo'ladilar. Bu dasturlar ko'pincha shahar hokimiyatlari va nodavlat tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi va keng jamoatchilikni jalb qiladi. Masalan, "MillionTreesNYC" loyihasi doirasida 10 yil ichida 1 million daraxt ekish maqsad qilingan edi [4. B.1-4]. Buyuk Britaniya (Community Orchards and Urban Green Spaces): Buyuk Britaniyada jamoaviy bog'lar va shahar yashil hududlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi. Ko'p hollarda, mahalliy kengashlar yoki nodavlat tashkilotlar yer uchastkalarini aholi guruhlariga bepul yoki arzon ijaraga berib, u yerda daraxt ekish va parvarish qilish imkoniyatini yaratadi. Bunda ham jamoaviy shartnomalar tuzilishi mumkin[5. B.1-4].

Germaniya (*Bürgerbäume – Citizen Trees*). Germaniyada "Fuqarolar daraxtlari" kabi tashabbuslar mavjud bo'lib, fuqarolar o'z nomlaridan yoki oila a'zolari xotirasiga daraxt ekish uchun mablag' ajratishlari yoki ko'chatni bevosita parvarish qilishlari mumkin. Bunday dasturlar ko'pincha shahar muhitini yaxshilash va aholining o'z shahriga egalik hissini oshirishga xizmat qiladi[6. B.1-4].

Singapur (*City in a Garden Initiative*). Singapur, kichik shahar-davlat bo'lishiga qaramay, "Bog'dagi shahar" konsepsiyasi bilan tanilgan. Bu yerda davlatning faol siyosati va aholining ishtiroki bilan yashil maydonlar doimiy ravishda kengaytiriladi. Garchi bevosita "tekin foydalanish" shartnomalari bo'lmasa-da, bu tajriba shaharlarni yashillashtirishda davlat va jamiyat hamkorligining muhimligini ko'rsatadi [7. B. 1-10].

O'zbekistonda joriy etilgan daraxt va butalarni tekin foydalanishga berish mexanizmi yuqoridagi xalqaro tajribalarning ijobiy jihatlarini o'zida mujassam etgan holda, milliy sharoitlarga moslashtirilgan. Notarial rasmiylashtirish talabi esa jarayonga yanada qonuniy asos va mas'uliyat yuklaydi.

Xulosa qilib aytish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yashil makon" loyihasi doirasida daraxt va butalarni jismoniy va yuridik shaxslarga tekin foydalanishga berish mexanizmi mamlakatda ekologik barqarorlikni ta'minlash, yashillik darajasini oshirish va aholining ekologik madaniyatini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu mexanizmning notarial tartibda rasmiylashtirilishi jarayonga huquqiy kafolat, shaffoflik va barqarorlik bag'ishlab, uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydi. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, bunday jamoatchilik

ishtirokiga asoslangan loyihalar shaharlar ekologiyasini yaxshilash va aholining yashash sifatini oshirishda beqiyos rol o'ynaydi. O'zbekistondagi bu tashabbus nafaqat ekologik muammolarni hal qilishga, balki jamiyatda ijtimoiy mas'uliyat va ekologik ongni kuchaytirishga ham xizmat qilib, kelajak avlodlar uchun sog'lom va yashil muhit yaratishga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-son Farmoni. "Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, "Yashil makon" umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida". *Lex.uz*, <https://lex.uz/docs/6738986>, 2023-yil 23-noyabr, 1-3-betlar.

2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 6-avgustdagi O'RQ-554-son Qonuni. "Notariat to'g'risida"gi Qonun. *Lex.uz*, <https://lex.uz/docs/4458319>, 2019-yil 6-avgust, 1-10-betlar.

3. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishlari vazirligining rasmiy veb-saytidagi ma'lumotlar. "Yashil makon" loyihasi doirasidagi yangiliklar va statistika. *eco.gov.uz*, <https://eco.gov.uz/>, (2025-yil 23-may holatiga).

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-dekabrdagi 731-son qarori. "O'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni kesishga moratoriyni amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risida". *Lex.uz*, <https://lex.uz/docs/5751994>, 2021-yil 3-dekabr, 1-4-betlar.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI VA BOSHQA DAVLATLAR KONSTITUTSIYALARIDA SUD FAOLIYATINI TARTIBGA SOLUVCHI NORMALARNI TAQQOSLASH

Tursoatov S.X¹, Abdullayev S.K.²

Annotatsiya. Sudlarning mustaqilligi, qonun ustuvorligi va kodekslashtirilgan huquq tizimi O'zbekiston huquqiy tizimini roman-german tizimi bilan o'xshash qilib qo'yadi. Shunday qilib, O'zbekistonning huquqiy tizimi ko'plab jihatlar bilan roman-german huquq tizimi asosida tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi huquq tizimi, roman-german huquq tizimining tamoyillariga asoslangan. Sudlarning mustaqilligi, qonun ustuvorligi, kodekslashgan huquq va aniq normativ hujjatlar asosida sud faoliyatini tartibga solish – bularning barchasi O'zbekiston Respublikasining huquq tizimida, xususan, sud faoliyatida roman-german tizimining asosiy xususiyatlari sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonun hujjatlari sudlar faoliyatining muhim asoslarini belgilab beradi va bu tizimning

¹ Tursoatov Sodiqjon –Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi Umumkasbiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi

² Abdullayev Saloxiddin-Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi Mehnat sohasini boshqarish fakulteti yurisprudensiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi, "Adolat" talabalar ligasi tashkilotchisi.

huquqiy tuzilishini amalda ko'rsatadi. Anglo-sakson huquq tizimi, AQSh va Buyuk Britaniyada turlicha qo'llanilishi mumkin bo'lsa ham, ikkala tizimda ham sudlarning pretsedentlarga tayanishi, qonunlarni talqin qilish va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Sudlar qonunlarni qo'llash orqali huquqiy normalarni yaratadilar, bu esa tizimning o'ziga xosligini belgilaydi. AQShda yozilgan Konstitutsiya va Buyuk Britaniyada esa yozilmagan Konstitutsiya, har bir tizimning huquqiy asosini tashkil etadi.

Kalit so'zlar: Romano-german va anglo-sakson, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ekspert, ekspert xulosasi, ekspertiza, dalil, isbot qilish.

THE LEGAL SYSTEMS OF THE CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THE CONSTITUTIONS OF OTHER COUNTRIES BEETWEN OTHER JUSTS

Annotatsiya. The independence of the courts, the rule of law and the codified legal system make the legal system of Uzbekistan similar to the Roman-German one. Thus, the legal system of Uzbekistan in many aspects is formed on the basis of the Romano-German legal system. The legal system of the Republic of Uzbekistan is based on the principles of the Roman-German legal system. Independence of the courts, supremacy of law, codified law and legal regulation of the judiciary – all these are the main features of the Roman-German system in the legal system, especially in the judiciary. The Constitution and other acts of the Republic of Uzbekistan define the important framework of the activity of the courts and show the legal structure of this system in practice. The Anglo-Saxon legal system, although it may be applied differently in the US and UK, in both systems the courts' reliance on precedents plays an important role in the interpretation and development of laws. Courts create legal norms by applying laws, which determines the uniqueness of the system. The Constitution written in the United States, and the Constitution unwritten in the United Kingdom, constitute the legal basis of each system.

Key words; Romano-German and Anglo-Saxon, Constitution of the Republic of Uzbekistan, expert, expert opinion, examination, evidence, proof.

Roman-german huquq tizimi, ayniqsa, Germaniyada, yuridik prinsiplarni aniq va tizimli ravishda belgilovchi qonunlar, kodekslar va boshqa normativ hujjatlarga tayanadi. Ushbu tizimda sudlar qonunlarni bevosita tatbiq etadi va yaratish uchun emas, balki faqat mavjud qonunlarni izohlash va amalga oshirish uchun ishlatiladi. Bu tizimda huquqshunoslik asosan kodekslar va qonunlarga asoslanadi.

Germaniya Konstitutsiyasi (Grundgesetz) va Sud faoliyati: Germaniya Konstitutsiyasida sudlarning mustaqilligi va ular tomonidan amalga oshiriladigan huquqni qo'llash jarayoni aniq belgilangan. 54-moddada sudlarning mustaqilligi ta'kidlanadi. 97-moddada sudlarning yagona tashkilotga asoslanganligi va davlatning barcha darajalari bo'yicha faoliyat yuritishi ta'minlangan. Germaniya sudlari faqat qonunlarni tatbiq etish bilan shug'ullanadi. 99-moddada Konstitutsion sudni tashkil etish va uning vakolatlari belgilangan, bu sudlar o'zgaruvchan konstitutsiyaviy va huquqiy normalarni aniqlashda asosiy rol o'ynaydi. Sud faoliyatining umumiy tartibi: Roman-germaniya tizimida sudlar faqat qonunlarga asoslanib ishlaydi. Yuridik

tashkilotlarning faoliyatini kodifikatsiya qilish, sudlar qonunlarni aniq va tushunarli tarzda tatbiq etishiga imkon beradi.

Kodekslashtirilgan huquq (Codified Law): Roman-german huquq tizimining eng asosiy xususiyati – barcha huquqiy normalar aniq yozilgan qonunlarda va kodekslarda mujassamlanadi. Shu jumladan, fuqarolik, jinoyat, ma'muriy va boshqa huquqiy sohalarda alohida kodekslar mavjud. Huquqshunoslar va sudlar ushbu kodekslar asosida ish ko'rishadi, va har bir holatda qonunning aniq tahlili talab qilinadi. Sudlar faqat qonunni tatbiq etadi (**Judicial Application of Law**): Roman-german tizimida sudlar hukm chiqarishda faqat mavjud qonunlarga va kodekslarga tayanadilar. Sudlarning asosiy vazifasi – qonunlarni talqin qilish va ularni qo'llashdan iboratdir. Sudlar pretsedentlarga (avvalgi qarorlarga) asoslanmaydi.

Huquqiy kodifikatsiya: Ushbu tizimda huquqiy normalar biror muayyan kodeksga joylashtiriladi va barcha huquqiy sohalar bo'yicha yagona tizimni yaratish uchun qoidalar yoziladi. Masalan, Germaniya Fuqarolik Kodeksi (*Bürgerliches Gesetzbuch*, BGB) yoki Fransiya Fuqarolik Kodeksi (*Code Civil*).

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Roman-German Huquq Tizimi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan va 2023- yil 30-aprelda qayta tahrirlangan va unda davlatning huquqiy tizimi va sudlarning faoliyati haqida aniq qoidalar belgilangan. Ushbu Konstitutsiya roman-german huquq tizimiga o'xshash prinsiplarga tayanadi. Sudlarning Mustaqilligi (Konstitutsiya 130-moddasi): O'zbekiston Respublikasining 130-moddasida sudlarning mustaqilligi ta'kidlanadi. Bu tamoyil, ayniqsa, roman-german tizimiga xos bo'lib, sudlarning faqat qonun asosida ishlashini, ular siyosiy yoki boshqa tashqi bosimlardan holi bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Sudlar faqat qonun va adolatga tayanib ish ko'radilar.

Qonun ustuvorligi (Konstitutsiya 15-moddasi): 15-moddada, O'zbekiston Respublikasining barcha fuqaro va tashkilotlari qonunlarga bo'ysunishi kerakligi, ya'ni qonun ustuvorligi tamoyili belgilangan. Roman-german huquq tizimida ham qonun ustuvorligi asosiy prinsipdir. Bunday tizimda, har bir shaxs va organ faqat qonunlar asosida harakat qiladi.

Sud hokimiyatining alohida bo'linishi (Konstitutsiya 130, 131-moddalari): O'zbekistonda sud hokimiyati, ijroiya va qonun chiqaruvchi hokimiyatdan alohida mustaqil organ sifatida belgilanadi. Bu, roman-germaniya tizimida sud hokimiyatining davlatning boshqa hokimiyat tarmoqlaridan, alohida bo'lishi tamoyiliga mos keladi. **Jinoyat va Fuqarolik Kodekslari:** O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimida ham Fuqarolik Kodeksi va Jinoyat Kodeksi kabi asosiy kodekslar mavjud. Ushbu kodekslar orqali fuqarolar va yuridik shaxslar o'rtasidagi munosabatlar tartibga solinadi, jinoyat va ma'muriy huquqiy masalalar belgilangan. Bular ham roman-germaniya tizimida bo'lgani kabi aniq yozilgan huquqiy normalarga asoslanadi. **Sudlarning Vazifalari va Vakolatlari:** O'zbekistonda sudlar qonunlarni tatbiq etish bilan shug'ullanadi. 133-moddada sudlarning vakolatlari ko'rsatilgan, jumladan, fuqarolik, jinoyat, ma'muriy va boshqa huquqiy masalalar bo'yicha hukm chiqarish. Sudlarning asosiy vazifasi qonunlarni talqin qilish va ularni hayotga tatbiq etishdir, bu ham roman-german tizimining muhim jihatlaridan biridir.

Konstitutsiya va Sudlar: O'zbekistonda Konstitutsiya yuqori huquqiy norma bo'lib, barcha qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlar unga mos bo'lishi kerak. Konstitutsiya 16-moddasida huquqiy normalarning ustuvorligi, ya'ni Konstitutsiya barcha boshqa

qonunlar uchun asos bo'lishi kerakligi belgilangan. Bu prinsip roman-germaniya tizimida ham mavjud, chunki qonunlar va boshqa huquqiy aktlar yuqori huquqiy norma (kodekslar) asosida yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi va Roman-German Huquq Tizimi O'rtasidagi Asosiy Farqlar va O'xshashliklar

O'xshashliklar: Qonun ustuvorligi va kodekslash: O'zbekistonda ham qonunlarning ustuvorligi ta'minlangan va barcha huquqiy tartiblar qonunlar asosida tizimlashtirilgan.

Sudlarning mustaqilligi: O'zbekistonda sudlar mustaqildir va ularning faoliyati faqat qonunlarga asoslanadi.

Huquqiy normalar aniq yozilgan va kodifikatsiya qilingan: O'zbekiston ham fuqarolik va jinoyat kodekslariga asoslanadi, bu esa roman-germaniya tizimi bilan o'xshashlikni bildiradi.

Farqlar:

Konstitutsiya va Pretsedentlar: O'zbekistonda Konstitutsiya va qonunlarga tayaniladi, ammo anglo-sakson tizimida pretsedentlar (avvalgi qarorlar) ham huquqiy manba sifatida katta rol o'ynaydi. Bu o'ziga xos farqdir.

Sudlarning qarorlari: Roman-german tizimida sudlar faqat qonunlarga asoslanadi, anglo-sakson tizimida esa sudlar o'z qarorlaridan yangi huquqiy normalar yaratish imkoniyatiga ega.

Anglo-Sakson Huquq Tizimi (Common Law)

Anglo-sakson huquq tizimida sudlar faqat qonunlarni tatbiq etish bilan cheklanmaydi, balki yuridik qarorlar chiqarishda yuridik precedentlarni (avvalgi sud qarorlari) qo'llashadi. Bu tizimda sudlar faqat hukm chiqarish uchun emas, balki yuridik prinsiplarni yaratish uchun ham mas'uldirlar.

Buyuk Britaniya Konstitutsiyasi va Sud faoliyati: Buyuk Britaniyada konstitutsiya rasmiy ravishda biron-bir yagona hujjatda keltirilmagan, balki an'analar, qonunlar, sud qarorlari va boshqa huquqiy manbalardan iborat. Shuning uchun sudlar o'z faoliyatida ko'proq "pretsedent" (avvalgi qarorlar) asosida harakat qiladi. Sud mustaqilligi Buyuk Britaniyada Judicial Independence tamoyili bilan ta'minlanadi, bu tamoyil sudlarning siyosiy aralashuvlardan holi bo'lishini anglatadi.

Sudlarning vakolatlari quyidagi asosiy jihatlarga asoslanadi:

I. *Pretsedentlarga tayanish.*

II. *Sudlar tomonidan chiqarilgan qarorlar va hukmlar yangi huquqiy normalarni shakllantirishi mumkin.*

III. *Huquqiy xususiyatlarga qarab, sudlar individual holatlarda qarorlar chiqarish uchun katta erkinlikka ega.*

Sud faoliyatining umumiy tartibi: Anglo-sakson tizimida, sudlar huquqiy normalarni yaratishda katta rol o'ynaydi va joriy qonunlar asosida yuridik qarorlar chiqariladi. Sudning yuridik qarorlaridan kelib chiqadigan yangi huquqiy normalar keyingi ishlar uchun qo'llaniladi.

Anglo-sakson huquq tizimi, shuningdek, umumiy huquq (Common Law) tizimi deb ham ataladi, asosan Angliya va AQShda mavjud bo'lgan huquq tizimi bo'lib, u pretsedentlarga, sudlarning oldingi qarorlariga va sud amaliyotiga tayanadi. Anglo-sakson tizimida qonunlar yozilgan kodekslar yoki kodekslar to'plamiga emas, balki sud amaliyoti va huquqiy qarorlarga asoslanadi. Bu tizimda sudlar o'z qarorlarini chiqarishda faqat qonunlarni emas, balki ilgari chiqarilgan qarorlar va

pretsedentlardan (oldingi sud qarorlari) ham foydalanadilar. Anglo-sakson tizimi AQSh va Buyuk Britaniya huquq tizimlarida o'z aksini topgan bo'lib, ikkala davlatda ham sudlar va qonun chiqaruvchi organlar o'rtasida alohida muvozanat mavjud. Anglo-sakson huquq tizimi pretsedentlarga asoslanadi, bu degani, oldingi sud qarorlari keyingi ishlar uchun yo'l-yo'riq sifatida xizmat qiladi. Agar biror ishda sud ilgari chiqarilgan qarorni (pretsedentni) qo'llasa, bu qaror boshqa sudlarga majburiy hisoblanadi, agar boshqa holatlar o'xshash bo'lsa. Pretsedentning yuridik kuchi, yoki stare decisis tamoyili, umumiy huquq tizimida muhim rol o'ynaydi. Anglo-sakson huquq tizimida sudlar qonunlarni talqin qilish va ular asosida qaror chiqarish orqali huquqiy normani yaratadilar. Sudlar, pretsedentlarga asoslanib, yangi qonunlar yaratish va mavjud huquqiy normalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydilar. Bu tizimda sudlar faqat qonunlarni tatbiq etish bilan cheklanmaydi, balki o'z qarorlarini chiqarish orqali huquqiy tartibni shakllantiradilar. Anglo-sakson tizimida qonunlar chiqarish va ularni amalda tatbiq etish jarayoni alohida muhimdir. Qonun chiqaruvchi organlar (parlamentlar) huquqiy me'yorlarni ishlab chiqadilar, ammo sudlar ularni talqin qilishadi va amalda qo'llashadi. Shu sababli, AQSh va Buyuk Britaniyada sudlar huquqni rivojlantirishda faol ishtirok etadilar, bu esa tizimni o'ziga xos qilib ko'rsatadi.

AQShda umumiy huquq tizimi ingliz huquqidan olingan, lekin AQShning o'zining maxsus yuridik tizimi ham mavjud. AQSh Konstitutsiyasi bu tizimning ishlashiga asos bo'ladi, lekin shuningdek, davlatlarning o'zlari tomonidan ishlab chiqilgan qonunlar ham muhim ahamiyatga ega. AQShning Konstitutsiyasi 1787-yilda qabul qilingan va u davlatning asosiy qonuni sifatida barcha huquqiy faoliyatni tartibga soladi. AQSh Konstitutsiyasi quyidagi asosiy tamoyillarni o'z ichiga oladi:

1. *Qonun ustuvorligi: AQShda barcha davlat organlari, shu jumladan, sudlar ham, Konstitutsiyaga bo'ysunishi kerak. Sudlar, agar qonunlar Konstitutsiyaga zid bo'lsa, ularni bekor qilish huquqiga ega (yuridik nazorat).*

2. *Juda keng huquqiy tarmoqlar: AQShda federal va shtat huquqlari mavjud. Federal hukumatning qonunlari federal sudlar tomonidan tatbiq etiladi, shtat qonunlari esa shtat sudlari tomonidan qo'llanadi.*

3. *Pretsedentlarning yuridik kuchi: AQSh sudlari pretsedentlarga amal qilishadi, shuning uchun oldingi sud qarorlari keyingi qarorlar uchun muhim manba bo'ladi.*

AQShda sudlar faqat qonunlarni emas, balki ilgari chiqarilgan qarorlarni ham tatbiq etadi. AQSh sudlari umumiy huquqni rivojlantirish va talqin qilishda juda muhim rol o'ynaydi. Federal va shtat sudlari o'z yurisdiksiyasida qonunlarni tatbiq etib, yuridik tartibni shakllantiradilar. AQShda sudlarning huquqi quyidagilardan iborat: Pretsedentlarni qo'llash: Sudlar oldingi qarorlarga asoslanib ish yuritadilar va ular yuridik manba sifatida qabul qilinadi. Yuridik nazorat: Federal sudlar AQSh Konstitutsiyasiga zid bo'lgan qonunlarni bekor qilish huquqiga ega. Bunday nazorat Marbury v. Madison (1803) qaroriga asoslanadi.

Buyuk Britaniya, o'zining tarixiy yuridik tizimida, anglo-sakson huquq tizimining asoschisi bo'lib, unda qonunlar, asosan, parlament orqali qabul qilinadi, ammo sudlar ham hukm chiqarishda faol ishtirok etadilar. Buyuk Britaniyada yozilmagan Konstitutsiya mavjud, ya'ni u qonunlar, an'analar, sud qarorlari va parlament qarorlaridan tashkil topgan. Ushbu tizimda quyidagi tamoyillar mavjud:

1. *Parlament ustuvorligi: Buyuk Britaniyada parlament qonunlar chiqarish huquqiga ega va ular yuqori qonun hisoblanadi.*

2. Precedentlar tizimi: Sudlar qarorlari, agar o'xshash holatlar bo'lsa, boshqa sudlar uchun majburiy hisoblanadi. Bu holat ingliz huquqining asosiy xususiyatidir.

3. Juda keng sud huquqi: Sudlar, bir tomondan, qonunlarni tatbiq etadi, ikkinchi tomondan esa, precedentlarga asoslanib, yangi yuridik normani shakllantiradilar.

Buyuk Britaniya sudlari ham precedentlarga amal qiladilar. Sudlar avvalgi qarorlarni ko'rib chiqib, ular asosida yangi qarorlar chiqaradilar. Buyuk Britaniyada eng yuqori sud, ya'ni House of Lords (hozirda Supreme Court) barcha ingliz sudlari uchun precedent yaratadi.

O'xshashliklar: Ikkala tizimda ham sudlar precedentlarga tayanadi. Sudlarning yuridik nazorat qilish huquqi mavjud, ya'ni sudlar Konstitutsiyaga zid bo'lgan qonunlarni bekor qilishlari mumkin.

Abstract. This article discusses the negative impact of industrial waste on the environment and issues of ensuring environmental safety. The current regulatory framework of the Republic of Uzbekistan on the legal regulation of industrial waste is analyzed. Existing problems in the legislation are identified and proposals are made to eliminate them. Also, advanced approaches based on foreign experience are studied.

Key words: industrial waste, environmental safety, legal regulation, environmental protection, environmental legislation, foreign experience.

So'nggi yillarda sanoatning jadallik bilan rivojlanishi insoniyat taraqqiyoti uchun muhim omil bo'lib xizmat qilayotgan bo'lsa-da, buning natijasida atrof-muhitga yetkazilayotgan ekologik zararlar ham ortib

¹ Aliqulov Asrorbek Erali o'g'li, "TIQXMMI" MTU Ekologiya va huquq fakulteti Yurisprudensiya yo'nalishi 3-kurs talabasi

² Dadaboeva Dilfuza Nurmatovna, "TIQXMMI" MTU huquqiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

bormoqda. Ayniqsa, sanoat chiqindilari bugungi ekologik muhitning eng xavfli ifloslantiruvchilari qatoriga kiradi. Bunday chiqindilar havo, suv va tuproq resurslariga salbiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, inson salomatligi, hayvonot va o'simlik dunyosining barqarorligiga ham jiddiy xavf tug'diradi. Shu sababli sanoat chiqindilarini boshqarish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalasi nafaqat ekologik yoki iqtisodiy, balki yuridik nuqtai nazardan ham muhim muammoga aylangan.

Global miqyosda ekologik xavfsizlikni ta'minlash xalqaro huquqning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, shuningdek, ko'plab rivojlangan davlatlar sanoat chiqindilarini tartibga solish, ularni qayta ishlash yoki utilitatsiya qilish bo'yicha aniq huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqqan. Shu bilan birga, bu jarayonda ijtimoiy nazorat, davlat organlari faoliyati va ekologik qonunchilikning izchil ishlashi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi ham ekologik muammolarni bartaraf etish va barqaror rivojlanishni ta'minlash yo'lida muhim qonunchilik islohotlarini amalga oshirmoqda. Xususan, "Atrof muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun, "Chiqindilar to'g'risida"gi qonun va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar bu sohada muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq amaldagi qonunlarning to'liq va samarali ijrosi, ularning zamonaviy ekologik xavf-xatarlarga mosligi hamda sanoat korxonalarining ekologik javobgarligi mexanizmlari hali-hanuz to'laqonli darajada shakllanmagan.

Mazkur maqolada sanoat chiqindilarining ekologik xavfsizlikka ta'siri, ularni yuridik jihatdan tartibga solishning milliy va xalqaro tajribalari, shuningdek, O'zbekiston qonunchiligida uchrayotgan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar chuqur tahlil qilinadi. Ishning dolzarbligi shundaki, ekologik xavfsizlik — bu faqatgina tabiat muhofazasi emas, balki jamiyat salomatligi, iqtisodiy barqarorlik va inson huquqlarining kafolati sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ba'zi rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoat chiqindilarini tartibga solishda "ifloslantiruvchi to'laydi" prinsipining yuridik asosga ega bo'lishi muhim omildir. Masalan, Germaniyada sanoat korxonalarini chiqindi hosil qilgani uchun maxsus ekologik soliq to'laydi, shuningdek, chiqindini qayta ishlash yoki zararsizlantirish xarajatlarini o'z zimmasiga oladi [5]. Bu tizim nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi, balki chiqindi miqdorini kamaytirishga iqtisodiy rag'bat ham yaratadi.

O'zbekiston huquqshunoslari, xususan, X. S. Mamatqulov ta'kidlashicha, "chiquvchi chiqindilar hajmini aniqlash, ularning tarkibini tahlil qilish va xavf darajasini belgilash bo'yicha huquqiy mexanizmlar mavjud emasligi sanoat chiqindilarini nazorat qilishni murakkablashtirmoqda" [6]. Bu esa ekologik monitoring tizimining

samarali ishlamasligiga va mavjud qonunlar ijrosining nazoratsiz qolishiga olib kelmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekistonda sanoat chiqindilari bilan bog'liq huquqiy bazaning mavjudligi ijobiy holat bo'lsa-da, bu sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar amaliyotda ko'plab kamchiliklarga ega. Jumladan, qonunchilikda sanoat chiqindilarini turlari bo'yicha toifalash, ularni boshqarishning yuridik standartlarini ishlab chiqish, ekologik monitoring tizimini joriy etish va chiqindilar uchun iqtisodiy javobgarlik tizimini takomillashtirish zaruriyati mavjud.

Sanoat chiqindilari ekologik xavfsizlikka tahdid soluvchi eng jiddiy manbalardan biri sifatida nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham o'z ta'sir doirasiga ega. Bugungi kunda sanoatning texnologik rivojlanishi fonida chiqindilar hajmi oshib borayotgan bir paytda, ularni yuridik jihatdan tartibga solish, nazorat qilish va boshqarish muammolari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi ushbu muammoga befarq bo'lmay, chiqindilar bilan bog'liq huquqiy asoslarni yaratgan bo'lsa-da, amaliyotda ko'plab kamchiliklar va ziddiyatlar mavjudligi kuzatilmoqda.

Maqola davomida olib borilgan tahlillarga ko'ra, amaldagi "Chiqindilar to'g'risida" va "Atrof muhitni muhofaza qilish to'g'risida" qonunlar umumiy huquqiy me'yorlarga ega bo'lib, sanoat chiqindilarining tarkibi, xavf darajasi va ularni zararsizlantirish usullarini huquqiy jihatdan chuqur tartibga solmaydi. Ayni vaqtda bu qonunlar ko'proq deklarativ xarakterga ega bo'lib, ekologik xavfsizlikni proaktiv yondashuv asosida ta'minlashga yetarli zamin yaratmayapti. Bu fikrni olimlar ham ta'kidlab, mavjud huquqiy bazaning zamonaviy sanoat sharoitlariga mos kelmasligini qayd etishmoqda [1][6].

Bundan tashqari, ekologik qonunbuzarliklar uchun javobgarlik choralari asosan zarar yuzaga kelganidan so'ng qo'llanilmoqda. Bunday yondashuv esa huquqiy tizimning zararni oldini olish funksiyasini yetarli darajada bajara olmayotganini ko'rsatadi. Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda aynan nazorat va monitoring tizimining qonuniy asoslarini mustahkamlash, sanoat chiqindilari bo'yicha statistikasi yuritish, ularni xavf toifasiga qarab tasniflash huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ekologik huquqni samarali amalga oshirish uchun faqatgina qonun qabul qilish emas, balki ularning ijrosini ta'minlovchi mexanizmlarni kuchaytirish lozim. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda "ifloslantiruvchi to'laydi" tamoyili asosida sanoat korxonalariga ekologik soliq solish, chiqindilarni zararsizlantirish uchun ularning moliyaviy javobgarligini belgilash orqali chiqindilar hajmi va

salbiy ta'sirini sezilarli darajada kamaytirishga erishilgan. O'zbekiston qonunchiligida ham ushbu yondashuvlarni tatbiq etish ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'lida muhim qadam bo'ladi.

Shuningdek, chiqindilarni boshqarish bo'yicha xavfsizlik standartlari, texnik reglamentlar, sanoat korxonalarining ekologik sertifikatlash tizimi, muqobil yechimlar – yashil texnologiyalarni huquqiy rag'batlantirish bo'yicha alohida qonunchilik asoslari ishlab chiqilishi lozim. Ekologik huquqning samaradorligi nafaqat mavjud huquqiy normalarning sifati, balki ularning qo'llanilish amaliyoti, davlat organlari o'rtasidagi vakolatlarning aniq taqsimoti, sud-huquq tizimining ekologik tortishuvlarga yondashuvi bilan chambarchas bog'liq.

Yakunda aytish mumkinki, sanoat chiqindilari masalasi ekologik xavfsizlik nuqtai nazaridan O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega. Bu borada zamonaviy huquqiy yondashuvlar asosida kompleks islohotlar olib borilishi, xalqaro tajribaning tatbiq etilishi, mavjud qonunchilikni takomillashtirish, ekologik ma'rifat va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish eng muhim yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Bu esa nafaqat ekologik barqarorlik, balki inson huquqlari, sog'ligi va kelajak avlodlar uchun sog'lom yashash muhitini ta'minlashning huquqiy kafolatiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov A. Chiqindilar bilan ishlashning huquqiy asoslari va ularni takomillashtirish yo'llari. – Toshkent: TDYU ilmiy jurnali, 2023. – B. 45–50.
2. Karimova Z. Atrof-muhitni muhofaza qilish qonunchiligining amaliyotdagi muammolari. // Yuridik fanlar axborotnomasi. – 2022. – №4. – B. 112–116.
3. Tursunov R. Ekologik huquqda proaktiv yondashuv: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Ekohayot nashriyoti, 2021. – B. 27–35.
4. United Nations Environment Programme (UNEP). Basel Convention on the Control of Transboundary Movements of Hazardous Wastes and Their Disposal. – 2018. <https://www.basel.int>
5. Schroeder H. Environmental Policy in Germany: From Legislation to Implementation. – Berlin: Springer, 2020. – P. 88–95.
6. Mamatqulov X. S. O'zbekiston Respublikasida ekologik xavfsizlikni huquqiy ta'minlash masalalari. – Toshkent: Adolat, 2021. – B. 53–60.

EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARGA YECHIM TOPISH ORQALI AHOLINING XAVFSIZLIGINI HAMDA IJTIMOIIY MUHOFAZASINI TA'MINLASH

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungin kundagi ekologik muammolar hamda bu muammolarga yechim topish orqali aholi vakillarining ekologik xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, ularni ijtimoiy muhofaza qilish masalasi yoritiladi.

Kalit so'zlar: ekologik muammolar, atmosfera havoshining ifloslanishi, suv resurslarining kamayishi, iqlim o'zgarishi natijasida global isish, ekologik monitoring, ekologik nazorat, yashil makon

ENSURING THE SAFETY AND SOCIAL PROTECTION OF THE POPULATION THROUGH ENVIRONMENTAL PROBLEMS AND FINDING SOLUTIONS TO THEM

Abstract. This article discusses the current environmental problems and the issue of ensuring the environmental safety of the population through finding solutions to these problems, as well as their social protection.

Keywords: ecological problems, atmospheric air pollution, depletion of water resources, global warming as a result of climate change, ecological monitoring, ecological control, green space.

Bugungi kunda butun dunyo bo'ylab ekologik muammolar jiddiy xavfga aylangan. Iqlim o'zgarishlari, havo va suvning ifloslanishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, chiqindilarning ko'payishi kabi muammolar insoniyat salomatligiga va hayot sifatiga tahdid solmoqda. Shu bois, ekologik xavfsizlikni ta'minlash har bir mamlakatning ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda. Aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash faqatgina muammolarni bartaraf etish bilan emas, balki ularning ildiziga qarshi kurashish va barqaror yechimlarni tatbiq etish orqali amalga oshiriladi. Ekologik muammolar yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi omillar sifatida quyidagilarni sanab o'tishimiz mumkin. Bular: aholi sonining o'sishi, fan va texnika taraqqiyoti, inson ehtiyojlarining ortishi kabilar. Yuqoridagi sabablarni hisobga olgan holda, nechog'liq aytimiz mumkinki, bugungi kunda sof tabiat haqida gap yuritish mushkul. Yer yuzidagi o'rmonlar ko'payish o'rniga tobora qisqarib bormoqda, katta-katta tabiiy hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o'zlashtirilmoqda-yu, ammo buning natijasid, tabiat va havo har xil chiqindi hamda gazlar hisobiga ifloslanib bormoqda. . Bundan tashqari, tabiatda toshqinlar,

¹ Turonova Sarvinoz Baxtiyor qizi, "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti, Yurisprudensiya (yer munosabatlari) yo'nalishi 2-kurs talabasi

² Pardayeva Zarina Ilhom qizi, "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti, Yurisprudensiya (yer munosabatlari) yo'nalishi 2-kurs talabasi

³ Abdujabborova Sarvinoz G'ulomjon qizi, "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti, Yurisprudensiya (yer munosabatlari) yo'nalishi 2-kurs talabasi

o'rmon yong'inlari, chang bo'ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar yuz bermoqda. Shu bois, davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida jahon hamjamiyati e'tiborini yana bir bor davrimizning o'tkir muammolaridan biri — Orolbo'yi hududidagi ekologik holatga qaratib, jumladan, bunday dedi: “Bugungi kunda har bir mamlakat bu jarayonning salbiy ta'sirini his etmoqda. Ming afsuski, bunday o'zgarishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga ham katta xavf tug'dirmoqda”.¹

Kirish qismining o'zidayoq bir necha ekologik muammolarni sanab o'tdik, lekin endi bu muammolarga to'liqroq to'xtalgan holda bu muammolarga nisbatan o'z shaxsiy fikrimizga asoslangan holda yechim ham beramiz. Demak, ekologik muammolar sifati quyidagilarni sanab o'tishim mumkin, bular: atmosfera havosining tashqi omillar natijasida ifloslanishi, suv resurslarining kamayishi va ifloslanishi, sanoat va maishiy chiqindilar bilan bog'liq muammolar, o'rmonlarning kesilishi natijasida bioxilma-xillikning kamayishi, iqlim o'zgarishi, xususan global isish, o'simlik va hayvonot dunyosining qirilib ketishi, noyob turdagilarining esa batamom yo'q bo'lib ketishi kabilar. Ushbu muammolar qay tartibida vujudga kelishi va uning natijasida yana qanday salbiy oqibatlar yuzaga kelishiga birma-bir to'xtalib o'tamiz. Xo'sh, atmosfera havosining ifloslanishiga sababchi omillar nimalardan iborat? Dastavval, aytishimiz mumkin bo'lgan asosiy sabablardan biri shuki, bu o'z—o'zidan sanoat hamda maishiy chiqindilar bilan bog'liq bo'lgan masala. To'g'ri, bugungi kunda iqtisodiyotimiz rivojlanishi uchun bir muncha korxonalar, muassasa, xususan, juda ko'p turdagi ishlab chiqarish zonalarini o'z faoliyatini olib bormoqda, ammo, biz iqtisodiyotni rivojlantiramiz deb, ekologiyaga zarar bermasligimiz, uni asrab-avaylashimiz kerak ekanligini ham unutib qo'ymasligimiz lozimligini, ma'lum bir muddat yodimizdan chiqarib qo'ymoqdamiz. Ishlab chiqarish zonalaridan chiqayotgan har xil iflos gazlar natijasida aholi vakillari zaharlanishmoqda, xususan, yurak-qon tomirlari, nafas yo'llari kasalliklari yuzaga kelmoqda. Endi suv resurslarining kamayishi va ifloslanishi muammosi haqida so'z yuritsak, bugungi kunda suv havzalari, xususan daryo, kanal shuningdek suv omborlariga zararli moddalar yoki chiqindilarning tashlanishi natijasida uning tabiiy tarkibi va sifatining o'zgarishiga olib kelishi ham ekologik muammolardan biri hisoblanmoqda. Shu boisdan aytishimiz mumkinki, bu holatlar orqali inson salomatligiga, qolaversa, atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazilmoqda. O'rmonlarning kesilishi natijasida bioxilma-xillikning kamayib ketishi masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, haqiqatdan ham bugungi kunda hattoki o'rmonlar ham kesib tashlanib, tadbirkorlik zonalariga aylantirish uchun

¹ <https://yuz.uz/uz/news/ilmiy--izlanishlar--global-ekologik-muammolar-echimi->

joylar tayyorlanmoqda, o'rmonlardagi yashillikning borgan sari kamayib borishi, bu hayvonlarning yashash joyidan mahrum bo'lishiga va o'simliklarning kamayib ketishiga olib kelmoqda, bu esa o'z-o'zidan kislorod manbaining yo'qolishiga va ozuqa zanjirining buzilishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda iqlim o'zgarishi ya'ni global isish nafaqat bizning mamlakatimizda balki, butun dunyo miqyosida eng katta ekologik xavfi yuqori bo'lgan muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Xususan, insoniyatning kundan-kunga ortib borayotgan ehtiyoji va texnika omili ta'sirida dunyo miqyosida, shu jumladan, bizning mamlakatimizda ham iqlim o'zgarishi hodisasi ya'ni, kunlarning haddan ziyod isib ketishiga olib kelmoqda. Yuqorida sanab o'tgan ekologik muammolarimizni hisobga olgan holda, ushbu muammolarga biz ham befarq emasligimizni bildirish va unga qarshi kurashish borasida biz ham mas'ul ekanligimizni hisobga olgan holda, o'zimizning shu atrof-muhitda yashayotgan, shu havodan nafas olayotgan bir inson sifatida yechim tariqasidagi fikrlarimizni aytib o'tamiz. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash, qolaversa, ushbu ekologik muammolarga yechim sifatida shuni aytishimiz mumkin, masalan, ekologik qonunlarni ijrosini to'laqonli ta'minlash zarur. Bundan tashqari qonunchiligimizda ekologik huquqbuzarlik va jinoyatlar bilan bog'liq jazo choralarini kuchaytirish kerak. Ushbu qonunlarning ijrosini to'laqonli ta'minlash borasida davlat organlari tomonidan atrof-muhit holatini kuzatish tizimlarini rivojlantirish orqali ekologik monitoring va nazoratni kuchaytirish lozim. Mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalalari boshqa huquqiy manbalarda ham o'z aksini topgan. Bu borada qabul qilingan ikki muhim hujjat -"Atrof-muhitni muhofaza qilish" va "Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyalari" mamlakatimizning nafaqat xalqaro maydondagi faolligi balki, ichki islohotlar jarayonida ham tizimli ishlar olib borilayotganligini ko'rsatuvchi jihatdir. Keltirilgan yo'nalishlar atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi ta'sirchan chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish qisqa muddatlar ichida ekologik tanglikni bartaraf etish, mamlakatimiz aholisi uchun ekologik xavf-xatarlardan xoli mintaqada yashash uchun zarur shart-sharoitlarni taqdim etadi hamda ekologik jihatdan barqaror muhit yaratish imkonini beradi. Shuningdek, aholini ekologiya sohasidagi huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida maktab, oliy ta'lim muassasalari hamda mahallalarda targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish orqali bilim-ko'nikmalar shakllantirilishi lozim. Buning natijasida aholi vakillarida ekologiya va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish tuyg'usi uyg'otiladi. Yana bir muammoga yechim sifatida aytishimiz mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda keng miqyosdagi islohotlar sifatida o'tkazilayotgan "Avtomobilsiz kun" hamda "Yashil makon" loyihalari keng miqyosda

amalga oshirilmoqda, bundan asosiy ko'zlangan maqsad esa yashillikni ta'minlash, aholining salomatligini saqlash, toza-atrof muhitga ega bo'lishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi farmoni bilan qabul qilingan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da 80-maqsad sifatida Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish, shuningdek (81-maqsad).¹ O'rmonlar maydonini kengaytirish vazifasi belgilandi. Xulosa, o'rnida aytishimiz mumkinki, ekologik xavfsizlikni ta'minlash – bu keng ko'lamlil va tizimli yondashuvni talab qiluvchi jarayondir. Bu borada nafaqat davlat siyosati, balki jamiyat faolligi va har bir fuqaroning ekologik mas'uliyati muhim o'rin tutadi. Ekologik muammolarni bartaraf etish orqali nafaqat bugungi avlod, balki kelajak avlodlar hayoti uchun ham xavfsiz va sog'lom muhit yaratish mumkin ekanligi eng muhim masala hisoblanadi, desak ham sira mubolag'a bo'lmaydi. Shuni unutmang, bu Vatan, bu zamin barchamizniki, shunday ekan, uni asrab avaylash, siz-u bizning, ya'ni barchamizning majburiyatimizdir!

1

III sho'ba. ATROF-MUHITNI SOG'LOMLASHTIRISHNING IQTISODIY, IJTIMOY VA PSIXOLOGIK MASALALARI

XALQ OG'ZAKI IJODI JANRLARIDA TABIATNI ASRAB-AVAYLASH VA EKOLOGIK TARBIYA MASALALARI

Tadjibayeva Sh.A.¹

Annotatsiya. Xalq madaniyati ijobiy imkoniyatlarining barchasini hisobga olmasdan, eng asosiysi, yoshlikdan insonni ma'naviy-etik va jismoniy qiyofasini izchillik bilan shakllantirmasdan turib, ta'lim va tarbiyada yaxlitlikka erishib bo'lmaydi. Sog'lom turmush tarzi faqat jismoniy kuch, chaqqonlik, harakatchanlik yig'indisi emas, balki insonning jamiyatdagi jismoniy va ruhiy muvozanati, axloqiy va sanitar-gigienik ozodaligi, etik vazminligi, psixologik xotirjamligi va boshqalardir.

Tayanch so'zlar: tabiatni asrash, "ko'z tegmasin", halollik, poklik, do'stlik, oliyjanoblik, madaniyatshunoslik, xalq og'zaki ijodi.

IN PRESERVING NATURE AND ENVIRONMENTAL EDUCATION IN FOLK ORAL LITERARY GENRES

Abstract. Without leveraging all the creative potential of folk cultural traditions—especially starting from childhood and consistently shaping both the spiritual and physical aspects of a person—true integration in education and upbringing cannot be achieved. A healthy lifestyle is not merely the sum of physical strength, agility, or activity; it also encompasses a person's physical and psychological balance in society, moral and hygienic well-being, ethical dignity, and psychological stability.

Key words: nature conservation, "don't harm" (ko'z tegmasin), honesty, purity, friendship, nobility, cultural literacy, folk oral literature.

Turmush tarzi- inson hayotining shunday bir tayanch nuqtasiki, har bir inson unga tayangan holda, o'z hayotini tubdan o'zgartirishga erishishi mumkin. Turmush tarzi- deganda inson bilan tabiiy ijtimoiy muhit o'rtasidagi barqaror va uzoqni ko'zlab o'rnatilgan munosabatlar tizimidan iborat bo'lgan jamiyatning axloqiy va moddiy qadriyatlari sifatida gavdalangan, intilishlari, maqsadlari, shakllangan xulqi, uzoq kelajakni o'ylab ish tutishi nuqtai nazardan esa jamiyatdagi mavjud qonunlar, ananalar va tartiblarga asoslangan holga o'zining turli xil ehtiyojlarini qondirib yashash tarzi tushuniladi. Turmush tarzi - bu jamiyatda odamlarning faoliyati yurish turishi tartibi bo'lib, yashash sharoitlari bilan

¹ Tadjibayeva Sh.A, Fan va texnologiyalar universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida dosenti, p.f.n (PhD),

bog'langan, ularga javob beradi, ulardan u yoki bu darajada foydalanishni nazarda tutadi. Turmush tarzi- har bir shaxsning turmush kechirishi yoki boshqacha aytganda ularning yashash faoliyati shaklidir. Yashash sharoiti esa turmush tarzi bilan vositalashgan va shartlangan omillar yig'indisi bo'lib belgilaydi yoki boshqacha qilib aytsak, yashash sharoiti turmush tarziga ta'sir kursatuvchi moddiy va manaviy omillar yig'indisidan tarkib topadi.

O'zbek xalqining tabiatni asrash bilan bog'liq qadriyatlari rang-barang. Jumladan, isiriq, ko'ztikan, qalampirmunchoq, tasbeho't, sedana, rayhon, do'lana, otquloq, chaqirtikan, kiyiko't, yalpiz kabi o't-giyohlar "ko'z tegmasin" degan maqsadda uy peshtoqlariga, darvoza tepalariga osib qo'yilgan. Xalqimiz turli dov-daraxtlar bilan bog'liq qadamjolar, ziyoratgohlarga shifo izlab borganlar. O'simliklarga turli balo-qazo va falokatlardan saqlovchi omil sifatida e'tiqod qilish an'analari ekologik qadriyatlarning bir ko'rinishiga aylangan. "Demak, ayrim o'simlik-giyohlar va daraxtlarni timsollashtirib, unga e'tiqodda bo'lish, ekologik tarbiyaning eng qadimgi, xalqona va ta'sirchan ko'rinishidir." [2]

Xalq pedagogikasida tabiatdagi nafaqat o'simlik dunyosi, balki hayvonot olamini ham himoya qilish, saqlash kabi ibratli fikrlar bor. Bu tabiat va hayvon, hayvon va inson munosabatlarini aks ettiruvchi maqol, ertak, doston, afsona va rivoyatlar, asotirlar va qo'shiqlarda o'z ifodasini topgan. Xalqimiz nutqida tez-tez ishlatiladigan "gullarni uzma, yomon bo'ladi", "qushlar, hayvonlarga ozor berma, yomon bo'ladi" kabi ogohlantiruvchi so'zlarning ta'sir kuchi ham tabiatni asrashda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Tabiat bilan bog'liq marosim va bayramlar ham insonning axloqiy, jismoniy va ekologik tarbiyasida muhim o'rin tutadi.

Hadislarda insonning kamolotga erishishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar ifoda etilgan bo'lib, ushbu fazilatlar sirasiga o'zgalarga mehr-oqibat ko'rsatish, saxiylik, ochiq ko'ngillik, ota-ona, kattalar va qarindoshlarga nisbatan muruvvatli bo'lish, ularga g'amxo'rlik qilish, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug'lash, halollik, poklik, do'stlik, oliyanoblik, rahm-shafqatlilik, kamtarlik, rostgo'ylik va vijdonlilik kabi xislatlar kiritiladi. [4] Bundan tashqari, insonning o'zini yomon illatlardan tiyishi, yaxshilik sari intilishi kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham o'z aksini topganki, bularning barchasi Qur'oni Karimda qayd etilgan ko'rsatmalarga asoslanilgan va komil insonni shakllantirishda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Islom ta'limoti g'oyalariga ko'ra har bir musulmon eng avvalo iymonli bo'lishi kerak. Qur'oni Karimda ta'kidlanganidek, Islom dini ta'limotining yaratilishidan muddao, murod kishilarda iymon, e'tiqodni shakllantirishdir. Hadislarda iymonning

mukammal va mustahkam bo'lishi quyidagi uch shartga qat'iy amal qilinishiga bog'liqligi ko'rsatilgan:

- to'g'ri e'tiqodli bo'lmoq;
- kishilar bilan yaxshi munosabatda bo'lmoq;
- kishi o'z ustida ishlamoq va o'zini ibodat va itoatga chaqirmoq¹.

Iymon daraxtga tenglashtiriladi va uning 60 dan ortiq shoxlari bor deya iymonning belgilari sanab o'tiladi. Sanab o'tilgan belgilarning har biri inson ma'naviy qiyofasini shakllantiruvchi va mukammallashtiruvchi xislatlardir.

Xalqimiz "boylikning boshi sog'liq" ekanligini juda yaxshi bilganlar va um quyidagi maqollarda aks ettirganlar: Bosh omon bo'lsa, do'ppi topilar. Sog' olma shoxidan tushmas. Chilim chekkan kishini, urib sindir tishini. Omon bo'lgan ot minar, ola parcha to'n kiyar.- Omon bo'lsang olam seniki va h.

Xalq pedagogikasi manbalari, tarixiy-etnografik, madaniyatshunoslik, xalq og'zaki ijodi va badiiy publitsistik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, insonning sog'lom turmush tarzini ta'minlashga qaratilgan xalq tajribasi juda ham ko'plab og'zaki tarbiya vositalarida, jumladan, allalar, maqollar, matallar, afsonalar, rivoyatlar, asotirlar, ertaklar, topishmoqlar, masallar, dostonlarda o'z aksini topgan.

Masalan, «Sog'lom tanda sog' aql», «Tozalik – sog'liq garovi», «Salomatlik – tuman boylik», «Bola sog'ligi – ona boyligi», «Boshingni salqinda saqla, oyog'ingni – issiqda», «Yurakda o't bo'lsin, miyada muz bo'lsin» kabi maqollar shular jumlasidandir.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta'minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston", 2017.
2. Murodov M. Etnomadaniyat. – T.: Adolat, 2003. 113-b.
3. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2015.
4. Sh.Tadjibayeva "Ta'lim sub'ektlari orasida ixtilof va nizolarning oldini olish pedagogik shart-sharoitlari" nomli monografiya, "Ilm ziyo zakovat"-Toshkent, 2023-135b.
5. Xayrullaev M. Buyuk iste'dod sohiblari - T.: "Adolat", 2002.

КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К УЛУЧШЕНИЮ СОСТОЯНИЯ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ: ЭКОНОМИЧЕСКИЕ, СОЦИАЛЬНЫЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

Усманова Х. Э¹,

¹ Усманова Хулкар Эргашевна, к.п.н. доцент, Института переподготовки и повышения квалификации директоров и специалистов дошкольных образовательных учреждений

Аннотация. Жизненная психология изучает, как эмоции, мотивация и восприятие влияют на поведение и принятие решений в повседневной жизни. В контексте экологических проблем психология играет ключевую роль в понимании того, как восприятие окружающей среды, тревожность и социальные установки влияют на действия людей. Статья анализирует психологические аспекты, связанные с экологическим поведением, включая восприятие угрозы ухудшения экологии, роль личной ответственности и влияние групповой идентичности. Особое внимание уделяется тому, как внутренние психологические факторы, такие как эко-тревожность, могут стать как препятствием, так и стимулом для активных действий по охране окружающей среды.

Ключевые слова: жизненная психология, экологическое поведение, эмоции, мотивация, восприятие, эко-тревожность, социальные установки, принятие решений, личная ответственность, групповая идентичность, экологическая осведомленность, повседневная жизнь, охрана окружающей среды.

ATROF-MUHIT HOLATINI YAXSHILASHGA KOMPLEKS YONDASHUV: IQTISODIY, IJTIMOY VA PSIXOLOGIK JIHATLAR

Annotatsiya. Hayotiy psixologiya kundalik hayotda emotsiyalar, motivatsiya va idrokning yurish-turish va qarorlar qabul qilishga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganadi. Ekologik muammolar kontekstida psixologiya odamlarning atrof-muhitni qabul qilishi, bezovtalik va ijtimoiy munosabatlar harakatlarga qanday ta'sir qilishi masalalarini tushinishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada ekologik xulq-atvorga oid psixologik jihatlar tahlil qilinadi: ekologik tahdidni anglash, shaxsiy mas'uliyat roli va guruh identifikatsiyasi. Ichki psixologik omillarga — ekotahlikaning (eco-anxiety) qanday to'siq yoki harakatga turtki bo'lishi urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: hayotiy psixologiya, ekologik xulq-atvor, emotsiyalar, motivatsiya, idrok, ekotahlik, ijtimoiy qarashlar, qaror qabul qilish, shaxsiy mas'uliyat, guruh identifikatsiyasi, ekologik xabardorlik, kundalik hayot, atrof-muhitni muhofaza qilish.

Психологический подход к улучшению состояния окружающей среды. Психологический подход является важной составляющей в решении экологических проблем, так как он непосредственно связан с изменением поведения людей и мотивацией к экологически ответственным действиям. Множество экологических проблем, таких как загрязнение окружающей среды или утрата биологического разнообразия, напрямую связаны с действиями человека, которые часто обусловлены психическими и эмоциональными факторами.

Психологические барьеры и мотивация. Одним из ключевых факторов, влияющих на поведение человека в контексте экологии, является мотивация. Люди могут не осознавать всю серьезность угрозы изменения климата или загрязнения окружающей среды, потому что эти проблемы кажутся им абстрактными или далекими.

Психология помогает разобраться в том, как такие барьеры восприятия могут быть преодолены, и как создать стимулы, которые помогут людям изменить свои привычки.

Кроме того, психологические барьеры, такие как экотревожность, могут оказывать как положительное, так и отрицательное влияние. С одной стороны, тревожность о состоянии планеты может стать источником стресса, что мешает действовать. С другой стороны, она может стать мотивацией для вовлечения в защиту окружающей среды. Например, участие в экологических акциях или волонтерских проектах может помочь не только улучшить состояние окружающей среды, но и уменьшить чувство тревожности, придавая жизни смысл и уверенность в том, что личные усилия имеют значение.

Групповая идентичность и социальная ответственность.

Групповая идентичность также играет важную роль в экологическом поведении. Когда люди чувствуют свою принадлежность к экологической группе или движению, они становятся более склонны действовать в интересах окружающей среды. Групповая идентичность помогает укрепить чувство социальной ответственности и коллективного действия. Участие в волонтерских проектах, таких как посадка деревьев или очистка территорий, не только способствует улучшению экологии, но и способствует формированию чувства принадлежности и вовлеченности в общественные процессы.

Просветительские и образовательные кампании.

Просветительские кампании, направленные на повышение осведомленности и изменение отношения людей к экологическим вопросам, имеют большое значение для изменения общественного мнения и формирования устойчивых привычек. Психология играет ключевую роль в этих кампаниях, так как эффективное донесение информации должно учитывать особенности восприятия и психологии массового сознания. Важным аспектом является использование различных каналов коммуникации - от традиционных СМИ до социальных сетей, чтобы влиять на поведение людей.

Когнитивные и эмоциональные аспекты экозащиты. Эмоции и когнитивные процессы напрямую связаны с экологическим поведением. Например, позитивные эмоции, такие как гордость за участие в экологической инициативе, могут стать сильным мотиватором для дальнейших действий. С другой стороны, такие эмоции, как страх или чувство беспомощности, часто вызывают

избегание проблемы, что может снижать вероятность вовлечения людей в практические действия.

Существует несколько когнитивных стратегий, которые могут быть использованы для улучшения экологической осведомленности. Например, методы когнитивно-поведенческой терапии могут помочь людям изменить их отношение к проблемам экологии и научить их адаптировать свое поведение в сторону устойчивых экологических практик.

Заклучение. Психологический подход играет решающую роль в улучшении состояния окружающей среды, поскольку он помогает понять, как восприятие, эмоции и социальные установки людей влияют на их действия в области экологии. Комплексное использование психологических, социальных и экономических инструментов позволяет сформировать целенаправленную стратегию, которая способствует устойчивому развитию и охране экосистем. Психологическая поддержка, использование просветительских программ и развитие социальной ответственности способны стать важными инструментами для стимулирования экологического поведения и сохранения природы для будущих поколений.

Используемая литература

1. Гиффорд, Р. *Экологическая психология: принципы и практика*. - 5-е изд. - Колвилл: Оптимал Букс, 2014.
2. Клейтон, С., Маннинг, К. *Психология и изменение климата: Восприятие, последствия и реакции человека*. - Лондон: Академик Пресс, 2018.
3. Шульц, П. В. *Структура экологической озабоченности: забота о себе, других людях и биосфере* // Журнал экологической психологии. - 2001. - Т. 21, № 4. - С. 327–339.
4. Стерн, П. К. *К единой теории экологически значимого поведения* // Журнал социальных проблем. - 2000. - Т. 56, № 3. - С. 407–424.

ATROF-MUHITNING INSON PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI

Saidboboyeva.P.A¹, Zakirov.A.A².

Annotatsiya. Maqola atrof-muhitning turli jihatlarining insonning psixo-emotsional holatiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Tabiiy va urbanistik elementlar, jumladan, tabiat manzaralari, arxitektura xususiyatlari va ijtimoiy sharoitlar, bizning

¹ Saidboboyeva.P.A, Mehnat va ijtimoiy Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi psixologiya yo'nalishi 3-kurs talabasi

² Zakirov.A.A, Mehnat va ijtimoiy Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi Umumkasbiy fanlar kafedrasi dotsenti, PhD

idrokimiz, kayfiyatimiz va xulq-atvorimizga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ko'rib chiqiladi. Maqolada tabiatning psixikaga ta'siri, shahar muhitining stress va depressiyaga ta'siri, rang va yoritishning emotsional fon yaratishdagi roli, shuningdek, makonning arxitekturaviy idrokini o'rganish kabi mavzular batafsil yoritiladi. Shuningdek, dunyoning turli qismlarida inson psixologiyasiga ta'sir ko'rsatadigan madaniy va ijtimoiy xususiyatlar muhokama qilinadi. Xulosa qilib aytganda, hayot sifatini va psixo-emotsional farovonlikni yaxshilash uchun uyg'un va muvozanatli atrof-muhit yaratishning ahamiyatita'kidlanadi.

Kalit so'zlar: atrof-muhit; inson psixologiyasi; tabiat; urbanizatsiya; stress; depressiya; arxitektura; rang; yoritish; psixo-emotsional holat; ijtimoiy atrof-muhit; ekologik shifo; shahar peyzaji; madaniy xususiyatlar; ekologik falokatlar.

THE IMPACT OF THE ENVIRONMENT ON HUMAN PSYCHOLOGY

Abstract. This article is dedicated to exploring the impact of various environmental factors on the psycho-emotional state of individuals. It examines how natural and urban elements, such as natural landscapes, architectural features, and social conditions, can influence our perception, mood, and behavior. The article thoroughly addresses topics such as the effect of nature on mental health, the impact of urban environments on stress and depression, the role of color and lighting in shaping emotional well-being, and the architectural perception of space. Additionally, it discusses cultural and social characteristics affecting human psychology in different parts of the world. In conclusion, the importance of creating a harmonious and balanced environment to enhance quality of life and psycho-emotional well-being is emphasized.

Keywords: environment, human psychology, nature, urbanization, stress, depression, architecture, color, lighting, psycho-emotional state, social environment, ecological healing, urban landscape, cultural characteristics, ecological disasters.

Atrof-muhit insonning psixologik holatini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Tabiat manzaralaridan tortib, urbanistik peyzajlargacha - atrof-muhitning barcha elementlari bizning emotsional holatimizga, kognitiv jarayonlarimizga va xulq-atvorimizga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Atrof-muhitning inson psixologiyasiga ta'siri psixologiya, ekologiya, sotsiologiya va boshqa sohalarda keng qamrovli tadqiqotlarni o'z ichiga olgan muhim mavzudir. Ushbu maqolada biz atrof-muhitning turli jihatlari qanday qilib bizning idrokimiz, kayfiyatimiz va xulq-atvorimizga ta'sir ko'rsatishini ko'rib chiqamiz.

Inson psixologiyasiga ta'sir ko'rsatadigan eng yaqqol omillardan biri tabiatdir. Yashil zonalar, o'rmonlar, bog'lar va suv havzalari psixo-emotsional holatga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi isbotlangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tabiatda bo'lish stress darajasini kamaytirishga, diqqatni jamlashni yaxshilashga, ijodkorlikni oshirishga va umumiy farovonlikni yaxshilashga yordam beradi. Tabiat manzaralari parasimpatik asab tizimini faollashtirishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida xavotir va depressiyani kamaytiradi. Masalan, o'rmon bo'ylab sayr qilish, suvni kuzatish yoki

shunchaki tabiatda dam olish stress gormoni bo'lgan kortizolning konsentratsiyasini kamaytiradi. Ushbu hodisa "tabiat effekti" yoki "ekologik shifo" sifatida tanilgan. Shuning uchun rivojlangan urbanizatsiya zonalariga ega shaharlarda ko'pincha yashil dizayn elementlari qo'shiladi, bu esa aholining psixologik holatini yaxshilashga yordam beradi.

Boshqa tomondan, odamlar doimiy ravishda shovqin, havoning ifloslanishi va aholi zichligi bilan duch keladigan urbanizatsiya qilingan shaharlar stress, charchoq va psixo-emotsional holatning yomonlashishiga sabab bo'lishi mumkin. Shahar atrof-muhitining ko'plab omillari - aholi zichligi, baland shovqin darajasi, ifloslanish, tabiiy zonalarining etishmasligi - stressning xronik holatga o'tishiga va hatto psikosomatik kasalliklarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Shahar hayoti, uning dinamikligi va imkoniyatlariga qaramasdan, ijtimoiy izolyatsiya, ortiqcha xavotirlik va depressiyaning manbai ham bo'lishi mumkin. Bu, shaharlarda odamlar ko'pincha katta va anonim jamiyatning bir qismi sifatida o'zlarini his qilishlari bilan bog'liq. Shaxsiy aloqalarning yo'qligi va ijtimoiy bog'lanishlarning yetishmasligi psixologik farovonlikka sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ranglar va yoritish kayfiyatni va emotsional fonni yaratishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, iliq ranglar (qizil, to'q sariq, sariq) uyqu va faoliyatni rag'batlantirish hissini yaratishi mumkin, shuningdek, sovuq ranglar (ko'k, yashil, binafsha) tinchlanishga va stressni kamaytirishga yordam beradi. Ichki yoritish ham odamning energiya darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Yorqin va iliq yoritish manbalari simpatik asab tizimini faollashtiradi, yumshoq va pasaytirilgan yoritish esa dam olishga yordam beradi va xavotir darajasini kamaytiradi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tabiiy yoritishga ega joylarda ishlaydigan odamlar sun'iy yorug'likda ishlayotganlarga qaraganda yuqori darajadagi ishlab chiqarish va psixologik farovonlikka ega.

Arxitekturaviy elementlar, masalan, binolar shakli, ularning o'lchamlari va makonni ishlatish ham psixikaga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yaxshi akustikaga, to'g'ri yoritish va havo tarqatishga ega bo'lgan joylar kayfiyatni va diqqatni yaxshilashga yordam beradi. Shu bilan birga, zich va yomon havalandiruvchi joylar xavotir, xafa bo'lish va tushkunlik hissini keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, ijtimoiy maydonlarning mavjudligi, masalan, maydonlar, uchrashuv maydonchalari va bog'lar, stress darajasini kamaytirishga va ijtimoiy muloqotni rag'batlantirishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, yuqori darajadagi stress va anonimlik muammosi mavjud bo'lgan katta shaharlarda muhimdir.

Atrof-muhitni psixologik idrok qilish, shuningdek, odamning o'sib-ulg'aygan va yashagan ijtimoiy va madaniy muhiti bilan bog'liqdir. Turli madaniyatlar atrof-muhitning turli jihatlariga turlicha ahamiyat beradilar.

Masalan, tabiatga hurmat ko'rsatadigan madaniyatlar, odamlar tabiatni tinchlik va ichki xotirjamlik manbai sifatida qabul qilishadi, shu bilan birga sanoatlashgan mamlakatlarda shahar muhitining qulayligi va funkcionalligi ko'proq e'tiborga olinadi. Ijtimoiy atrof-muhitning ta'siri ham past baholanmasligi kerak. Yaqinlarining qo'llab-quvvatlashi, ijtimoiy an'analari va odatlari, ijtimoiy me'yorlar va kutishlar inson psixikasiga ijobiy hamda salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ekologik falokatlar, masalan, atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy ofatlar, iqlim o'zgarishlari, inson psixikasiga chuqur ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, bunday vaziyatlar uzoq va xilma-xil o'zgarishlar kontekstida qabul qilinishi qiyin bo'ladi, bu esa xavotir, depressiya va ojizlikka olib kelishi mumkin. Posttravmatik stress buzilishi (PTSB), depressiya va surunkali xavotirlik - bunday voqealarning faqat ba'zi mumkin bo'lgan oqibatlaridir.

Xulosa qilib aytganda atrof-muhitning inson psixologiyasiga ta'siri murakkab va ko'p qirrali. Tabiat sharoitlaridan tortib, shahar muhitining arxitekturaviy xususiyatlarigacha - har bir element bizning holatimizga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuni tushunish muhimki, uyg'un va muvozanatli atrof-muhit yaratish hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilashga va stress darajasini kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, atrof-muhitni ijtimoiy va madaniy muhitning ta'sirini hisobga olish ham muhimdir, chunki bu bizning psixo-emotsional holatimiz bilan bevosita bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Evans, G. W. (2003). The built environment and mental health. *Journal of Urban Health: Bulletin of the New York Academy of Medicine*, 80(4), 536-555.
2. Herzog, T. R., & Kutzli, K. L. (2002). The role of natural environments in human health and well-being. *Environmental Psychology Review*, 2(3), 147-171.
3. Karmanov, D., & Vartanyan, A. (2014). Environmental psychology: An interdisciplinary approach to understanding the human-environment relationship. *Russian Journal of Social Sciences*, 5(4), 12-24.
4. Gifford, R. (2013). *Environmental psychology: Principles and practice*. 5th Edition. Optimal Books.
5. Taylor, A. F., & Kuo, F. E. (2006). Is contact with nature important for healthy child development?. *Psychological Science*, 17(1), 1-12.
6. Mayer, F. S., & Frantz, C. M. (2004). The connectedness to nature scale: A measure of individuals' feeling in community with nature. *Journal of Environmental Psychology*, 24(4), 503-515.

EKOLOGIYA VA INSON SALOMATLIGINING BOG'LIQLIGI. EKOPSIXOLOGIYA

Qodirshayeva G.Sh¹, O'ktamova.Y.R²

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson psixologiyasi va uning tashqi muhit, ayniqsa, ekologik muhit bilan aloqasi tahlil qilinadi. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi, yashash muhitining o'zgarishi ilmiy manbalar va harakatlar asosida tekshiriladi. Shu bois ekologik muhitning psixologik holatga ta'sirini o'rganishga qaratilgan ekopsixologiya fani shakllandi. Ushbu maqolada ekologik muhitning inson psixologiyasiga bo'lgan ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ekopsixologiya, ekologik ong, depressiya, stress, ekoterapiya, yashil psixologiya, "eco-guilt", posttravmatik stress buzilishi.

THE RELATIONSHIP BETWEEN ECOLOGY AND HUMAN HEALTH: ECOPSYCHOLOGY

Abstract. This article analyzes the relationship between human psychology and the external environment, particularly the ecological environment. The impact of environmental pollution, the depletion of natural resources, and changes in living conditions is examined based on scientific sources and practices. Consequently, the field of ecopsychology has emerged to study the influence of the ecological environment on psychological states. This article specifically analyzes the impact of the ecological environment on human psychology.

Keywords: Ecopsychology, ecological consciousness, depression, stress, ecotherapy, green psychology, eco-guilt, post-traumatic stress disorder.

Ekologik psixologiya: uning fan sifatidagi mazmuni va ahamiyati. Ekologik psixologiya - inson va ular ishlayotgan muhit o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadigan fan sohasi. Bu soha AQShda 1960-yillarda boshlangan va uning asoschilaridan biri Rojer Barker edi. Ekologik psixologiya atrof-muhit va inson xatti-harakatlari o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qiladi. Ekologik identichlik va ongli munosabat. Ekologik o'ziga xoslik - insonni tabiatning ajralmas qismi sifatida qabul qilish. Bu tushuncha tabiatga empatiya, g'amho'rik va ma'suliyat xissini shakllantiradi. Ekologik o'ziga xoslik insonda oila, maktab, din va ommaviy axborot vositalari orqali shakllanadi.

Ekologik muhit va inson ruhiyati. Inson psixologik jihatdan tashqi muhit bilan chambarchas bog'liq. Tabiiy muhitning ifloslanishi yoki sun'iy lashuvi odamda quyidagi psixologik muammolarga olib kelishi mumkin:

¹ Qodirshayeva G.Sh, Mehnat va ijtimoiy munosabatlar psixologiya yo'nalishi 3-kurs 105-guruh talabasi

² O'ktamova.Y.R, Mehnat va ijtimoiy munosabatlar Akademiyasi Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi Umumkasbiy fanlar kafedrasida assistent o'qituvchisi

Stress: Yashash joyining ekologik jihatdan noqulay bo'lishi (masalan, zavod yaqinida yashash, iflos havo) odamda doimiy ruhiy bosim, tashvish va bezovtalikka sabab bo'ladi. Depressiya: Daraxtsizlik, tabiiy go'zalliklarning yo'qolishi va sershovqin shahar hayoti insonda hissiy tushkunlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Tashvish va xavotir: Iqlim o'zgarishlari, suv tanqisligi yoki oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid keltiruvchi holatlar ong ostida xavotirni kuchaytiradi.

Ekologik qayg'u (eco-anxiety): Bu - iqlim inqirozi va ekologik muammolar haqida o'ylab yuradigan insonlarning yangi psixologik holatidir. Ular kelajak uchun chuqur xavotirda bo'lishadi.

Ijobiy ekologik muhitning psixik foydasi yaxshi saqlangan, toza va tabiiy muhit inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir qiladi. Masalan:

Tabiat bilan aloqa (yurish, tog' sayohatlari, bog'bonlik): kayfiyatni ko'taradi, ruhiy tetiklikni oshiradi. Yashil hududlar (parklar, bog'lar): stressni kamaytiradi, e'tibor va xotirani yaxshilaydi. Ekologik ongni shakllantirish: inson o'zini tabiatning bir qismi sifatida anglay boshlaydi va bu ruhiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Ekopsixologiya – yangi yondashuv. Ekopsixologiya – psixologiya va ekologiyaning kesishgan nuqtasida joylashgan fan bo'lib, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatni o'rganadi. Bu yo'nalish quyidagilar bilan shug'ullanadi:

- Ekologik muhitning psixik salomatlikka ta'siri.
- Tabiat bilan aloqa qilish orqali ruhiy tiklanish.
- Ekologik ong va mas'uliyatni shakllantirish orqali shaxsiy va ijtimoiy muammolarni bartaraf etish.

Ekopsixologiya: yangi ilmiy yondashuv. Ekopsixologiya - ekologiya va psixologiyaning tutash nuqtasida joylashgan multiditsiplinar soha bo'lib, uning asosiy maqsadi inson va tabiat o'rtasidagi uzviy aloqani tiklashdir. Bu yondashuvga ko'ra, inson o'zini tabiatning ajralmas qismi sifatida anglaganida, ruhiy salomatlikni saqlash va tiklash imkoniyati ortadi.

Ekopsixologiyaning asosiy prinsiplariga quyidagilar kiradi:

- Inson va tabiat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tan olish;
- Ekologik ong va mas'uliyatni shakllantirish;
- Tabiat bilan muloqotni ruhiy terapiya sifatida qo'llash;
- Psixologik muammolarning ildizini ijtimoiy-ekologik tizimda izlash.

Havoning ifloslanishi nafaqat jismoniy, balki ruhiy salomatlikka ham sog'lom ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, havodagi zararli moddalarning konsentratsiyasi depressiya, tashvish, asabiylashish va e'tibor yetishmasligi kabi holatlarni kuchaytirishi mumkin.

Ekoterapiya (tabiat orqali davolash). Ekoterapiya - bu psixologik muammolarni davolashda tabiatdan foydalanishga asoslangan muqobil yondashuvdir. Quyidagi shakllari mavjud:

Ochiq havoda maslahatlar:

- Bog'bonlik terapiyasi;
- O'rmon terapiyasi (Yaponiyada keng tarqalgan);
- Tabiat yurishlari;

Foydalari:

- Kortizol (stress gormoni) darajasini pasaytiradi;
- Qon bosimini normallashtiradi;
- Ijobiy his-tuyg'ularni kuchaytiradi;
- DEHB (diqqat yetishmovchiligi) simptomlarini kamaytiradi.

Ekologik xavf omillari va ularning psixologik salbiy ta'siri.

Quyidagi ekologik omillar inson psixikasiga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ta'sir qiladi:

- Ekologik omil
- Havoning ifloslanishi
- Shovqin (akustik stress)
- Issiq iqlim (issiq to'lqinlar)
- Yashil maydonlarning yo'qligi;

Psixologik ta'siri:

- Diqqatni jamlashda qiyinchilik, bosh og'rig'i, bezovtalik;
- Uyqu buzilishi, asabiylik, asoratli stress;
- Tez charchash, g'azab, ruhiy tushkunlik;
- Tushkunlik, ijtimoiy aloqalarning qisqarishi;

Ekologik travma va psixologik zarar:

Золь-гель метод применим для приготовления нанофаз (НФ) в различных формах, таких как, поверхностное покрытие, микро- или субмикрочастицы и монолиты. Существенно важной стороной этого подхода является то, что заведомо могут быть выбраны золь-гель прекурсоры (исходные вещества) и другие молекулярные строительные блоки для создания неподвижных фаз с необходимыми структурными и поверхностными свойствами.

Одностадийность процесса, то есть проведение процесса в одном реакторе и мягкие термические условия (обычно комнатная температура) позволяет объединять полезные свойства, кремнеземполимеров, так и хитозана, а также усиливать гидролитически стабильность и тонко регулировать хроматографическую селективность создаваемых гибридных полимеркремнеземных наноконпозиционных НФ.

Поскольку в задачу исследования входило получение сорбционные гидролитически устойчивые наноматериалы для удаления остатков нефтепродуктов в воде, было изучено влияние соотношения реагентов на адгезию получаемого гибридного полимеркремнеземного наноконпозиционного материала к поверхности стеклянной пластинки. Образцы, обладающие положительной адгезией к поверхности стекла, подвергнуты структурному анализу с целью определения удельной поверхности их пористости [4-7].




Рис.1. ИК-спектры образцов. 1 – хитозан, 2 – наногибридный хитозан-кремнеземный сорбент, 3 – кремнезем

На ИК спектрах полученных хитозан-кремнеземных сорбентах имеются полосы при 1090-1020 см⁻¹, относящиеся к валентным колебаниям

Si-O-Si и Si-O-C. Изменения в полосах поглощения гидро оксидной группировки хитозана в области 1650 см^{-1} и силанольной группы в области 960 см^{-1} позволяют предположить образование водородных связей между силанольной, гидроксильной группы хитозана (рис.1). Смещение полосы 1340 см^{-1} , отнесенной к деформационным колебаниям первичной ОН группы может свидетельствовать об образовании эфирной связи между первичной хлорокисной группы хитозана и силанольной группой, образовавшейся из тетраэтоксисилан(ТЭОС) кремнеземной сетки. Такое связывание хитозана имеет существенное значение, так как несвязанные гидрокилгруппы позволяют осуществлять различные химические превращения с целью получения продуктов с ценными свойствами (сорбционных материалов для разделения органических соединений, биокатализаторов и т.п.) [6-9].

Сорбционные свойств наногибридных хитозан-кремнеземных сорбентов отличаются от свойств от модифицированного микросферического силикагеля и исходного микросферического силикагеля (МСС). При этом здесь важную роль играют активные центры на поверхности сорбентов и участие функциональных групп хитозана. Можно предполагают, что полученный гибридный хитозан-кремнеземный сорбент имеет функциональных групп что, в результате располагает большим числом активных центров, а также создает устойчивость различным средам.

Обнаруженные на дифрактограммах подавление кристалличности, а также изменения в полосах поглощения ИК-спектров полученных образцов наногибридных хитозан-кремнеземных сорбентов свидетельствуют о возникновении аморфных структур, определяющих их физико-химические и сорбционные свойства. Это было подтверждено сорбционным исследованием, которое показало отличие наногибридного хитозан-кремнеземного сорбента от микрокапсулированного хлорокисным хитозаном силикагеля и исходном МСС.

Таким образом, полученные данные свидетельствуют о том, что для синтеза наногибридного хитозан-кремнеземного сорбента со сферическими частицами в одну стадию наиболее эффективным является золь-гель метод. При этом функциональные группы характерные для полимера находятся на поверхности и во всем объеме матрицы силикагеля, что приводит к устойчивости наносорбционных материалов к воздействию щелочей и кислот, а так же сорбционные материалы увеличивает эффективность сорбента. Такие сорбционные материалы вполне возможно использовать для очистки сточных вод от различных остатков органических веществ.

Использованная литература

1. Kuvatov D. G., Sh M. O., Akhundjanov K. A. Reocinetic analysis polyetoxysiloxane polymers with zirconyl oxuchloride //Экономика и социум. – 2019. – №. 1-1 (56). – С. 59-64.
2. Юнусов Ф. У. и др. Гибридные нанокпозиционные материалы, полученные золь-гель методом //Пятая международная конференция стран СНГ" Золь-гель синтез и исследование неорганических соединений, гибридных функциональных материалов и дисперсных систем"- " Золь-гель 2018". – 2018. – С. 310-311.. М.:Химия, 2000, 505 с.
3. Юнусова К.У и др. Поликапроамидкремнеземные сорбенты в тонкослойной хроматографии в качестве показателей безопасности //Экономика и социум. – 2020. – №. 4. – С. 1057-1060.
4. Nanotechnology Research Directions IWGN Workshop Report. Edited by M.C. Roco .London: Kluwer Academic Publishers, 2000, 292 pp.
5. Юнусова К. У., Ахунджанов К. А., Ахунджанова Н. Г. Применение поликапроамидкремнеземных сорбентов в тонкослойной хроматографии для определение афлотоксинов //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2020. – №. 4-3. – С. 101-103.Huang A., Liu Y., Chen L., Hua J. // J. Appl. Polym. Sci., 2002. 85. p. 989.
6. Ayers M.R., Hunt A.J. // J. Non-Cryst. Solids, 2001. 285 p. 123.
7. Franco P., Senso A., Oliveros L., Minguillon C. // J. Chromatogr. A. 2001. 906. p. 155.
8. Yang L., Hsiao W.W., Chen P. // J. Membr. Sci. 2002. 197. p. 185.
9. Киселев А.В., Пошкус Д.П., Яшин Я.И. Молекулярные основа.

EKOLOGIK XAVFLARNING SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISHGA TA'SIRI

Yaqubov T.B ¹, Sodiqov D. ², Farxodova M.³

Annotatsiya. Tadqiqot hozirgi kunda sanoat korxonolari tomonidan atrof-muhitni ifloslantirishning dolzarb muammosini haqida bo'ladi. Atrof-muhitning antropogen ifloslanishi muammosiga qisqacha izoh berilgan. Ekologik xavflar iqtisodiy faoliyatning bevosita xarakteristikasi hisoblanadi; shuning uchun sanoat korxonasida ushbu risklarni boshqarish tizimini tashkil etish zarur. Ilmiy izlanishlar sanoat korxonasida ekologik xavf strategiyasini amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi. Sanoat korxonasining ekologik strategiyasini shakllantirishning tashqi va ichki omillarini belgilovchi xususiyatlar ko'rsatilgan. Tadqiqotda xavfning sanoat korxonasiga ta'sirining xususiyati, xavfning yuzaga kelish darajasi va uni boshqarish imkoniyatlarini hisobga olgan holda ekologik xavf omillarining yangi tasnifi keltirilgan. Bu atrof-muhitga etkazilgan zararni va ular keltirib chiqaradigan iqtisodiy xarajatlarni

¹ T.B Yaqubov, Qarshi davlat texnika universiteti o'qituvchisi

² D. Sodiqov, Qarshi davlat texnika universiteti talabalari

³ M. Farxodova, Qarshi davlat texnika universiteti talabalari

minimallashtiradigan va kamaytiradigan risklarni boshqarish tizimini yaratish zarurligini ochib beradi.

Kalit so'zlar. ekologik xavf, sanoat korxonasi, omil, kimyoviy, biologik, risk, kasbiy faoliyat.

THE IMPACT OF ENVIRONMENTAL RISKS ON INDUSTRIAL ENTERPRISE MANAGEMENT

Abstract. This study addresses the pressing issue of environmental pollution caused by industrial enterprises. A brief overview of the problem of anthropogenic environmental pollution is provided. Environmental risks are considered a direct characteristic of economic activity; therefore, it is essential to establish a system for managing these risks within industrial enterprises. Research highlights the necessity of implementing an environmental risk strategy in industrial enterprises. The study identifies the characteristics that determine the external and internal factors in shaping the environmental strategy of an industrial enterprise. A new classification of environmental risk factors is presented, taking into account the nature of the risk's impact on the industrial enterprise, the likelihood of its occurrence, and the possibilities for managing it. This underscores the need to create a risk management system that minimizes and mitigates environmental damage and the associated economic costs.

Key words: environmental risk, industrial enterprise, factor, chemical, biological, risk, occupational activity.

Xavf – bu biror xatarli hodisa yoki falokat sodir bo'lishi ehtimolligi hisoblanadi. Ish joyidagi xavf deganda ta'sirlangan odamlarning farovonligi yoki sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday holat tushunilishi mumkin. Har qanday kasbiy faoliyatda xavflarni tan olish xavfli moddalarni va ushbu xavflarga potentsial ta'sir ko'rsatadigan ishchilar guruhlarini aniqlash orqali ish joyini tavsiflashni o'z ichiga oladi. Xavf kimyoviy, biologik yoki jismoniy kelib chiqishi mumkin [<https://iloencyclopaedia.org/uz>]. Turli xil xavflar doimo odamlarning iqtisodiy faoliyatini murakkablashtirgan. Biroq, xavflar ko'pincha XIX asr oxiri - XX asr boshlarida batafsil o'rganilgan. Ammo 20-asrda xavflarning oqibatlarini ayniqsa qiyinlashdi, bu olimlarni xavflarning turli tomonlarini o'rganishni boshlashga undadi. Xavf har qanday faoliyatga, shu jumladan iqtisodiy faoliyatga ham xosdir, deb ishoniladi. XX-XXI asrlarda ekologik xavflar va ularning sanoat korxonalarining xo'jalik faoliyatiga ta'siri katta ahamiyatga ega.

Retrospektiv shuni ko'rsatadiki, ilmiy hamjamiyat iqtisodiy faoliyatni ko'klamzorlashtirish zarurati yaqinda paydo bo'lgan. XVIII asrdan boshlab xalqaro savdo aylanmasi keskin o'sdi (deyarli 800 marta). 20-asrning boshidan beri yoqilg'i sarfi 50 barobar oshdi. Biroq, kuchayib borayotgan ekologik halokat faqat 20-asrning 60-yillariga kelib sezilarli bo'ldi.

Keyinchalik ekologiyaning insoniyat taraqqiyoti uchun ahamiyati jahonning MIR-1, MIR-2, MIR-3 global modellarida o'z ifodasini topdi. Bular insoniyat kelajagi uchun atrof-muhitni muhofaza qilish muhimligini birinchi marta ko'rsatgan modellardir.

Ushbu maqola ish joyidagi xavflarni aniqlash va tasniflashga qaratilgan dasturlar bilan cheklangan. Ish muhitidagi xavflarni aniqlash va baholash uchun ko'plab modellar yoki texnikalar ishlab chiqilgan. Ular oddiy nazorat ro'yxatlari, dastlabki sanoat gigienasi so'rovlari, ish joyiga ta'sir qilish matritsalar va xavf va ish qobiliyatini o'rganishdan tortib, ish ta'siri profillari va ishni nazorat qilish dasturlarigacha murakkabligi bilan farqlanadi[3]. Hech qanday texnika har kim uchun aniq tanlov emas, lekin barcha usullar har qanday tergovda foydali bo'lgan qismlarga ega. Modellarining foydaliligi, shuningdek, tadqiqot maqsadiga, ish joyining hajmiga, ishlab chiqarish va faoliyat turiga, shuningdek operatsiyalarning murakkabligiga bog'liq.

Sanoat korxonalarining o'ziga xos xususiyati ularning doimiy ravishda yuzaga keladigan ekologik xavflarga bog'liqligidir. Ekologik xavflar ham atrof-muhitga katta zarar etkazishi, balki katta miqdordagi moddiy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun sanoat korxonalarini ushbu xavflarni hisobga oladigan samarali boshqaruv tizimlarini ishlab chiqishlari kerak.

Bunday strategiyaning amalga oshirilishi alohida korxonaga ham, mintaqa va mamlakat iqtisodiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lardi. Tashqi bozorga yo'naltirilgan zamonaviy sanoat korxonalarini xorijiy mijozlar va sheriklar tomonidan ma'lum bosim ostida, shuning uchun ular atrof-muhitni boshqarish tizimini joriy etishga va ekologik strategiyani ishlab chiqishga majbur bo'lmoqdalar [4]. Raqobat ustunliklarini ta'minlash sanoat korxonasi uchun ijobiy ekologik imidjini shakllantirish bilan ham bog'liq [5].

Atrof-muhitga yetkaziladigan zararni kamaytirish va oldini olish kasallanish darajasini pasaytirish va aholi turmush sifatini yaxshilash kabi ijtimoiy muammolarni ham hal qilishi mumkin. Ekologik javobgarlik faol rivojlanayotgan sanoat korxonalarini, shu jumladan xalqaro bozorda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga qaratilgan korxonalar uchun zaruriy xususiyatga aylanib bormoqda.

Sanoat korxonasi uchun risklarni boshqarish algoritmining asosi xavf omillarini aniqlashdir. Xatarlarning xilma-xilligi turli omillarga bog'liq bo'lib, ular odatda xavf-xatarni yaratuvchi sifatida belgilanadi. Bu omillar xavfning yuzaga kelishi va uning xususiyatlarini belgilaydi. Xavf omillarining mavjud tasniflari sanoat korxonasi uchun strategiyasini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan talablarga javob bermasligi qayd etildi.

Shunday qilib, ekologik xavflarning sanoat korxonasi strategiyasiga ta'sirini baholash usullarini takomillashtirish muammosi nafaqat nazariy nuqtai nazardan, balki respublikamizdagi sanoat korxonalarini uchun ham amaliy ahamiyatga ega. Yuqoridagilarning barchasi ushbu tadqiqot maqsadlarini shakllantirishga ta'sir qiladi.

Xavflarni aniqlash va tasniflash uchta asosiy elementga bo'linishi mumkin: ish joyini tavsiflash, ta'sir qilish tartibi va xavfni baholash.

Ish joyida bir nechadan bir necha minggaacha ishchilar bo'lishi va turli faoliyat turlariga ega bo'lishi mumkin (masalan, sanoat korxonalarini barcha turlari, qurilish maydonchalari, ofis binolari, kasalxonalar yoki fermalar). Ish joyida turli xil tadbirlar bo'limlar maxsus hududlarga joylashtirilishi mumkin. Sanoat jarayonida turli bosqichlar va operatsiyalar aniqlanishi mumkin, chunki ishlab chiqarish xom ashyodan tayyor mahsulotgacha davom etadi.

Sanoat korxonalarida barcha foydalanilgan turli xil vositalarni, shu jumladan: xom ashyo, ishlov berilgan yoki jarayonga qo'shilgan materiallar, birlamchi mahsulotlar, oraliq, yakuniy, reaksiya mahsulotlari va qo'shimcha mahsulotlarni aniqlash uchun jarayonlar, operatsiyalar yoki boshqa manfaatdor faoliyatlar haqida batafsil ma'lumot olish kerak. Jarayondagi qo'shimchalar va katalizatorlarni aniqlash ham qiziq bo'lishi mumkin. Faqat tayyor sotuvdagi xom ashyo yoki qo'shilgan material kimyoviy tarkibi bo'yicha baholanishi kerak. Ma'lumot yoki xavfsizlik ma'lumotlari varaqlari ishlab chiqaruvchi yoki yetkazib beruvchilardan bajarilishi kerak.

Jarayonning ba'zi bosqichlari yopiq tizimda hech kimga ta'sir qilmasdan sodir bo'lishi mumkin, texnik xizmat ko'rsatish yoki jarayonning nosozliklari bundan mustasno. Hodisalarni tan olish va kishilarga ta'sir qilishning oldini olish uchun ehtiyot choralarini ko'rish kerak. Boshqa jarayonlar mahalliy egzoz ventilyatsiyasi bilan ta'minlangan yoki bo'lmagan ochiq tizimlarda amalga oshiriladi. Shamollatish tizimining umumiy tavsifi, shu jumladan mahalliy egzoz tizimini ta'minlash kerak.

Yangi sanoat korxonalarini yoki ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish hamda loyihalar tuzishda xavflarni aniqlash kerak, bu jarayonda ilk bosqichda o'zgartirishlar kiritish va xavflarni oldindan bilish va oldini olish choralarini ko'rish kerak. Turli xavflarni oldindan bilish va tashqi muhitga chiqadigan emissiya va chiqindilarni ham tushunish kerak. Potensial xavflarni tahlil qilishda kerakli birliklarni shakllantirish uchun ob'ektning joylashuvi, ishlab chiqarish jarayonlari, emissiya manbalari va tegishli xodimlar tizimli ravishda guruhlangan bo'lishi kerak. Har bir bo'limlarda mutaxassislarning agentlarning sog'lig'iga ta'siri va ish muhitiga emissiya miqdorini baholash bo'yicha guruhlanishi kerak.

Kimyoviy va biologik vositalarning asosiy ta'sir qilishi asosan nafas olish organlari va teriga ta'sir o'tkazadi. Ta'sir qilishi xavflar bilan munosabatiga, ta'sir qilish intensivligiga va ta'sir qilish vaqtiga bog'liq. Ish vazifalari tizimli ravishda tekshirilishi kerak. Faqat ish qo'llanmalarini o'rganish emas, balki ish joyida nima sodir bo'lishini ko'rib chiqish muhimdir. Ishchilar to'g'ridan-to'g'ri vazifalarni bajarish natijasida yoki bilvosita ta'sir qilishlari mumkin, chunki ular ta'sir qilish manbai bilan bir xil umumiy hududda yoki joyda joylashgan. Ta'sir qilish qisqa muddatli bo'lsa ham, zarar etkazish ehtimoli yuqori bo'lgan ish vazifalariga e'tibor qaratishdan boshlash kerak bo'lishi mumkin. Muntazam bo'lmagan va intervalgacha operatsiyalar (masalan, texnik xizmat ko'rsatish, tozalash va ishlab chiqarish davrlarini o'zgartirish) hisobga olinishi kerak. Ish vazifalari va vaziyatlar ham yil davomida farq qilishi mumkin.

Korxonalarda ishchilarga xavflar turlicha ta'sir qiladi, chunki ba'zi ishchilar himoya vositalarini foydalanishadi, ba'zilari esa foydalanishmaydi. Katta zavodlarda har bir ishchi uchun xavf-xatarni tan olish yoki sifat jihatidan xavfni baholash juda kamdan-kam hollarda amalga oshirilishi mumkin. Shuning uchun ish vazifalari o'xshash bo'lgan ishchilar bir xil ta'sir guruhiga kiritilishi kerak. Ish vazifalari, ish texnikasi va ish vaqtidagi farqlar sezilarli darajada boshqacha ta'sirga olib keladi va har bir jarayon e'tiborga olinishi kerak. Ochiq havoda ishlaydigan va mahalliy egzoz ventilyatsiyasiz ishlaydigan odamlar mahalliy egzoz ventilyatsiyasi bilan uyda ishlaydigan guruhlarga qaraganda kunlik o'zgaruvchanlikka ega ekanligi ko'rsatilgan [6]. Guruhlar ichida potentsial ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ishchilar xavfli xodimlar, ta'sir qilish yo'llari, xodimlarning sog'liqqa ta'siri, xavf bilan aloqa qilish chastotasi, ta'sir qilish intensivligi va vaqti bo'yicha aniqlanishi va tasniflanishi kerak. Turli ta'sir guruhlari eng katta xavf ostida bo'lgan ishchilarni aniqlash uchun xavfli xodimlar va taxminiy ta'sir qilish darajasi bo'yicha tartiblanishi kerak.

Changlar noorganik va organik zarralardan iborat bo'lib, ular zarracha hajmiga qarab nafas oladigan, ko'krak qafasidagi yoki nafas oladigan zarrachalarga bo'linadi. Aksariyat organik changlar biologik kelib chiqishi bor. Noorganik changlar silliqlash, arralash, kesish, maydalash, saralash yoki elaklash kabi mexanik jarayonlarda hosil bo'ladi. Changli materiallar bilan ishlov berilganda yoki harakatdan havo harakati ta'sirida aylanayotganda changlar tarqalishi mumkin. Quruq materiallar yoki kukunni tortish, to'ldirish, zaryadlash, tashish va qadoqlash orqali ishlov berish chang hosil qiladi, shuningdek, izolyatsiya va tozalash ishlari kabi ishlar.

Dumanlar yuqori haroratda bug'langan va mayda zarrachalarga kondensatsiyalangan qattiq zarralardir. Bug'lanish ko'pincha oksidlanish

kabi kimyoviy reaksiya bilan birga keladi. Tutunni tashkil etuvchi yagona zarrachalar juda nozik, odatda 0.1 mkm dan kam va ko'pincha kattaroq birliklarda to'planadi. Masalan, payvandlash, plazma bilan kesish va shunga o'xshash operatsiyalardan chiqadigan tutunlar.

Tumanlar - gazzimon holatdan suyuqlik holatiga kondensatsiyalanish yoki suyuqlikni chayqalish, ko'piklash yoki atomizatsiya qilish orqali dispers holatga parchalanishi natijasida hosil bo'lgan to'xtatilgan suyuqlik tomchilari. Masalan, kesish va silliqdash operatsiyalaridan olingan yog' tumanlari, elektrokaplaman kislotali tumanlar, tuzlash operatsiyalaridan kislota yoki ishqorli tumanlar yoki purkash operatsiyalaridan bo'yoq purkagichlari chiqadi.

Ko'pgina nazariyalar risklarni boshqarish algoritmini uch bosqichga qisqartiradi: xavf turini aniqlash, xavfning sanoat korxonasiga ta'sirini o'lchash, xavfga ta'sir qilish. Bu yondashuv haddan tashqari integratsiyalashgan deb hisoblasak, sanoat korxonasida risklarni boshqarishning mohiyatini aks ettiruvchi besh bosqichni o'z ichiga olgan risklarni boshqarish tizimini taklif qilsa boladi:

1. *Maqsadlarni belgilash.* Ushbu bosqichda korxonaning uzoq muddatli istiqboldagi asosiy maqsadlari aniqlanadi.

2. *Xavfni aniqlash.* Ushbu bosqichda joriy va potentsial xavf holatlarini aniqlash uchun korxonaning joriy holati tahlil qilinadi. Xatarlarni boshqarish jarayoni tsiklik jarayondir, shuning uchun bir muncha vaqt o'tgach, risklarni aniqlash bo'yicha bajarilgan ishlar o'zgargan ichki va tashqi omillar tufayli ahamiyatsiz bo'lib qoladi. Yangi xavflarni o'z vaqtida aniqlash dasturini ishlab chiqish kerak.

3. *Xavfning joriy darajasini baholash.* Xatarlarni baholash - bu keyingi tahlil qilish uchun eng ta'sirli xavf omillari tanlab olinadigan xavfni tahlil qilish tartibi. Xatarlarni samarali baholash sanoat korxonasi uchun xavflarning oqibatlarini baholaydi, ularni korxonaga maqsadlari va strategiyasi bilan bog'laydi.

4. *Risklarni boshqarish.* Risklarni boshqarish xavfga ta'sir qilishning turli usullarini va tanlangan strategiyani amalga oshirish uchun aniq choralarni o'z ichiga oladi.

5. *Faoliyatni baholash.* Yakuniy bosqich - natijalarni monitoring qilish va keyinchalik xavflarni boshqarish tizimini takomillashtirish. Amalga oshirilayotgan faoliyatni rejalashtirilgan natijalardan chetga chiqish uchun doimiy ravishda kuzatib borish kerak. Doimiy monitoring kompaniyaga o'zgaruvchan sharoitlarga tezda moslashish imkonini beradi.

Ekologik xavf omillarining quyidagi tasnifi olingan (1-jadval). Atrof-muhit omillarini darajalarga bo'lish fundamental ahamiyatga ega. Sanoat korxonasi mezo darajada mega darajadan xavflarni boshqarishga qodir

emas. Bunday holda, sanoat korxonasi xavf-xatarlarga javob berish strategiyasini ishlab chiqadi, shuning uchun korxonaning ushbu omillarga nisbatan xatti-harakati moslashtiriladi. Korxonaga to'g'ridan-to'g'ri mikro darajadagi risklarni va ichki xavflarni boshqarishga qodir. Mega va makro darajadagi xatarlarni boshqarish davlat vakolatiga kiradi, mezo darajadagi xavflar mintaqaviy hokimiyat organlarining vakolatiga kiradi.

1-jadval

Ekologik xavflarning sanoat korxonalarini boshqarishga ta'siri

		Tarkib
Sanoat korxonasiga bilvosita ta'sir etuvchi omillar	Mega darajasi	<ul style="list-style-type: none"> • Globalashuv va integratsiya; • Transmilliy korporatsiyalarning ta'siri; • Xalqaro standartlashtirish; • Ilmiy-texnika taraqqiyoti; • Xalqaro mehnat taqsimoti va boshqalar.
	Makro darajasi	<ul style="list-style-type: none"> • Siyosiy-huquqiy; • Atrof-muhitning davlat darajasidagi iqtisodiy sharoitlari; • Davlatning ekologik ustuvor yo'nalishlari; • Ijtimoiy, demografik va madaniy; • Texnologik va boshqalar.
	Mezo darajasi	<ul style="list-style-type: none"> • Infratuzilma; • Fan va ta'lim; • Iqtisodiyot sektorining ekologik xavflari; • Mintaqadagi ekologik taranglik; • Turmush darajasi; • Moliyaviy-iqtisodiy va h.k.
Sanoat korxonasiga bevosita ta'sir etuvchi omillar	Mikro daraja	<ul style="list-style-type: none"> • Yetkazib beruvchilar; • Iste'molchilar; • Raqobatchilar; • Aloqa auditoriyasi; • Sanoat korxonasining ekologik xavfsizligi darajasi; • Sanoat korxonasining ekologik javobgarlik darajasi; • Vositachilar.

Xulosa. Aytish mumkinki, sanoat korxonasining ekologik xavflarga nisbatan strategiyasini amalga oshirish umumiy sanoat korxonasi strategiyasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, butun sanoat korxonasining raqobatdosh mavqeini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Hozirgi vaqtda atrof-muhitni muhofaza qilish davlat va alohida sanoat korxonalarida oldida turgan muhim vazifaga aylanib bormoqda. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, sanoat korxonasida xavflarni boshqarish tizimini ishlab chiqishda qo'shimcha ishlab chiqishni talab qiladigan qoidalar mavjud, masalan, xavf omillarini tahlil qilish va ushbu omillarni hisobga olgan holda ekologik strategiyani ishlab chiqish algoritmi.

Xulosalardan sanoat korxonalariga ekologik xavflarning sanoat korxonasiga ta'sirini hisobga olgan holda strategiyani ishlab chiqishda uslubiy yordam va amaliy tavsiyalar sifatida foydalanish mumkin. Bu muammo rivojlanishning bir necha yo'llarini o'z ichiga oladi. Ushbu masalani keyingi o'rganish xavflarni boshqarish usullarini, chora-tadbirlarni tanlash mezonlarini batafsil ko'rib chiqish va ushbu chora-tadbirlarning samaradorligini aniqlash bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Fesselmeyer, E., & Santugini, M. (2013). Strategic exploitation of a common resource under environmental risk. *Journal of economic dynamics & control*, 37, 125-136. DOI:

2. Earnhart, H.D., Khanna, M., & Lyon, P.T. (2014). Corporate Environmental Strategies in Emerging Economies. *Review of Environmental Economics and Policy*, 8, 164-185;

3. Gressel, M.G. and Gideon, J.A. (1991), "An overview of process hazard evaluation techniques",. *American Industrial Hygiene Association Journal*, Vol. 52;

4. Earnhart, D. H.; Khanna, M.; Lyon, T. P. (2014). *Corporate Environmental Strategies in Emerging Economies. Review of Environmental Economics and Policy*, 8(2), 164–185. doi:10.1093/reep/reu001;

5. Gunkov A.G. & Kholopov, Yu.A. (2017). Environmental management as a tool to improve the economic potential of the enterprise. *Vestnik SamGUPS*, 1 (35), 80-83;

6. Kromhout H, Symanski E, Rappaport SM (1993) A comprehensive evaluation of within- and between-worker components of occupational exposure to chemicals. *Ann Occup Hyg* 37: 253±270;

7. <https://iloencyclopaedia.org/uz>

KORXONALARNING ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATIDA EKOLOGIK AUDIT

Xakimov A.L.¹

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekologik audit xalqaro standartlari va O'zbekistonda ekologik audit o'tkazishning xuquqiy asoslari, ekologik audit ob'ektlari va sub'ektlari, ekologik audit maqsadlari va ularning ishlab chiqarish faoliyatidagi mazmuni yoritilgan.

Kalit so'zlar: *ekologik ekspertiza, ekologik audit, ekotizim, ekologik audit tashkiloti, ekobarqarorlik, ekologik nazorat.*

ENVIRONMENTAL AUDIT IN THE PRODUCTION ACTIVITIES OF ENTERPRISES

¹ A.L.Хакимов, Меҳнат ва ижтимоий муносабатлар академияси, Меҳнат соҳасини бошқариш факультети декани

Annotation. This article describes the international standards of environmental audit and the legal framework for environmental audit in Uzbekistan, the objects and subjects of environmental audit, the tasks of environmental audit and their content in production activities.

Key words: environmental expertise, environmental audit, ecosystem, organization of environmental audit, environmental sustainability, environmental control.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi davrida, mamlakatimizda ekotizimlar va atrof-muhitning tabiiy holatini saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va uni qayta tiklash ishlari izchillik bilan davom ettirilmoqda. Bularning barchasi, albatta, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, jumladan, ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholi salomatligini mustahkamlash, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

O'zbekistonda ekologik audit o'tkazishning xuquqiy asoslari "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Ekologik nazorat to'g'risida"gi qonunlarning ayrim normalarida, shuningdek, Vazrlar Mahkamasining 2015 yil 8-oktabrdagi qarori bilan tasdiqlangan "Ekologik audit to'g'risida"gi nizomida belgilangan.

Ekologik audit mintaqalar iqtisodiyotining samaradorligini va rivojlanish suratlarini oshirish, uning atrof-muhitni saqlab qolish omillaridan biri hisoblanadi.

Bu quyidagilar sababli sodir bo'ladi:

-xududlar sanoatiga milliy va xorijiy investitsiyalarni amalga oshirish uchun investitsion jozibadorlikni oshirish maqsadida korxonalarining ekologik faoliyatini rag'batlantirish;

-cheklangan tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish jarayonida tejashga erishish orqali tayyor mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish;

-ekologik omilni oshirish orqali mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish;

-korxonalarining "yashil" imidjini oshirishga yordam beradigan mahsulotlarga bo'lgan talabni oshirish;

-texnologik jarayonni ko'kalamzorlashtirish va energiya tejaydigan va kam chiqindilar texnologiyalarini joriy etish;

-texnogen va ekologik ofatlarning oldini olish;

-atrof-muhitni yaxshilash, kelajak avlodlarning sog'ligini saqlash.

Xalqaro amaliyotda auditorlik tekshiruvining ijobiy natijalari korxonaning investitsion jozibadorligini oshirish, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini rejalashtirish, tejamkor texnologiyalarni tanlash,

ekologik boshqaruv tizimini to'g'ri va maqsadli tashkillashtirish imkonini yaratadi.

Ekologik auditning asosiy xususiyatlari 180 seriyali 14000 xalqaro standartlar bilan ochib berilgan:

-18014010 atrof muhitni tekshirishning umumiy tamoyillarini o'z ichiga oladi;

-KO 14011 atrof muhitni tekshiri tartibi bo'yicha xalqaro standartni ochib beradi;

-18014012 ekologik audit bo'yicha ko'rsatmalar, ekologik audit bo'yicha malaka masalalarini o'z ichiga oladi;

-18014031 tashkilotlarning ekologik faoliyatini baholashga bag'ishlangan;

Xalqaro standartlar:

-Buyuk Britaniya Standartlari Institutining Britaniya standarti BC 7755;

-Kanada standartlari assosatsiyasining CSAZ 750-94 standarti;

-Xalqaro standartlar tashkiloti tomonidan ISO 14000 seriyali 6ta xalqaro standartlar majmui qabul qilingan.

Mamlakatimizda mazkur sohadagi munosabatlarning huquqiy asoslari takomillashtirilib xalqaro standartlar asosida yangi qonunlar ishlab chiqilmoqda. 15.03.2021 yildagi «Ekologik audit to'g'risida»gi O'RQ-678-son Qonunni qabul qilindi. Ushbu qonunni ishlab chiqishdan maqsad ekologik audit sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat edi. Ushbu hujjatga muvofiq, ekologik audit ekologik auditorlik tashkiloti va ekologik audit buyurtmachisi o'rtasida tuziladigan, ekologik audit o'tkazish muddatlari va boshqa shartlari belgilanadigan shartnoma asosida o'tkaziladi.

Qonun ekologik auditning ixtiyoriy yoki majburiy shaklini belgilaydi. Tushuntirish maqsadida atrof-muhitga ta'siri past bo'lgan sub'ektlar ixtiyoriy ravishda ekologik audit o'tkazadilar. Shu bilan birga, atrof-muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan sub'ektlar uchun yillik ekologik audit majburiy talab sifatida tayinlangan.

Ekologik audit obektlari sifatida biz quyidagilarni keltirib o'tamiz:

-faoliyati atrof-muhitga ta'sir ko'rsatadigan yoki ko'rsatishi mumkin bo'lgan amaldagi korxonalar;

-ekologik audit ob'ekti o'z faoliyati jarayonida ta'sir ko'rsatadigan ob'ektlarining sanitariya-himoya muhofazasi zonasi chegaralaridagi atrof-muhit;

-atrof-muhit holatiga ta'sir qiladigan yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan iqtisodiy va boshqa faoliyat;

-ekologik audit ob'ektining xujjatlari (texnik, texnologik, operatsion va boshqalar);

-atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq boshqa ob'ektlar.

Ekologik audit sub'ektining faoliyati tegishli normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq bo'lgan taqdirda, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan bir yil davomida tekshirilmaydi. Bu esa, ekologik audit xulosasiga ega bo'lgan tadbirkorlarga qulaylik yaratadi.

Ekologik auditning asosiy maqsadi quyidagilar:

- atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi siyosat va strategiyani asoslash;

- atrof-muhitni muhofaza qilish uchun mas'ul bo'lgan ob'ektlarni ekologik boshqarish sxemasi bo'yicha tavsiyalar tayyorlash;

- atrof-muhitni muhofaza qilish uchun mas'ul bo'lgan samarali va optimallashtirilgan ob'ektlarni boshqarish sxemasini ishlab chiqish;

- ekologik faoliyatni asoslash va boshlash;

- iqtisodiy va boshqa loyihalarning ekologik jihatlarini tahlil qilish va baholash;

- ishlab chiqarish ob'ektlari va hududlarning ekologik muammolarini aniqlash;

- taqdim etilgan ekologik ta'sir hisobotlarining ishonchliligini tekshirish;

- kompaniya faoliyatini, ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni ekologik talablarga muvofiqligini tekshirish;

- ishlab chiqarishni monitoring qilish va nazorat qilish tizimining ekologik talablarga muvofiqligini baholash;

- xodimlarning malaka darajasini baholash;

- atrof-muhitni boshqarish xarajatlarini mustaqil baholash.

Ekologik audit ixtiyoriy yoki majburiy shaklda o'tkazilishi mumkin. Atrof-muhitga ta'sir ko'rsatish xavfi kam bo'lgan yoki unchalik kam bo'lmagan ekologik audit sub'ektlarining faoliyatiga nisbatan ekologik audit ixtiyoriy tartibda o'tkaziladi.

Qonunga ko'ra, ekologik auditorlik tashkilotlari o'z faoliyatini amalga oshirish chog'ida mustaqil hisoblanadi. Ekologik audit o'tkazish yakunlari bo'yicha ekologik audit xulosasi maxfiy hujjat bo'lib, ekologik audit buyurtmachisining roziligisiz oshkor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Auditorlik faoliyatini amalga oshirishda quyidagi hollarda ekologik audit o'tkazish taqiqlanadi:

1) ekologik audit mijozlarining auditorlik tashkiloti, uning ta'sisчилari, ishtirokчилari, kreditorlari yoki ekologik auditning mijozlari, ularning

asoschisi, ishtirokchisi, kreditori ushbu ekologik audit tashkiloti hisoblanadi;

2) tekshirilayotgan korxonalar rahbarining yaqin qarindoshlari (otalar, onalar, turmush o'rtog'lar, aka-uka, opa-singillar, bolalar, shuningdek aka-uka, opa-singillar, ota-onalar va er-xotinning farzandlari) bo'lgan ekologik auditorlar, shuningdek ustav kapitalining o'n foizidan ko'prog'iga ega bo'lgan ta'sischi yoki ishtirokchi tekshirilayotgan shaxs;

3) tekshirilayotgan shaxsning shaxsiy mulkiy manfaatlariga ega bo'lgan xodimlari, ishtirokchilari, mansabdor shaxslari orasidan ekologik auditorlar;

Qonun ekologik auditorlik faoliyatni tartibga solish bo'yicha xalqaro tajribani inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Xususan, bir qator xorijiy davlatlarda (Germaniya, Avstriya, Ispaniya, Niderlandiya, Kanada, Janubiy Koreya, Ukraina, Estoniya, Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va boshqalar) ekologik audit masalalari maxsus qonunlar bilan tartibga solingan.

Ekologik auditorlik tashkilotlari har qanday tashkiliy-huquqiy shaklda tuzilishi va o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin, bundan aksiyadorlik jamiyati mustasno. Ular davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tashkil etilishi mumkin emas. Ularga ushbu ekologik auditorlik tashkiloti o'zi uchun asosiy ish joyi bo'lgan ekologik auditori rahbar bo'lishi mumkin.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari, shuningdek qonunchilikka muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi taqiqlangan boshqa shaxslar ekologik auditorlik tashkilotlarining muassislari bo'lishi mumkin emas.

Xulosa. Rivojlangan davlatlar qonunchiligini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, zaruriy huquqiy bazaning, xususan ixtisoslashgan yaxlit qonunning yo'qligi ekologik audit xizmatini joriy etishda muayyan muammolarni keltirib chiqaradi.

Ekologik audit atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar siyosatining ajralmas qismi bo'lib, o'zini-o'zi boshqarishining muhim elementi ham hisoblanadi.

Ekologik audit institutining ustuvor tatbiq etilishi esa tabiat musaffoligi yo'lida xizmat qiladi.

ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Рахимова Д.К¹

Аннотация: В статье представлен комплексный анализ правовых механизмов, направленных на обеспечение экологической безопасности и устойчивого развития в Республике Узбекистан. Исследуются теоретико-правовые основы экологической безопасности и концепция устойчивого развития, а также их взаимосвязь. Особое внимание уделяется анализу действующего законодательства Узбекистана в ключевых сферах охраны окружающей среды, включая правовое регулирование водных, земельных и воздушных ресурсов, обращения с отходами производства и потребления, а также сохранения биоразнообразия. В работе выявляются основные проблемы и недостатки существующих правовых механизмов, рассматривается международный опыт в данной области и предлагаются пути совершенствования национального законодательства с учетом принципов устойчивого развития и "зеленой экономики".

Ключевые слова: Экологическая безопасность, устойчивое развитие, экологическое право, правовые механизмы, охрана окружающей среды, водные ресурсы, земельные ресурсы, атмосферный воздух, отходы, биоразнообразие, изменение климата, общественное участие, законодательство, международный опыт.

O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK XAVFSIZLIK VA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASH UCHUN HUQUQIY MEKANIZMLAR

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasida ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlar muhim jihatlari kompleks tahlil qilinadi. Ilk navbatda ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanishning nazariy-huquqiy asoslari hamda ularning o'zaro bog'liqligi o'rganiladi. Shuningdek, suv, yer va havo resurslarining himoyasi, ishlab chiqarish va iste'moldan chiqadigan chiqindilarni boshqarish, biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha O'zbekistonning amaldagi qonunlari tahlil qilinadi. Maqolada mavjud huquqiy mexanizmlarda aniqlangan asosiy muammolar va kamchiliklar ko'rsatilib, xalqaro tajribaga tayanib, milliy qonunchilikni takomillashtirish yo'llari va "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini qonunchilik darajasiga integratsiya qilish bo'yicha takliflar kiritilgan.

Kalit so'zlar. ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish, ekologik huquq, huquqiy mexanizmlar, atrof-muhit muhofazasi, suv resurslari, yer resurslari, havodagi ifloslanish, chiqindilar, biologik xilma-xillik, iqlim o'zgarishi, jamoatchilik ishtiroki, qonunchilik, xalqaro tajriba.

¹ Студентка 104-группы по направлению «юриспруденции» Академии труда и социальных отношений

Экологическое безопасное и устойчивое развитие являются одним из самых ключевых приоритетов мирового сообщества в XXI веке. Усиливающееся антропогенное воздействие на окружающую среду, проявляющиеся в изменении климата, истощении природных ресурсов, загрязнении атмосферного воздуха и водных объектов, утрате биоразнообразия, представляет серьезную угрозу для благополучия нынешнего и будущих поколений.

Республика Узбекистан, расположенная в регионе Центральной Азии, сталкивается с целым рядом специфических экологических проблем, обусловленных как природно-климатическими условиями (аридность климата, дефицит водных ресурсов), так и последствиями интенсивной хозяйственной деятельности (опустыивание, засоление почв, загрязнение промышленными выбросами и отходами).

Устойчивое развитие страны, обеспечение высокого качества жизни населения и сохранение уникальной природной среды неразрывно связаны эффективностью правового регулирования в экологической сфере.

В настоящее время в Узбекистане действуют более 30 законодательных и около 200 подзаконных актов в области экологии, охраны окружающей среды и рационального использования природных ресурсов. В их числе - законы Республики Узбекистан «Об охране природы», «Об охране атмосферного воздуха», «О воде и водопользовании», «Об охране и использовании растительного мира», «Об охране и использовании животного мира», «О лесе», «Об охраняемых природных территориях», «О недрах», «Об отходах», «Об экологической экспертизе», «Об экологическом контроле», «Об экологическом аудите» «Об использовании возобновляемых источников энергии», «О санитарно-эпидемиологическом благополучии населения», Земельный кодекс Республики Узбекистан и другие.

Это наглядно показывает, что экологическое законодательство страны охватывает множество вопросов соответствующей деятельности, регламентации системы государственных органов, распределение функций и полномочий между ними, сохранение биологического разнообразия и обеспечение доступа к информации, применение экономических механизмов. Более того, в ряде законодательных актов введены нормы, защищающие экологические права граждан и развивающие экологическую демократию.

Отметим, что одними из элементов экологической политики нового Узбекистана выступают существенное улучшение качества

окружающей среды на территориях с повышенной степенью риска для здоровья человека и стабилизация экосистем.

На сегодня один из основных документов страны в сфере экологии - Концепция охраны окружающей среды Республики Узбекистан до 2030 года, утвержденная соответствующим Указом Президента страны от 30 октября 2019 года. Согласно документу, внедрены комплексный подход и принципы стратегического планирования при осуществлении функций государства в сфере охраны окружающей среды, а также наделен необходимыми полномочиями природоохранный орган для эффективного выполнения поставленных задач.

Реализация Концепции определила приоритетные направления государственной политики в области охраны окружающей среды, использования эффективных механизмов профилактики, выявления и пресечения нарушений природоохранного законодательства, усиления персональной ответственности руководителей государственных органов и хозяйствующих субъектов, граждан за санитарное и экологическое состояние населенных пунктов республики, а также достижения Национальных целей и задач в области устойчивого развития на период до 2030 года.

Поддерживая программу устойчивого развития, было заявлено, что необходимо проводить комплексную работу по трем направлениям устойчивого развития (экономическое, экологическое и социальное). Согласно этому, инвестирование 2% мирового ВВП для «озеленении» экономики обеспечит текущие и будущие долгосрочные темпы роста в период с 2011 по 2050 год, а также предотвратит серьезные риски, связанные с изменением климата, увеличением дефицита воды и потерей экосистемных услуг.

«Зеленая» экономика основана на экономии энергии и ресурсов, сокращении выбросов углерода в атмосферу, транспорте с использованием экологически чистой энергии, альтернативных источниках энергии, органическом сельском хозяйстве, экодевелопменте (строительстве с низким воздействием на окружающую среду), развитой логистике.

Анализ существующих правовых механизмов и выявление путей их оптимизации является важной задачей для обеспечения экологической безопасности государства.

Концепция устойчивого развития предполагает интеграцию экологических, экономических и социальных аспектов. Правовые механизмы играют ключевую роль в обеспечении этой интеграции, устанавливая баланс между потребностями развития и

необходимостью сохранения окружающей среды для будущих поколений.

Использованные литературы

1. <https://www.unep.org/ru>
2. <https://ecochem.uz/ru/> Национальный доклад о состоянии окружающей среды Республика Узбекистан
3. <http://uzembassy.org.tr/> Экологическая составляющая Стратегии нового Узбекистана
4. Ибрагимова, С., & Абдулазизов, Ф. (2025). Новый Узбекистан и основные направления развития «зелёной» экономики. *Talqin va tadqiqotlar*, (1(59)). <https://inlibrary.uz/index.php/interpretation-research/article/view/78845>
5. <https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/>. Повестка дня в области устойчивого развития на период до 2030 год. 14.03.2023 г.

MAMLAKATIMIZDA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHGA OID ISLOHOTLAR

Karimova Sh.Sh.¹

Annotatsiya. Ushbu tezisda Markaziy Osiyo mintaqasi global ekologik xavf-xatarlar mavjudligi va kuchayib borish tendensiyalari kuzatilayotgan asosiy inqiroz markazlari biri ekanligi, shundan kelib chiqqan holda bugungi kunda mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga oid qilinayotgan amaliy ishlar hamda islohotlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ekologiya, ekologik xavfsizlik, huquqiy mexanizm, ekologik muammo.

REFORMS AIMED AT ENSURING ENVIRONMENTAL SAFETY IN OUR COUNTRY

Abstract. This paper examines the fact that the Central Asian region is one of the main crisis centers where global environmental risks and increasing trends are observed. Based on this, the practical measures and reforms being implemented in our country today to ensure environmental safety are reviewed.

Key words: ecology, environmental safety, legal mechanism, environmental problem.

Xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlash barcha xalqlar, millatlar va davlatlarning diqqat-e'tiborida turgan muammolardan biridir. Mavjud xavf ko'lamining ortishi, kengayishi, xavf-xatarlarning yangi turlarini paydo bo'lishi insoniyatning unga bo'lgan qarashlarini o'zgartirayotgani ayni haqiqat. Aksariyat hollarda insoniyat o'zi uchun

¹ Karimova Sh.Sh, Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

qulay yashash sharoitini yaratish asnosida yangi xavf turlarini paydo bo'lishiga zamin yaratmoqda. Ekologik xavf-xatarlar ham aynan inson omili natijasida paydo bo'lgan va yildan yilga kuchayib borayotgan hodisadir. Shu bois, ekologik xavfsizlik masalasi global xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida ilmiy manbalarda muntazam aks etmoqda. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov ekologik xavfsizlik muammosiga quyidagicha e'tibor qaratgan: –Milliy xavfsizlikka qarshi yashirin tahdidlarni ko'rib chiqar ekanmiz, ekologik xavfsizlik va atrof muhitni muhofaza qilish muammosi alohida e'tiborga molikdir. Ochiq e'tirof etish kerakki, uzoq yillar mobaynida eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida bu muammo bilan jiddiy shug'ullanilmagan. Aniqrog'i, bu muammo ayrim jonkuyar olimlar uchungina tadqiqot manbai, o'z mamlakatlarining kelajagiga, tabiiy boyliklari saqlanib qolishiga befarq qaramagan, bu haqda qattiq tashvish chekkan odamlarning esa «qalb nidosi» bo'lib kelgan.[4, -B. 100].

Ayni davrga kelib ekologik xavfsizlik masalasi yer sayyorasining barcha mintaqalarini qamrab olgan bo'lib, uni hal etishga qaratilgan chaqiriqlar, munozaralar, matbuotda, davriy nashrlarda, turli rasmiy anjuman va xalqaro masshtabdagi hukumatlararo uchrashuvlar, xalqaro tashkilotlarning kun tartibidagi muntazam ko'rib kelinmoqda. Yangi tashkil etilayotgan xalqaro va mintaqaviy ekologik tuzilmalar, siyosiy partiyalar va harakatlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, muntazamlik kasb etib borayotgan xalqaro anjumanlarni kuzatib shunday xulosaga kelish mumkinki, hir bir mintaqada o'z muammolari doirasida ekologik xavfsizlikka e'tibor qaratishi kelajakni ta'minlashning asosiy kafolatidir.

O'zbekiston Respublikasida ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalalari ham alohida ahamiyat kasb etib, boshqa mintaqalarga nisbatan ustuvor xarakterga ega. Buni quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

Birinchiidan, Markaziy Osiyo mintaqasi global ekologik xavf-xatarlar mavjudligi va kuchayib borish tendensiyalari kuzatilayotgan asosiy inqiroz markazlaridan hisoblanadi. Ichimlik suvi tanqisligi, cho'llanish, transchegaraviy daryolar o'zanining pasayishi va boshqa bir qator omillar sabab mazkur hudud alohida e'tiborni talab qiladi;

Ikkinchiidan, Orolbo'yi hududidagi vaziyatni hozirgi holatida saqlab qolish, uni yanada chuqurlashib ketishini oldini olish, Orol inqirozining oqibatlarini muayyan darajada bartaraf etish vazifalarini bajarishni taqozo etadi;

Uchinchiidan, mintaqadagi og'ir ekologik holatga xalqaro darajadagi ekspertlarning e'tiborini qaratish, xalqaro tashkilotlar, ekologik muassasalarning yig'ilishlarida mavjud muammolarning u yoki bu

tomonga o'zgarishi haqida aniq ma'lumotlarni taqdim etish hamda xalqaro ko'mak imkoniyatlarini ko'rib chiqish zaruratini oshiradi;

To'rtinchidan, aholining ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ta'lim va tarbiyani ta'limning barcha bosqichlariga kiritish, umummilliy ekologik siyosatni ishlab chiqish va mazkur jarayonda fuqarolar faolligini oshirishning ilmiy-texnik, ijtimoiy-ma'naviy, iqtisodiy-siyosiy yo'nalishlarini belgilash va sohaga doir islohotlarni izchil davom ettirishni o'zi ichiga oladi.

Jahonda ekologik xavfsizlikni ta'minlashning ehtiyoji ortib borayotgan hozirgi sharoitda har bir mamlakat o'zining ichki resurslarini mazkur masalaga qaratishi birlamchi vazifa hisoblanadi. O'z navbatida, mamlakatlarning atrof-muhit masalalariga yo'naltirilgan konstruktiv siyosati birinchi navbatda mamlakatning jahon hamjamiyatidagi nufuzi oshishiga xizmat qilsa, ikkinchi navbatda mintaqaning ekologik barqaror va xavfsiz bo'lishini ta'minlaydi. Bu borada Yangi O'zbekistonning ekologik siyosati va unda olib borilayotgan islohotlar soha rivojini ta'minlashga xizmat qiladi.

Muayyan davlatda ekologik xavfsizlikni ta'minlash o'sha davlatning xalqaro maydondagi nufuzini belgilash bilan bir qatorda ichki ijtimoiy-siyosiy muhit barqarorligini ta'minlovchi vositadir. Mazkur faoliyatni to'laqonli amalga oshirish esa bir qator jihatlarni o'zida jamlaydi. Rossiyalik tadqiqotchi V. Kazakovaning ta'kidlashiga ko'ra bunday jihatlarga quyidagilar kiradi: —Yagona ekologik doktrinani ishlab chiqish va barcha darajadagi ekologlar va menejerlar faoliyati, ekologik ta'lim va aholi o'rtasida ekologik ongni shakllantirish tamoyillari quyidagi umuminsoniy qadriyatlarni o'z ichiga olishi kerak: 1) xolislik, 2) professionallik; 3) malaka, 4) milliylik, 5) insonparvarlik, 6) aql-idrok, 7) vatanparvarlik, 8) ilmiylik, 9) adolat, 10) uzoqni ko'ra bilish, 11) konstruktivlik, 12) yangilik|| [5, - C.17].

Darhaqiqat, har bir davlatning muayyan sohani rivojlantirish borasida konseptual vazifalar aniqlangan va ko'rsatib berilgan doktrinal siyosati mavjud bo'lishi zarur. Ma'lumki, qaysi davlatda u yoki bu soha taraqqiy etgan bo'lsa u birinchi o'rinda boshqa rivojlangan sohalarning bir elementidir. Boshqacha aytganda, hech bir soha bir-biridan ajralgan holda o'zi alohida rivojlana olmaydi. Ya'ni bir sohaning rivoji jamiyatdagi boshqa sohalarning taraqqiyotiga yo'l ochadi. Demak, ekologik xavfsizlikni ta'minlash ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-mafkuraviy, madaniy-ma'rifiy va boshqa qator sohalarning takomili asosida shakllanadi va rivojlanadi. Shu bilan birga, mamlakatda yaxlit ekologik siyosatni shakllantirish umumiy iqtisodiy- siyosiy tizimning hamma yo'nalishlarini qamrab olishi talab etiladi.

Aytish kerakki, ekologik xavfsizlikka daxldor davlat siyosati amaldagi qonunchilikni takomillashtirish bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu yo'nalishda davlatimiz rahbari Sh Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan takliflar, tashabbuslar muntazamlik kasb etib, xalqaro forumlarda, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlardagi ma'ruzalarida o'z aksini topmoqda. Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasida qilgan barcha ma'ruzalarida hal etilishi lozim bo'lgan qator masalalar qatorida atrof-muhit muhofazasiga qaratilgan chaqiriqlar yuqori o'rinni egallaydi. Jumladan, Bosh Assambleyaning 72, 75 va 78 sessiyalarida tadqiqotimiz markazidagi mavzu dunyo jamoatchiligi e'tiboriga havola qilingan. Unda Markaziy Osiyodagi og'ir iqlim sharoitini yaxshilash, Orolbo'yi hududidagi ekologik inqiroz oqibatlarini bartaraf etish borasida konseptual fikrlar bayon qilingan. Shunday fikrlardan biri quyidagi jumalarni o'z ichiga olgan: "Biz Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi, deb e'lon qilish haqida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining maxsus rezolyusiyasini qabul qilishni taklif etamiz. Ushbu muhim hujjat tasdiqlangan sanani esa Xalqaro ekologik tizimlarni himoya qilish va tiklash kuni sifatida nishonlash maqsadga muvofiq bo'lardi" [3].

Ma'lumki, davlat rahbarining O'zbekiston xalqiga muayyan yil yakunlari va yangi yil uchun tuziladigan rejalar va dasturlarni o'zida aks ettiruvchi murojaatnoma yo'llashi an'anaga aylanib ulgurdi. Har yilgi murojaatnomalarning tadrijiy bosqichlarini kuzatib shuni anglash mumkinki, islohotlarning muhim yo'nalishi sifatida atrof-muhit muhofazasi alohida o'rinni egallaydi. Jumladan, 2020-yil 24- yanvar kuni O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalalariga bo'lgan e'tiborning yuqori darajasini ko'rish mumkin.

«Taraqqiyot strategiyasi» xodimi Sh.Ergashevning ta'kidlashicha, —O'zbekistonning ekologik xavfsizlik sohasida olib borayotgan siyosati respublika taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident Sh.Mirziyoyevning Murojaatnomasida e'tirof etilgan hozirgi paytga tabiatga nisbatan bo'layotgan antropogen va texnogen ta'sirlar sharoitida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida olib borilayotgan chora-tadbirlar nafaqat respublikada, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida ekologik vaziyatni yanada yaxshilashga xizmat qiladi|| [6].

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, xalqaro minbarlarda chiqish, aniq va manzilli taklif-tashabbuslarni ilgari surish bilan bir qatorda mamlakatning ichki infratuzilmasini yaxshilashga doir qonunchilikni takomillashtirish hamda amaliy faoliyatda joriy etish ham masalaning

tizimli yechimini ta'minlaydi. Shu bois, qonunchilik va ijro organlarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini muvofiqlashtirish har qachongidan ham muhim. Asosiy qonunimiz hisoblangan O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi davrning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib qayta to'ldirilganligi ma'lum. 2023-yil 30-aprel kuni umumxalq ovoz berish yo'li bilan yangilangan Konstitutsiyada fuqarolarning ekologik huquq va majburiyatlari qayta belgilangan bo'lib, bosh qonunning 49-moddasida quyidagi qoidalar belgilab qo'yilgan: —Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi. Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi|| [1].

Mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalalari boshqa huquqiy manbalarda ham o'z aksini topgan. Bu borada qabul qilingan ikki muhim hujjat -

—Atrof-muhitni muhofaza qilish|| va —Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyalari|| mamlakatimizning nafaqat xalqaro maydondagi faolligi balki, ichki islohotlar jarayonida ham tizimli ishlar olib borilayotganligini ko'rsatuvchi jihatdir.

Keltirilgan yo'nalishlar atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi ta'sirchan chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish qisqa muddatlar ichida ekologik tanglikni bartaraf etish, mamlakatimiz aholisi uchun ekologik xavf-xatarlardan xoli mintaqada yashash uchun zarur shart-sharoitlarni taqdim etadi hamda ekologik jihatdan barqaror muhit yaratish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: —Ўзбекистон||. 2023.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. —Экологик хавфсизлик тўғрисидаги умумий техник регламентни тасдиқлаш ҳақида||. <https://lex.uz/docs/4739971>
3. Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқи. <https://www.xabar.uz/jamiyat/sessiyadagi-nutq>
4. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т.: Ўзбекистон, 1997.-100 б.

5. Казакова В.Б. Экологическая безопасность в условиях трансформации российского общества. Автореферат диссертации кандидата социологических наук. – М.:2004. С.17.

6. Иргашев Шухрат. Экологик хавфсизлик жамиятнинг барқарор ривожланиши омили сифатида. <https://strategy.uz/index.php?news=811>

V sho'ba. AHOLINI IJTIMOIIY EKOLOGIK MUHOFAZA QILISHDA TA'LIM VA TARBIYANING ROLI

«УМНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ» – КАК СПОСОБ ИННОВАЦИОННОГО ЭКОЛОГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

Нигматов А.Н.¹

Аннотация. В статье раскрывается сущность «умного образования» для инновационного экологического развития человека. Предложена оригинальная методика проведения занятий, учитывающая активизации педагогов и учеников с целью рационального использования образовательных ресурсов. Определены факторы снижения умственных способностей детей, влияющие на эффективность экологического образования.

Ключевые слова: актуальность, подготовка, кадры, экология, педагог, ученик, интеллект, инновация, «умное образование», семья, деятельность.

“AQILLI TA'LIM” – INNOVATSION EKOLOGIK RIVOJLANISH VOSITASI SIFATIDA

Annotatsiya. Maqolada insonning ekologik rivojlanishi uchun “aqlli ta'lim”ning mohiyati ochib berilgan. Ta'lim resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida o'qituvchilar va talabalarni faollashtirishni hisobga olgan holda darslarni o'tkazishning o'ziga xos metodikasi taklif etilgan. Ekologik ta'lim samaradorligiga ta'sir etuvchi bolalarning aqliy qobiliyatlarini susayish omillari aniqlanadi.

Kalit so'zlar¹ dolzarblik, tayyorgarlik, kadrlar, ekologiya, o'qituvchi, talaba, razvedka, innovatsiya, "aqlli ta'lim", oila, faoliyat.

Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев в своём обращении к Парламенту и народу страны 22 декабря 2017 года особо отметил, что мы не обращали до сих пор должного внимания подготовке талантливой молодёжи достойной наших Великих мыслителей-учёных таких как: Аль Хоразми, Аль Бируни, Ибн Сино, которые являются решающим, главным стратегическим и интеллектуальным богатством в инновационном развитии республики [1]. Для того, чтобы подготовить подобных нашим Великим предкам молодёжь необходимо с помощью «Умного образования» разработать комплексную долгосрочную программу и дорожную карту развития интеллектуальных способностей и их эффективного использования для инновационного прогресса. По

¹ Нигматов Аскар Нигматуллаевич. Заведующий кафедрой Общепрофессиональных дисциплин Академии труда и социальных отношений, д.г.н., профессор. E-mail: nigmatov_an@mail.ru.

данным ООН, более 33% или 2,5 млрд. населения планеты страдает от недостаточного интеллектуального развития (среди них около 160 миллионов детей) в связи с наличием скрытого голода, т.е. недостатком микроэлементов – Ca, Mg, Fe, I аминокислот и витаминов [2]. Результат – низкая способность к обучению, науке и бизнесу.

Для интеллектуального развития человека минимальная потребительская корзина должна быть индивидуальна для каждого индивида (особенно, ребёнка) чтобы сокращать скрытый голод. «Умное здоровое образование» открытая система и его эффективность более чем на 50% зависит от таких внешних факторов как «Иновационная семья» (семейная школа «родители-наставники»), «Умное здравоохранение» (метод улучшения здоровья, развития интеллекта и памяти), «Умственная физкультура», «Умное воспитание», «Умная махалля», «Умное предпринимательство» и др. В таких методах образования и воспитания оценивается IQ (*коэффициентом интеллекта*) – это уровень способности человека к обучению и разработке эффективных методов реализации инновационных экологических идей [3].

При организации «Умного образования» педагог должен выполнять роль менеджера в занятии по курсам экологии, т.е. не ограничиваться дачей знаний, а служить организатором самостоятельного обучения. В этом случае он улавливает компетентность ученика и развивает креативность его экологического мышления.

«Умное образование» также учитывает следующие мотивированные элементы экологического маркетинга и менеджмента:

Первое, в условиях рыночной экономики педагог в процессе обучения должен находить сотни лингвистических, стилистических, теоретических, методологических, практических недостатков в национальной и зарубежной учебной литературе по экологии. Именно такому педагогу, нужно дать возможность написания учебной литературы по экологическим дисциплинам.

Второе, до занятий педагог раздаёт ученикам электронные версии лекций с пояснением – кто больше всех самостоятельно усвоит новую тему по экологии, найдёт больше всех недостатков и обоснует их правильность на дискуссиях в группе, тот и получит самую высокую оценку.

Третье, педагог более половины академического часа должен уделять на организацию дискуссий и самостоятельному усвоению урока по экологии, а в конце урока делать заключение, дать ответы

на нерешённые вопросы и обучать их эффективной реализации в повседневной жизни. При таком подходе к методике обучения усвояемость урока повышается до 80%, в 2-3 раза сокращаются аудиторные занятия и соответственно расходы, связанные с ними (*Европейская модель*). Ученики приспособляются к данной эколого-педагогической модели путём нахождения как минимум 7 недостатков, предложения по их устранению и улучшения качества преподавания. В этом случае чаще обновляется действующая учебная литература по экологии и методика преподавания.

«Умное образование» должно способствовать обучению командной работы для получения эффективного использования новой экологической модели «предложил – выиграл» от роста качества производства (вместо конкуренции), интеграции знаний, опыта и финансовых средств [4].

Факторы и процессы отрицательно влияющие на «Умное образование» в инновационной экологии [5,6,7,8]:

- ✓ *плохое качество окружающей природной среды;*
- ✓ *увеличение наследственных заболеваний;*
- ✓ *создание молодых семей с наследственными заболеваниями без предварительного лечения;*
- ✓ *увеличение скрытого голода из-за дефицита микроэлементов, аминокислот и витаминов;*
- ✓ *плохое снабжение мозга кислородом, водой и энергией, заболеваний связанные с увеличением холестерина в сосудах мозга;*
- ✓ *депрессии, плохой сон и хронические запоры;*
- ✓ *хроническое нарушение энергобаланса и перерасход энергии за счёт тяжелого изнурительного труда и спорта («принцип черепахи»);*
- ✓ *неправильный подбор вида и нормы занятия спортом, т.е. недостаточное использование 200 видов интеллектуальной физкультуры для мозга;*
- ✓ *избыточное потребление алкоголя и курение;*
- ✓ *отсутствие опыта эффективного использования 7 видов памяти и 7 принципов их развития и тренировки;*
- ✓ *недостаток в использовании дополнительного образования по развитию способностей и логики мышления;*
- ✓ *отсутствие методов и стимулов обучения эффективному использованию знаний для благополучия семьи и общества;*
- ✓ *отсутствие инновационного воспитания для развития любви к технике и технологиям, высокой духовности;*

✓ *малое инвестирования в «капитал мозга», чем в «человеческий капитал».*

Чтобы воспитать такое интеллектуально развитое поколение, нужно перейти от модели «Здоровая мать – здоровый ребёнок» к модели «Здоровая среда – умный и здоровый ребёнок» и с помощью врачей каждый год развивать на 7-8% интеллектуальные способности детей, а с помощью педагогов обучать их эффективному использованию.

В каждой «Умной семье» ежедневно родители должны выделять время для:

- *содержания благополучной окружающей среды*
- *постоянного улучшения здоровья и наследственности на 20-30%;*
- *совершенствования памяти и скорости мышления на 50%;*
- *передачи своего опыта и профессионального знания;*
- *ознакомление с экологическими проблемами, возникающими ежедневно в их повседневной жизни, чтобы дети не повторяли их ошибки;*
- *постоянный обмен знаниями в семье для их эффективного использования;*
- *требований от педагогов по использованию передаваемых знаний и механизма их реализации в жизни, чтобы быть успешным и богатым.*

Таким образом, факторы роста интеллекта IQ должны быть направлены на повышение усвояемости урока по экологии и эффективности использования «капитала мозга», как основного источника инновационного экологического прогресса.

Использованная литература

1. Обращение Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева к Парламенту страны от 22 декабря 2017 года. <https://www.gazeta.uz/ru/2017/12/22/speech>.
2. Грин С. Сила мозга. Супертренинг за 4 недели // Серия «Психология. Мозговой штурм» – Москва: «Эксмо», 2012.– С. 26-28.
3. Айзенк Г. IQ – супертесты. 320 задач на интеллект и скорость мышления.– Москва: «Эксмо», 2011. – 208 с.
4. Кавашима Р. Японская система развития интеллекта и памяти. Программа «60 дней». – С.-Петербург: «Питер», 2016. – С.126-138.
5. Аибасов Е., Кисбеков Н.. Магнитные эффекты в химии мозга, Казахстан – США, Калифорния, 2016. – С. 45-78.
6. Букин Д. Развитие памяти по методикам спецслужб.–Москва:«Эмпатика», 2014.–265 с.
7. Кови С.Р. Семь навыков высокоэффективных людей.– Москва, 2006.-С.15-18.

8. A way to improve brain function has been revealed // J. «Nature Communicationhttps» // lenta.ru/news/2024/03/04/fiber/

O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING MILLIY XUSUSIYATLARI

Adilov B.U¹

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ishda ekologik ta'lim va tarbiyaning aholi orasida ekologik madaniyatni rivojlantirish, ekologik savodxonlikni oshirish va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Mazkur ishda ta'lim va tarbiya orqali yosh avlodga ekologik bilimlarni yetkazish, ularni tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga o'rgatish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Ekologik madaniyat, ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, milliy xususiyat.

NATIONAL CHARACTERISTICS OF FORMING ENVIRONMENTAL CULTURE IN UZBEKISTAN

Abstract. This scientific work highlights the role of environmental education and upbringing in fostering environmental culture among the population, enhancing environmental literacy, and shaping social responsibility. The study provides practical recommendations for imparting environmental knowledge to the younger generation through education and upbringing, teaching them to treat nature with care, and ensuring environmental safety.

Key words: environmental culture, environmental education, environmental upbringing, national characteristics.

O'zbekistonda ijtimoiy ekologik madaniyatni shakllantirishning milliy xususiyatlariga ekologik ta'lim va tarbiya milliy an'ana va qadriyatlarga asoslanishidir. Oila, ta'lim muassasalari va jamoatchilik orqali ekologik ong shakllantiriladi.

Mahalla va oila institutlari ekologik madaniyatni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi [1]. Maktablarda "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish" darslari o'tiladi, bu darslar nazariy va amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarga atrof-muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik xavfsizlikka oid bilimlarni o'rgatadi [2,3]. Shuningdek, maktablarda ekologik klublar tashkil etilib, o'quvchilarni amaliy ekologik faoliyatga jalb qilish yo'lga qo'yilgan.

¹Adilov Bobir Utkirovich, "Eurasia Alliance Tex" QK MChJ ijrochi direktori, bobiradilov@gmail.com.

Yoshlarni ekologik tadbirlar va ko'ngilli loyihalarga jalb qilish amaliyoti mavjud. Maktablarda ekologik klublar, universitetlarda ekologik jamoalar faoliyat ko'rsatadi. O'quvchilar va talabalarga ekologik festival, tanlovlar va ko'rgazmalar orqali ekologik ongni oshirish imkoniyati beriladi. Shuningdek, ekologik idoralar va tabiatni muhofaza qilish jamiyatlari hamkorligida ekologik aksiyalar va tadbirlari muntazam tashkil etiladi.

Ota-onalar farzandlariga atrof-muhitni asrash, suv va elektrni tejash, chiqindilarni qayta ishlash, o'simlik va hayvonot dunyosini himoya qilish, tabiatga zarar yetkazmaslik kabi ko'nikmalarni o'rgatadi. Shuningdek, oila a'zolari birgalikda ekologik tadbirlarda ishtirok etishi, oilaviy ekologik ma'rifat darslari o'tkazishi mumkin.

Mahalliy ekologik tashkilotlar va tabiatni muhofaza qilish jamiyatlari yoshlarni ekologik ma'rifat bilan ta'minlaydi. Ular ekologik treninglar, seminarlar, ekologik aksiyalar va tozalash tadbirlarini tashkil etadi. Yoshlarni tabiatni asrashga, chiqindilarni to'g'ri ajratishga, suv va energiyani tejashga o'rgatadi. Shuningdek, ekologik ko'ngillilarni tayyorlash va ularga amaliy tajriba berish orqali ekologik ongni shakllantirishga xizmat qiladi.

Diniy qadriyatlar orqali tabiatga hurmat, hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilish g'oyalari singdiriladi. Masalan, Islom dini tabiatni asrash, suvni isrof qilmaslik, hayvonot va o'simliklarga zarar yetkazmaslikni targ'ib qiladi. Diniy tadbirlarda va masjidlarda ekologik ma'rifat va tabiatni muhofaza qilish bo'yicha ma'ruzalar o'tkazilishi, yoshlarni tabiatga hurmat ruhida tarbiyalashga ko'mak beradi. Shuningdek, diniy bayramlar va marosimlar davomida tabiatni asrash va ekologik ongni oshirishga oid aksiyalar uyushtirilishi mumkin.

Ekologik ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirish uchun quyidagi usullar qo'llaniladi:

innovatsion pedagogik texnologiyalar: interfaol ta'lim usullari, gamifikatsiya (o'yinlar orqali o'qitish), virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari (VR/AR) orqali ekologik tushunchalarni singdirish, ekologik trening va simulyatsiyalar orqali amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, ekologik kvest va loyiha asosidagi ta'lim, mobil ilovalar orqali ekologik bilimlarni mustahkamlash, ekologik o'quv resurslari uchun sun'iy intellekt va raqamli yordamchilardan foydalanish;

raqamli platformalar va onlayn ta'lim: ekologik ma'lumotlar va kurslar uchun maxsus veb-saytlar, mobil ilovalar, virtual laboratoriyalar va ekologik o'yinlar, ekologik masofaviy ta'lim dasturlari, ekologik ma'lumotlarni tarqatish uchun ijtimoiy tarmoqlar, onlayn ekologik sertifikatlashtirish, ekologik vebinarlar va onlayn treninglar, sun'iy

intellekt yordamida ekologik maslahat beruvchi tizimlar, ekologik tajribalarni raqamli video darslar orqali uzatish, interaktiv o'quv platformalar, ekologik bilimlarni baholash uchun onlayn testlar, ekologik ma'lumotlar bazasi va foydalanuvchilar uchun shaxsiy profil tizimi;

ekologik loyihalar va tadbirlar: yoshlarni ekologik aksiyalar, ko'chat ekish kampaniyalari, chiqindilarni qayta ishlash aksiyalari va ekologik tozalash tadbirlariga jalb qilish. Yoshlar orasida ekologik ma'rifatni oshirish maqsadida ekologik loyihalar tanlovlari, ta'lim muassasalari va universitetlar o'rtasida ekologik startaplar, ekologik forumlar tashkil etish. Ekologik tadqiqotlar va loyihalar orqali yoshlar amaliy ekologik bilim va ko'nikmalarni rivojlantiradilar;

o'quvchilar va talabalar uchun ekologik tanlovlar va olimpiadalar: maktab va universitetlar darajasida ekologik bilimlarni baholash va rag'batlantirish. Bu tanlovlar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham baholashga qaratilgan. Ekologik loyiha tanlovlari, ekologik ma'ruza tanlovlari, shuningdek, ekologik muammolarni hal qilish orqali yoshlarning ekologik fikrlash qobiliyati rivojlantiriladi. G'oliblarga sertifikatlar, diplomlar va ekologik loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlari beriladi;

multimedia va video materiallar: ekologik mavzularda ma'ruza va darslar, ekologik hujjatli filmlar va ekologik multfilmlar orqali ekologik ongini rivojlantirish. Shuningdek, ekologik video bloglar, ekologik animatsiyalar, virtual sayohatlar, interaktiv ekologik video kurslar, ekologik vebinarlar va jonli translatsiyalar orqali ham ekologik bilimlarni kengaytirish mumkin. Multimedia materiallari yoshlar va kattalar uchun ekologik ma'lumotlarni qiziqarli va tushunarli shaklda taqdim etadi;

ekologik kuzatuv va monitoring: o'quvchilar va talabalarni tabiatni kuzatish, biologik xilma-xillikni o'rganish va ekologik xavf-xatarlarni baholashga jalb qilish. Kuzatuv jarayonida o'quvchilar atmosfera, suv, tuproq va o'simliklarni kuzatish, zararli moddalarning miqdorini aniqlash, ekologik xavfsizlikni baholash, hududiy ekologik xaritalar yaratish, ekologik tadqiqotlarni olib borish va olingan natijalarni tahlil qilish kabi faoliyatlarda ishtirok etadilar. Shuningdek, monitoring natijalari bo'yicha ekologik hisob-kitoblar va hisobotlar tayyorlash ko'nikmasi ham rivojlantiriladi;

oila va jamoatchilik ishtiroki: ota-onalar va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlikda ekologik tadbirlar tashkil etish va ekologik bilimlarni tarqatish. Oila a'zolari birgalikda ekologik aksiyalarda ishtirok etishi, bog' va gulzorlar yaratishi, chiqindilarni ajratish, suv va energiyani tejash kabi odatlarni singdirishi mumkin. Jamoatchilik ekologik tanlovlar, tozalash tadbirlari, ekologik ekskursiyalar va treninglar tashkil etib, aholining

ekologik ongini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mahalla faollari va jamoat tashkilotlari yoshlarni ekologik ko'ngillilik faoliyatiga jalb etib, ularga amaliy ekologik ko'nikmalar beradi.

Ushbu jarayonning muhimligining asosiy jihatlari quyidagida namoyon bo'ladi:

1. Ekologik bilimlarni o'zlashtirish:

Ta'lim: Maktablar, o'rta maxsus o'quv yurtlari va oliy ta'lim muassasalarida ekologiya asoslari, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish tamoyillari bo'yicha bilimlar beriladi;

Tarbiya: Oila, jamiyat va turli tashkilotlar orqali shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirishga yordam beradi.

2. Ekologik madaniyatni rivojlantirish:

ta'lim va tarbiya orqali jamiyatda ekologik mas'uliyat va madaniyat shakllanadi, bu esa odamlarning atrof-muhitga munosabatini o'zgartiradi;

ekologik madaniyatga ega insonlar tabiatni asrash, ifloslanishni kamaytirish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishga intiladi.

3. Ekologik savodxonlikni oshirish:

ta'lim jarayonida aholiga ekologik muammolar va ularning echimlari to'g'risida keng ma'lumotlar beriladi;

media, kitoblar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa axborot manbalari orqali aholining ekologik savodxonligi oshiriladi.

4. Ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish:

har bir shaxs o'zining atrof-muhitga ta'sirini tushunadi va ekologik xavfsizlikka hissa qo'shishga intiladi;

jamiyat ekologik mas'uliyatni ta'minlash uchun jamoaviy aksiyalar, ekofestival va boshqa tadbirlarni tashkil etadi.

5. Ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirish:

ta'lim tizimi orqali yosh avlod ekologik innovatsiyalarga qiziqishni rivojlantiradi.

ekologik loyiha va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash orqali aholi ekologik ongini yuksaltiradi.

6. Davlat va jamiyat hamkorligi:

davlat va nodavlat tashkilotlar ta'lim va tarbiya orqali aholiga ekologik xavfsizlikni ta'minlashda ko'mak beradi;

milliy va xalqaro dasturlar yordamida ekologik ta'lim va tarbiya tizimi takomillashtiriladi.

Xulosa. Aholini ekologiya sohasida xabardorligi ta'lim va tarbiyaning hal qiluvchi ahamiyatiga ega bo'lib, jamiyatda ekologik madaniyatni rivojlantirish va atrof-muhitni asrashga doir ongli munosabatni shakllantiradi. Ushbu jarayon orqali aholining ekologik bilim va

ko'nikmalari oshirilib, ularning ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish masalalariga nisbatan mas'uliyat hissi kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.05.2019 yildagi 434-son "O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. Elektron manbaga murojaat sanasi 08.05.2025 y. <https://lex.uz/ru/docs/-4354743?ONDATE=28.05.2019&action=compare>.

2. Yu. Shodimetov. Ekologik ta'lim va tarbiya. O'quv-uslubiy majmua. O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi mintaqaviy markaz, "Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar bo'yicha)". 2021 y. Elektron manbaga murojaat sanasi 08.05.2025 y. <https://lib.bimm.uz/items/7551>.

3. M. Komilova. Ekologik ta'lim – ekomadaniyatni shakllantirishda muhim omil. O'zbekiston Milliy axborot agentligi (O'zA). 2024 y. Elektron manbaga murojaat sanasi 08.05.2025 <https://uza.uz/oz/posts/ekologik-talim-ekomadaniyatni-shakllantirishda-muhim-omil-562846>.

XORAZM VOHASINING O'ZBEKISTON QISMIDA QURG'OQCHILIK XAVFIGA MOSLASHISHNING GEOEKOLOGIK CHORA-TADBIRLARI

Matchanov M.J.¹, Ibragimov O.A.², Matchanov O.J.³

Annotasiya. Maqolada Xorazm vohasi misolida ekologik xavfsizlikni belgilovchi omillardan biri bo'lgan qurg'oqchilikni dinamik o'zgarishlarini zamonaviy geofazoviy usullar orqali baholashning metodologik asoslari ko'rsatib o'tilgan. Olingan natijalar esa ushbu ekologik inqirozli hududda aholini ijtimoiy muhafaza qilish uchun ushbu sharoitga moslashishning geoeologik chora-tadbirlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm vohasi, ekologik xavfsizlik, qurg'oqchilik, geofazoviy usullar, baholash, aholi, muhofaza, moslashish.

ГЕОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ МЕРЫ АДАПТАЦИИ К ОПУСТЫНОВАНИЮ В УЗБЕКСКОЙ ЧАСТИ ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА

Аннотация. В статье, на примере Хорезмского оазиса, приводятся методологические основы современной оперативной оценки динамики одного из факторов геоэкологической безопасности территории – опустынивания с

¹ Matchanov Muzaffar Jumanazarovich. Urganch davlat universiteti. Geodeziya, cartografiya, geografiya kafedrasida dotsenti, g.f.d.

² Ibragimov Orifjon Alimhamatovich. "O'zdavyerloyiha" davlat ilmiy-loyihalash instituti mustqil izlanuvchisi, g.f.f.d. (PhD).

³ Matchanov Otabek Jumanazarovich. Urganch davlat universiteti. Geodeziya, cartografiya, geografiya kafedrasida dotsenti, g.f.f.d. (PhD).


использованием ГИС технологий. Эти результаты позволили предложить геоэкологические меры адаптации населения для их социальной защиты.

Ключевые слова: Хорезмский оазис, экологическая безопасность, опустынивание, ГИС методы, оценка, население, охрана, адаптация.

Qurg'oqchilik – geotizimlarda odatdagi iqlimiy, gidrografik rejimning tabiiy yoki antropogen ravishda buzilishi oqibatida namlikning asta-sekin, ba'zan favqulodda yuzaga keladigan yetishmaslik hodisasidir. Bugungi kunda tadqiqotchilar tomonidan uning quyidagi keng tarqalgan turlari ajratib ko'rsatiladi: meteorologik, qishloq xo'jalik va gidrologik qurg'oqchiliklar [1,2]. Ba'zan uning ijtimoiy-iqtisodiy, ayrim adabiyotlarda antropogen, ekologik turlari ham borligi haqida fikrlar uchraydi [3].

Qurg'oqchilik boshqa xavf-xatarlardan farqli ravishda inson salomatligi va hayot faoliyatiga jiddiy zarar berishi, suv resurslari taqchilligiga olib kelishi, geotizimlar vazifalarining o'zgarishi yoki buzilishi hamda boshqa bir qancha salbiy tomonlari bilan ajralib turadi [4,5,6]. Uning oqibatida ocharchilik, turli xil yuqumli kasalliklarning tarqalishi, cho'llashish, biologik xilma-xillikning yo'qolishi, tuproq unumdorlik xususiyatining pasayishi va boshqalar sodir bo'lishi mumkin. Qurg'oqchilikni o'rganishda tahlillar uchun ma'lumotlarning mavjudligi, qo'llaniladigan geofazoviy texnologiyalarning turlari, mahalliy sharoitlarning murakkabligi kabi masalalarga alohida e'tibor berish zarur. Bundan tashqari, qurg'oqchilikning davriy va fazoviy xususiyatlari hamda davomiyligi ham uni o'rganishda murakkabliklarni yuzaga keltiradi [7,8]. Tadqiqotchilarning fikricha, qurg'oqchilikning kelib chiqishi, oqibatlari va unga tayyorgarlik ko'rish hamda oldini olish masalalari turli geotizimlarda turlicha ahamiyat kasb etadi [9]. Shularni ibotaga olgan holda Xorazm vohasida qurg'oqchilik xavfi geografik baholandi va quyidagi murakkab hududiy xususiyatlarni namoyon qiluvchi qurg'oqchilikka nisbatan ekologik xavfsizlik darajalari aniqlandi (1-rasm).

Xorazm vohasida qurg'oqchilik 1960-yillardan, ya'ni Orol dengiziga quyiluvchi Amudaryo suvining kamayishi bilan boshlangan va bugungi kunda kritik holatga yetib keldi. Ammo, o'tgan shu davr ichida vohada



1-rasm. Xorazm vohasida qurg'oqchilikka nisbatan xavfsizlik darajalari kartalari

qurg'oqchilikka tayyorgarlik, moslashish va uning oldini olishga oid ilmiy asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqilmagan. Ushbu masalaning zarurati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.08.2023-yildagi "Iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlar xavfiga nisbatan milliy harakatlar rejasini ishlab chiqish hamda samarali amalga oshirishni tashkil etish to'g'risida"gi qarorining 1-bob, 6-bo'limida ham keltirilgan. Qarorning umumiy mazmuni va 4-bob, 49-bo'limida "qurg'oqchilik sabablari va oqibatlarini bartaraf etish choralari va qurg'oqchilik xavfini yumshatish bo'yicha tadbirlarni muvofiqlashtirib borish" haqidagi ko'rsatmalari mazkur masala bo'yicha ilmiy asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqishni talab qiladi. Shularni inobatga olgan holda, olib borilgan tahlillar vohaning qurg'oqchilikka nisbatan xavfsizlik holatidan kelib chiqib unga tayyorgarlik ko'rish, moslashish va xavfni kamaytirishga oid geoeologik chora-tadbirlari ishlab chiqildi (1-jadval). Uni tayyorlashda barqaror rivojlanish konsepsiyasining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik kabi tayanch yo'nalishlari inobatga olindi. Vohada qurg'oqchilikka qarshi kurash ishlarini olib borishning huquqiy va iqtisodiy asoslari davlat darajasida yechim topadigan masaladir. Ishda masalaning huquqiy va iqtisodiy jihatlariga oid chora-tadbirlar ham tavsiya qilindi.

1-jadval

Xorazm vohasida qurg'oqchilikka tayyorgarlik, moslashish va xavfni kamaytirishga oid geoeologik chora-tadbirlar

<i>T/r</i>	<i>Xavf darajasi</i>	<i>Chora-tadbirlar</i>	<i>Amalga oshirish mexanizmi</i>	<i>Ijro muddati</i>	<i>Mas'ul ijrochilar</i>
I. Qurg'oqchilikka tayyorgarlik, moslashish va xavfini kamaytirishning geografik-huquqiy masalalari					
1.	Xavfsiz	1. Ekin dalalarida tuproqning ball bonitetidan kelib chiqqan tarzda fermer xo'jaliklari bilan faqat strategik oziq-ovqat ekinlari ekish. 2. Yerdan foydalanishning qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lmagan turlarini, jumladan, aholi turar joylari, sanoat va savdo obyektlari va boshqalarni qurilishiga taqiq qo'yish. 3. Amalga oshirilgan	1. Fermerlar bilan xavfsiz hududlardagi dala maydonlariga strategik oziq-ovqat ekinlarini ekish bo'yicha shartnomalar tuziladi. 2. Hududdagi aholi orasida tushuntirish ishlari olib boriladi, uchuvchisiz uchish qurilmalari asosida muntazam monitoring tashkil qilinadi. 3. Hokimliklar va tegishli ochiq ma'lumotlar portallariga ma'lumotlar joylanadi, televideniya chiqishlar qilinadi.	Muntazam	Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston a.r. adliya bo'limlari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi tegishli bo'limlari, hokimliklar.

		masalalarni rasmiy portallarda xalq nazoratiga ochiq muhokamaga qo'yish.			
2.	Xavfli	1. Hudud iqlimiga mos mevali bog'lar yaratish va ularni tomchilatib sug'orish. 2. Vertikal o'sishga asoslangan noqishloq xo'jalik faoliyati; aholi manzilgohlari, sanoat va savdo hududlarini tashkil etish. 3. Ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilma obyektlarini tashkil qilish va zilzilabardoshligini ta'minlash.	1. Fermerlar bilan xavfli hududlardagi dala maydonlarida tomchilatib sug'orishga asoslangan mevali bog'larni tashkil etish bo'yicha shartnomalar tuziladi. 2. Aholi orasida tushuntirish ishlari olib boriladi, uchuvchisiz uchish qurilmalari asosida muntazam monitoring tashkil qilinadi, tegishli farmon, yo'riqnoma va ko'rsatmalar ishlab chiqiladi. 3. Zilzilabardoshlik talablariga mosligi nazorat qilinadi.	Muntazam	
3.	O'rta-xavfli	1. Ilmiy asoslangan chorvachilik faoliyatini olib borish. 2. Dehqonchilikni ikkilamchi va yer osti suvlari evaziga tashkil qilish.	1. Fermerlar, tadbirkorlar va aholi bilan tegishli turdagi chorvachilikni tashkil etish bo'yicha shartnomalar tuziladi. 2. Asosiy ekinlarini ikkilamchi va yer osti suvlaridan foydalanib yetishtirishga oid shartnomalar tuziladi.	Muntazam	Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston a.r. adliya bo'limlari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi tegishli bo'limlari, hokimliklar.
4.	Yuqori-xavfli	1. Ekologik muvozanatni saqlab qolish, turlar xavfsizligini ta'minlash. 2. Qurg'oqchilikka chidamli mevali va manzarali daraxtzorlarni tashkil qilish.	1. Ilmiy xulosalar asosida me'yoriy-huquqiy hujjatlar amaliyotga tatbiq qilinadi, aholi orasida tushuntirish ishlari olib boriladi. 2. Jiyda, o'rik kabi mahalliy sharoitga moslashgan daraxtzorlarni yaratish ishlarni rag'batlantirish tartibi ishlab chiqiladi.	Muntazam	Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston a.r. adliya bo'limlari, hududdagi oliy ta'lim muassasalari, hokimliklar.
5.	Juda yuqori xavfli	1. Cho'llashishga qarshi kurash, tayyorgarlik ko'rish va moslashish.	1. Ilmiy asoslangan chora-tadbirlar amaliyotga tatbiq qilinadi.	2026 yilgacha	
II. Qurg'oqchilikka tayyorgarlik, moslashish va xavfini kamaytirishni iqtisodiy geografik masalalari					
1.	Xavfsiz	1. Strategik oziq-ovqat ekinlari ekish, yetishtirish va saqlashni moliyalashtirish.	1. Zarur o'g'it, moddiy texnik yordam va texnologiyalar bilan ta'minlanadi.	Muntazam	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qishloq

					xo'jaligi vazirligi va ularning tegishli bo'limlari
2.	Xavfli	1.Hudud iqlimiga mos mevali bog'lar yaratish va ularni tomchilatib sug'orishni moliyalashtirish. 2. Qurg'oqchilik haqida oldindan ogohlantirish tizimini ishlab chiqish.	1. Zarur o'g'it, moddiy texnik yordam va texnologiyalar bilan ta'minlanadi. 2. Ilmiy loyihalar e'lon qilinadi, tadqiqot natijalari amaliyotga tatbiq qilinadi.	Muntazam 2025-2028 yillar	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi va ularning tegishli bo'limlari, hududdagi OTMlar
3.	O'rta-xavfli	1.Ilmiy asoslangan chorvachilik faoliyatini moliyalashtirish. 2. Ikkilamchi va yer osti suvlariga asoslangan dehqonchilikni moliyalashtirish.	1.1 Ilmiy loyihalar e'lon qilinadi. 1. 2 Tadqiqotlar xulosa va tavsiyalari bo'yicha zarur moddiy texnik yordam va texnologiya bilan ta'minlanadi. 2. Zarur o'g'it, moddiy texnik yordam va texnologiyalar bilan ta'minlanadi.	Muntazam	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi va ularning tegishli bo'limlari, hududiy OTMlar
4.	Yuqori-xavfli	1.Ekologik muvozanatni saqlab qolish, turlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha uzoq muddatli ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirish. 2. Tabiiy sharoitga mos buta va daraxtzorlar yaratishni moliyalashtirish.	1 Ilmiy loyihalar e'lon qilinadi, tadqiqot natijalari amaliyotga tatbiq qilinadi. 2. Nodavlat va davlat tashkilotlari mablag'lari asosida aholi, fermerlar va xohlovchilarning tashabbus va faoliyatlari asosida yashil zonalar yaratiladi.	2025-2035 yillar	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi va ularning tegishli bo'limlari, hududiy OTMlar
5.	Juda yuqori xavfli	1.Cho'llashishga qarshi kurash, tayyorgarlik va moslashish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirish.	1. Nodavlat va davlat tashkilotlari mablag'lari asosida ilmiy loyihalar e'lon qilinadi, tadqiqot natijalari amaliyotga tatbiq qilinadi.	2025-2035 yillar	Iqtisodiyot va moliya hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirliklari, mahalliy hokimliklar
III. Qurg'oqchilikka tayyorgarlik, moslashish va xavfini kamaytirishni ijtimoiy geografik masalalari					
1.	Xavfsiz	1. Aholini uy-joyga bo'lgan talablarini shakllantirish.	1. Aholini uy-joyga bo'lgan ehtiyoji boshqa hududlar hisobiga qondiriladi.	Muntazam	Iqtisodiyot va moliya hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirliklari, mahalliy hokimliklar
2.	Xavfli	1.Mehnatga haq to'lashda imtiyozlar joriy qilish.	1. Xavfli hududda yashovchi aholi ro'yxati shakllantiriladi, xavfsizlik darajalariga mos rag'batlantirish tartibi ishlab chiqiladi.	Muntazam	
3.	O'rta-xavfli	1. Mehnatga haq to'lashda imtiyozlar joriy qilish.	1. O'rta-xavfli yashovchi aholi ro'yxati shakllantiriladi, xavfsizlik darajalariga mos rag'batlantirish tartibi ishlab	Muntazam	

		2. Aholi nafaqa tizimida imtiyozlar yaratish.	chiqiladi. 2. Boshqa hududlarga nisbatan erta nafaqaga chiqish tartibi joriy qilinadi.		
4.	Yuqori-xavfli, juda yuqori xavfli	1. Aholini ixtiyoriy bosqichma-bosqich ko'chirish.	1. Respublikaning ekologik sharoit yaxshi bo'lgan hududlariga ko'chirish bo'yicha: - Tushuntirish ishlari olib boriladi. - Ixtiyoriy ko'chirish rejasi ishlab chiqiladi. - Yangi turar-joylar quriladi va ish o'rinlari yaratiladi.	2030 yilgacha	Iqtisodiyot va moliya hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirliklari, mahalliy hokimliklar
IV. Qurg'oqchilikka tayyorgarlik, moslashish va xavfini kamaytirishni tabiiy geografik va ekologik masalalari					
1.	Xavfsiz	1. Almashlab ekishning ilmiy asoslangan tartibini ishlab chiqish. 2. Tuproq unumdorligini monitoring qilish.	1.1 Tuproq unumdorligini saqlashga oid ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi. 1.2 Xorijiy innovatsion dehqonchilik tajribalari joriy qilinadi. 2. Geofazoviy texnologiyalarga asoslangan monitoring yuritiladi.	Muntazam	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarish, Iqtisodiyot va moliya vazirliklari, Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston a.r. adliya bo'limlari, hududiy OTMLar, hokimliklar.
2.	Xavfli	1. Bog'dorchilikka xorijiy innovatsion dehqonchilik tajribalarini joriy qilish. 2. Qurg'oqchilik bo'yicha oldindan ogohlantirish tizimini ishlab chiqish. 3. Iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmalarni oqilona joylashtirish.	1. Ilmiy asoslangan tajribalar o'rganiladi va olib boriladi. 2. Ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi. 3. Aholi manzilgohlari, xizmat ko'rsatish muassasalarini to'g'ri joylashtirish bo'yicha geofazoviy tadqiqotlar olib boriladi.	Muntazam 2027 yilgacha	
3.	O'rta-xavfli	1. Yaylovlar va o'tloqlar barqarorligi hamda mahsuldorligini ta'minlash. 2. Mahsuldor va intensiv chorvachilikni yuritish.	1. Ilmiy asoslangan tajribalar o'rganiladi va olib boriladi. 2.1 Biologik va geofazoviy ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi. 2.2 Chorvachilikni davriy-hududiy tashkil qilishga oid geofazoviy tadqiqotlar tashkil qilinadi.	Muntazam	
4.	Yuqori-xavfli	1. Geoekologik muvozanatni saqlab qolish, turlar xavfsizligini ta'minlash.	1. OTMLarda maqsadli yo'nalishlarda ilmiy mavzular shakllantiriladi va tadqiqotlar olib boriladi. 2. Geofazoviy monitoring tashkil qilinadi.	2027 yilgacha	
5.	Juda yuqori xavfli	1. Cho'llashishga qarshi kurash, tayyorgarlik va moslashish bo'yicha uzoq muddatli geofazoviy ilmiy	1. OTMLarda geofazoviy tadqiqot markazlari ochiladi, unda: - Maqsadli ilmiy tadqiqotlar olib boriladi.	2027 yilgacha	

	tadqiqotlar olib borish.	- Masofadan olingan ma'lumotlar asosida doimiy monitoring yuritiladi.	Qoraqalpog'iston a.r. adliya bo'limlari, hududiy OTMLar, hokimliklar.
--	--------------------------	---	---

Vohada qurg'oqchilik xavfiga tayyorgarlik ko'rish ishlarida, qishloq xo'jaligi va aholiga nisbatan xavf darajasini kamaytirish muhim ahamiyatga ega. O'sib borayotgan aholi ehtiyojlari, jumladan, ularni uy-joy va oziq-ovqat kabilar bilan ta'minlash masalalari xavfsizlik darajalarini inobatga olgan holda hal qilinishi maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga voha miqyosida turli xavfsizlik darajalari mavjud hududlarda yashovchi, mehnat qiluvchi aholi uchun alohida imtiyozlarni joriy qilish qurg'oqchilikka moslashishning asosiy masalalaridan hisoblanadi. Jumladan, aholini uy-joyga bo'lgan talablarini shakllantirish, mehnatga haq to'lashda imtiyozlar joriy qilish, aholi nafaqa tizimida imtiyozlar yaratish, ularni ixtiyoriy bosqichma-bosqich ko'chirish va boshqalar. Buning uchun tushuntirish ishlari olib boriladi, ixtiyoriy ko'chirish rejasi ishlab chiqiladi, yangi turar-joylar qurish va ish o'rinlari yaratish taklif qilinadi. Vohada tabiiy geografik vaziyatning keyingi keskinlashish holatining oldini olish va mavjud vaziyatni barqarorlashtirish maqsadida maxsus geoeologik, agroekologik va geofazoviy tadqiqotlarni doimiy ravishda tashkil etish, moliyalashtirish hamda olib borish zarur. O'tkazilgan kuzatishlar, dala tadqiqotlari va olingan xulosalarga ko'ra qurg'oqchilikka nisbatan chora-tadbirlarni xavfsizlik darajalariga mos hududlar uchun alohida bo'lishi talab qilinadi. Masalan, hozirgi holatdan kelib chiqsak, qurg'oqchilik haqida oldindan ogohlantirish tizimi xavfli hududlarda eng samarali ta'sir ko'rsatadi. Xavfsiz hudud uchun bu tizimning samaradorligi past bo'lishi mumkin. Umuman olganda qurg'oqchilikka nisbatan chora-tadbirlarni doimiy ilmiy tadqiqot ishlari asosida yangilanib, shakllanayotgan vaziyatga moslashtirib, rivojlantirib borish tavsiya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Parisa H., Bert V.S., Piet T., Hossein T. Identical hierarchy of physical drought types for climate change signals and uncertainty // Weather and Climate Extremes, Volume 41. – 2023. – P. 1-11, <https://doi.org/10.1016/j.wace.2023.100573>
2. Xudong Ch., Fangyu T., Yun S. How did the late 1920s drought affect northern Chinese society? // Weather and Climate Extremes, Volume 36. – 2022. –P. 1-13, <https://doi.org/10.1016/j.wace.2022.100451>

3. Wilhite D.A., Glantz M.H. Understanding the Drought Phenomenon: The Role of Definitions // Water International, 10(3). – 1985.–P. 111-120.
4. Chen X., Tian F., Su Y. How did the late 1920s drought affect northern Chinese society? // Weather and Climate Extremes, Volume 36. – 2022. –P. 1-13, <https://doi.org/10.1016/j.wace.2022.100451>.
5. Lloyd-Hughes B. The impracticality of a universal drought definition // Theoretical and Applied Climatology, 117(3-4). – 2014. –P. 607-611, <https://doi.org/10.1007/s00704-013-1025-7>
6. Shah D., Mishra V. Integrated Drought Index (IDI) for drought monitoring and assessment in India // Water Resources Research, 56. e2019WR026284. – 2020. –P. 1-22, <https://doi.org/10.1029/2019WR026284>
7. Wu J., Zhou L., Liu M., Zhang J., Leng S., Diao C. Establishing and Assessing the Integrated Surface Drought Index (ISDI) for Agricultural Drought Monitoring in Mid-Eastern China // Int. J. Appl. Earth Obs. Geoinf., Vol. 23. -2013. –P. 397-410.
8. Xie F., Xinhui X., Xingyu Zh. Research on spatial and temporal characteristics of drought based on GIS using Remote Sensing Big Data // Cluster Computing 19, 2. – 2016. –P. 757–767, <https://doi.org/10.1007/s10586-016-0556-yu>
9. Hao Z., Yuan X., Xia Y., Hao F., Singh V.P. An Overview of Drought Monitoring and Prediction Systems at

ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОХРАНЫ ТРУДА В УЗБЕКИСТАНЕ: НОРМАТИВНО-ПРАВОВОЙ И ПРОФСОЮЗНЫЙ ПОДХОД

Исомиддинова Р.Б¹

Аннотация. В статье рассматриваются теоретико-правовые аспекты взаимосвязи экологического и трудового права в контексте законодательства Республики Узбекистан. Особое внимание уделено экологической безопасности как элементу охраны труда, а также роли профсоюзов в обеспечении прав работников на безопасные и экологически благоприятные условия труда. Анализируются положения Трудового кодекса, закона «Об охране труда» и других нормативных актов, отражающих интеграцию экологических требований в сферу трудовых отношений. Автор делает вывод о необходимости дальнейшего совершенствования нормативной базы и усиления участия профсоюзных организаций в вопросах экологической защиты работников.

Ключевые слова. Экологическая безопасность, охрана труда, трудовое право, профсоюзы, Республика Узбекистан, право на благоприятную окружающую среду, условия труда, трудовое законодательство, устойчивое развитие, права работников.

¹ Исомиддинова Робияхон Бурхониддиновна, Студентка Академии труда и социальных отношений, isomiddinovarobiya@gmail.com

O'ZBEKISTONDA MEHNATNI MUHOFAZA QILISHNING EKOLOGIK JIHATLARI: NORMATIV-HUQUQIY VA KASABA UYUSHMALARI YONDASHUVI

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ekologik va mehnat huquqining o'zaro bog'liqligining nazariy-huquqiy jihatlari ko'rib chiqiladi. Ekologik xavfsizlik mehnatni muhofaza qilishning muhim elementi sifatida alohida e'tibor qaratiladi, shuningdek, xodimlarning xavfsiz va ekologik jihatdan qulay mehnat sharoitlariga bo'lgan huquqlarini ta'minlashda kasaba uyushmalarining roli tahlil qilinadi. Mehnat kodeksi, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlardagi ekologik talablarni mehnat munosabatlariga integratsiyalashuvni aks ettiruvchi qoidalar tahlil qilinadi. Muallif normativ bazani yanada takomillashtirish va xodimlarni ekologik himoya qilish masalalarida kasaba uyushmalari tashkilotlarining ishtirokini kuchaytirish zarurligi to'g'risida xulosa chiqaradi.

Kalit so'zlar: ekologik xavfsizlik, mehnatni muhofaza qilish, mehnat huquqi, kasaba uyushmalari, O'zbekiston Respublikasi, qulay atrof-muhit huquqi, mehnat sharoitlari, mehnat qonunchiligi, barqaror rivojlanish, xodimlar huquqlari.

В условиях современного промышленного производства вопросы охраны труда и экологической безопасности становятся неотъемлемой частью трудовых отношений. В Республике Узбекистан законодательство в сфере труда активно интегрирует экологические аспекты, обеспечивая защиту здоровья работников и сохранение окружающей среды. Особое значение в этом контексте приобретают профсоюзы, играющие ключевую роль в реализации экологической безопасности на рабочих местах.

Экологическая безопасность как элемент охраны труда. Согласно Закону Республики Узбекистан «Об охране труда», охрана труда представляет собой систему мероприятий, направленных на обеспечение безопасности, сохранение здоровья и работоспособности человека в процессе труда. Эта система включает в себя санитарно-гигиенические, технические, организационные и экологические меры, обеспечивающие безопасные условия труда. Особое внимание уделяется экологической безопасности, что подтверждается положениями о систематическом контроле за состоянием окружающей среды на рабочих местах и обязательной аттестации рабочих мест на соответствие экологическим стандартам new.tradeunionict.uz Норма

Роль профсоюзов в обеспечении экологической безопасности. Профсоюзы в Республике Узбекистан обладают широкими полномочиями в области охраны труда и экологической безопасности. В соответствии с Трудовым кодексом, профсоюзы

вправе участвовать в формировании государственных программ по вопросам охраны труда и окружающей природной среды, а также в разработке нормативно-правовых актов, регламентирующих эти вопросы. Они также имеют право на общественный контроль за соблюдением работодателями требований охраны труда и экологической безопасности, включая право требовать устранения выявленных нарушений.

Федерация профсоюзов Узбекистана активно участвует в законотворческом процессе, внося предложения по улучшению законодательства в области охраны труда и экологии. Она также организует обучение и повышение квалификации работников в сфере экологической безопасности, проводит мониторинг состояния окружающей среды на рабочих местах и оказывает юридическую помощь в защите прав работников, пострадавших от экологически неблагоприятных условий труда.

Конституционные и законодательные гарантии экологической безопасности труда. Конституция Республики Узбекистан гарантирует каждому гражданину право на благоприятную окружающую среду и на защиту от экологически неблагоприятных воздействий. Эти конституционные нормы нашли свое отражение в законодательстве о труде, где предусмотрены меры по обеспечению экологической безопасности на рабочих местах, включая обязательную аттестацию рабочих мест, контроль за состоянием окружающей среды и обязательное страхование работников от профессиональных заболеваний и несчастных случаев. Конституция Узбекистана

Заключение. Интеграция экологической безопасности в сферу трудового права Республики Узбекистан является важным шагом на пути к устойчивому развитию и социальной ответственности. Профсоюзы играют ключевую роль в реализации экологической безопасности на рабочих местах, обеспечивая защиту прав работников и содействуя улучшению условий труда. Дальнейшее совершенствование законодательства и активное участие профсоюзов в его реализации способствуют созданию безопасной и экологически чистой рабочей среды для всех граждан страны.

Список литературы

1. Закон Республики Узбекистан «Об охране труда»
2. Трудовой кодекс Республики Узбекистан
3. Конституция Республики Узбекистан

Федерация профсоюзов Узбекистана: история и современность

EKOLOGIYA VA TABIATNI MUHOFAZA QILISHDA JAMIYAT VA INSONIYATNING ROLI

Savriddinov A.A¹, Jo'raqulov M.F²

Annotatsiya. Ushbu maqola bugungi kundagi juda dolzarb hisoblangan ekologiya tushunchasi va uni muhofaza qilish zarurati haqida batafsil so'z yuritib, so'ngi yillarda yurtimizda bu bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va qabul qilingan qarorlar orqali asosiy fikrni tasdiqlaydi. Shuningdek, tabiat va sanoat korxonalarining bir-biri bilan o'zaro aloqadorligi haqida ham ma'lumot keltirilib o'tilgan. Maqola mazmuni haqida qisqa qilib fikr yutitadigan bo'lsak ekologiya va tabiatni muhofaza qilishda jamiyat va insoniyatning roli o'rganiladi. Ekologik muammolar global darajada yuz berayotgan zamonda, har bir inson va jamiyat ushbu jarayonda muhim ahamiyatga ega. Maqola tabiatni asrashga qaratilgan turli tashabbuslar, jamiyatning ekologik ongini oshirish, hamda davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar muhimligini yoritadi. Shuningdek, ekologik ta'lim, rejalashtirish va barqaror rivojlanishning o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. O'qib chiqish natijasida, har bir inson va jamiyatning tabiiy resurslarni muhofaza qilishdagi mas'uliyati va ahamiyati anglanadi. Maqola, o'quvchilarga ekologik muammolarni hal qilish yo'lida aktiv ishtirok etish, tabiat va atrof-muhitni asrab qolish yo'nalishida mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga chaqiradi.

Kalit so'zlar: tabiiy resurslar, ekologik nazorat, ekologiya, atrof-muhit muhofazasi, sanoat, jismoniy va yuridik shaxs, tabiiy fanlar.

THE ROLE OF SOCIETY AND HUMANITY IN ECOLOGY AND NATURE CONSERVATION

Abstract. This article elaborates on the concept of ecology, which is considered highly relevant today, and the necessity of its conservation, substantiating the main idea through the work carried out and decisions made in our country in recent years. It also provides information on the interconnection between nature and industrial enterprises. In brief, the article examines the role of society and humanity in ecology and nature conservation. In an era where ecological problems are occurring on a global scale, every individual and society holds significant importance in this process. The article highlights the importance of various initiatives aimed at protecting nature, raising societal environmental awareness, and projects implemented by state and non-governmental organizations. Additionally, the interconnectedness of environmental education, planning, and sustainable development is analyzed. Upon reading, the responsibility and significance of every individual and society in conserving natural resources become clear. The article calls on readers to actively participate in

¹ Savriddinov Akbarali Abrorovich, Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi Umumkasbiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi, akbarali2020@inbox.ru

² Jo'raqulov Murod Fozilovich, Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi Umumkasbiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi, 102-24 guruh talabasi

addressing environmental issues and to foster a responsible attitude toward preserving nature and the environment.

Key words: natural resources, environmental control, ecology, environmental protection, industry, individuals and legal entities, natural sciences.

Bugungi raqamli texnologiyalari rivojlangan bir davrda, butun dunyodagi ekologik holat ko'pchilikni birdek bezovta qilmoqda. Ekologik halokat ko'z o'ngimizda dahshatli tus olmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish va mavjud tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Mavjud ekologik inqirozlarning sababchisi va o'z aqli zakovati bilan shu inqirozdan xoli etuvchisi ham inson ekanligi kun o'tgan sayin ma'lum bo'lib bormoqda. Atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash, tabiiy boyliklardan tejab-tergab foydalanish ko'p jihatdan insonlar qaysi jamiyatda yashashidan qat'iy nazar insonlarning ekologik savodxonlik darajasiga va ekologik madaniyatiga bog'liq bo'lib qolmoqda. So'ngi yillarda yurtimizdagi ekologik muammolarni hal qilish uchun aholining ekologik savodxonligini oshirish eng ustuvor vazifalardan biri sifatida qarashimiz mumkin. Ayniqsa, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari» fanini o'qitish muhim ahamiyatga ega. Ekologiya – tirik organizmlarning o'zaro maqsadi hamda ular yashayotgan tashqi muhit bilan aloqasi va tirik organizmlar tizimidagi turli-tuman bog'lanishlarni o'rgatadigan fan hisoblanadi. Bu fan biologiya kabi fanlarning tarkibiy bo'lagi bo'lishi bilan bir qatorda, kimyo, fizika, geologiya, o'rmonchilik, dehqonchilik, tuproqshunoslik, matematika hamda boshqa aniq va tabiiy fanlar bilan chambarchas bog'liqdir. Birinchi bo'lib “ekologiya” atamasini nemis olimi E.Gekkel fanga kiritgan, bu atama tirik dunyoning o'zini o'rab turgan muhit bilan o'zaro bog'liqligini o'rgatadi.

Zamonaviy hayotda insoniyat uchun bundan zarur yoki ekologiyani, ekologik ong va tushunchani kundalik hayot tarziga singdirishdan ko'ra muhimroq ish yo'qdir. Ekologik ongni ekologik ta'lim va tarbiya, ma'lumotlar, insonlardagi ekologik ta'lim orqali qayta qurish, uning hayot tarzini va ma'naviyatini o'zgartirish zarur. Ayni paytda insonlar ongida ekologik qonunlarga bo'ysunmaslik, tabiatga shunchaki nazar bilan qarash tasavvurlari singib ketgan. Insonlarning tabiatga bo'lgan loqayd munosabatlari natijasida global isish va iqlim o'zgarishi, cho'llanish, Orol dengizining qurib borishi kabi muammolar tuzatib bo'lmaydigan ekologik krizislarni keltirib chiqardi. Ekologik tushunchaning faqat insonlar tomonidan va faqat ularga xos shakllanishi – antropomarkaz tushuncha deb ataladi.

Antropomarkaz tushunchasi inson uchun tabiat eng qimmatbaho, oliy degan tushuncha bo'lib, bunda tabiat insonning shaxsiy mulki deb

hisoblanadi. Tabiatni muhofaza qilish va uni asrash, kelgusi avlodlarga yetkazish bugungi kunda respublika hududida yashovchi har bir inson hayotidagi muhim vazifalarning biri hisoblanadi. Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha respublika boshqaruv organlarida faoliyat ko'rsatayotgan har bir rahbar xodimning o'z vakolatlari bor. Shuningdek, belgilangan ishlarning amalga oshishida va bajarilishida respublikamiz Prezidenti quyidagi vakolatlarga ega:

- ekologik xavfsiz muhitni ta'minlash uchun zarur chora tadbirlarni ko'radi;

- ekologiya sohasidagi qonunlarni imzolaydi va shunga oid farmon va farmoyish hamda qarorlar qabul qiladi, ekologik qonun me'yorlarini buzuvchi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining hujjatlarini bekor qiladi;

- Oliy Majlisga Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisi lavozimi tasdig'iga nomzod taqdim etadi;

- ekologik inqiroz yoki talofat ko'rgan hududlarda qisman yoki butunlay favqulodda holat joriy etadi;

- respublika ichida va xalqaro ekologik siyosatga doir vakolatlarni amalga oshiradi.

Ekologik vakolat respublika Oliy Majlisiga ham berilgan, ular o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib harakat qiladi. Tabiatni muhofaza qilish ishlari uchun barcha viloyatlardagi hokimiyatlar ham baravar vakolatlidir, har bir hokimlik o'z hududidagi imkoniyatlar, tuproq, iqlim, suv, yaylov, o'rmon xo'jaligi hamda qayta ishlash va sanoat korxonalari mavjudligidan kelib chiqib, o'z ishlarini amalga oshiradi:

- ✓ o'zlariga tegishli hududlarda tabiat muhofazasi uchun yo'nalishlarni belgilaydi, mintaqaviy

- ✓ yoki hududiy ekologik dasturlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

- ✓ mahalliy tabiiy kadastrni amalga oshirib, undan foydalanilganlik va ifloslantirganlik uchun to'lovlarni amalga oshiradi;

- ✓ tabiatni muhofaza qilish uchun zarur bo'lgan moddiy texnik vositalar ta'minotini yo'lga qo'yadi;

- ✓ tabiiy resurslardan foydalanish, sanoat, maishiy chiqitlarni tashlash yoki ko'mishga ruxsat beradi va ularni bekor qiladi;

- ✓ o'z hududidagi korxonalarining ekologik faoliyatini zarur paytda to'xtatib qo'yadi;

- ✓ ekologik me'yoriy hujjatlarni qabul qiladi, Konstitusiyaga va qonunlarga zid kelmaydigan boshqa ekologik vakolatlarni amalga oshiradi.

Atrof tabiiy muhitni ifloslantirganlik uchun to'lanadigan haq yoki javobgarlik jarimalari respublika hududida barcha jamoat tashkilotlari va yakka shaxslar uchun ham amal qiladi. Tashlanadigan katta miqdordagi

chiqindining avval joyi va uning ekologik xavfsizligi aniqlanmas ekan, buning uchun katta miqdordagi jarima to‘lanadi. Tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanishda davlat boshqaruvining eng asosiy vazifalaridan biri ekologik nazorat hisoblanadi. Tabiiy muhit doimo nazoratda bo‘lishi kerak. Inson o‘zi yashaydigan ona tabiatni asrashi va saqlashi lozim. Chunki bu joyda bizning ajdodlarimiz yashagan, kelajakda shu joyda bizning avlodlarimiz hayotni davom ettirishini doimo esda tutmoq kerak.

Ekologik nazorat tushunchasi – tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash qoidalari va talablarini vazirliklar, davlat qo‘mitalari, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, mansabdor va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishini tekshirish, tabiiy muhitni o‘rganish va kuzatish kabi jarayonlar bilan bog‘liq siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy-ma‘rifiy chora-tadbirlar faoliyati yig‘indisini o‘z ichiga oladi. Ekologik nazorat tizimi davlat nazorati, idoraviy nazorat, ishlab chiqarish va jamoat nazoratidan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta‘limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 27.05.2019 yildagi 434-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Ekologiya va atrofmuhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni. 21-aprel 2017-yil, Toshkent.
3. D.Yo.Yormatova. Ekologik monitoring. –T.: “Fan va texnologiya”, 2011.
4. В.И.Коробкин, Л.В.Передельский. Экология для студентов.– Ростов-на-Дону: «Феникс», 2001
5. Tursunova, N. K. (2020). Ekologik masalalarni o‘qitishda interaktiv metodlar. Toshkent: O‘zMU nash.

EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL QILISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

Savriddinov A.A¹, Abruyev Sh.A²

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekologik muammolarni hal qilishda axborot texnologiyalarining ahamiyati va rolini tahlil qilinadi. Maqola, ekologik muammolar – global isish, ifloslanish, bioxilma-xillikning kamayishi kabi masalalarni ko‘rib chiqadi va axborot texnologiyalarining ushbu masalalarni hal qilishdagi imkoniyatlarini taqdim etadi. Shuningdek maqolada ishlab chiqarish korxonalarini atrof muhitga

¹ Savriddinov Akbarali Abrorovich , Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi Umumkasbiy fanlar kafedrasida katta o‘qituvchisi, akbarali2020 @inbox.ru

² Abruyev Shohruh Abdulaziz o‘g‘li, Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi 101-24 guruh talabasi

yetkazayotgan zararlari, ushbu zararlarni kamaytirishga qaratilgan dasturlar haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlarni bashorat qilish uchun axborot texnologiyalardan foydalanishning samarali usullari haqida tushunchalar berib o'tilgan. Shu bilan bir qatorda bugungi kunda eng ko'p uchraydigan ekologik muammolar ularni yechimlarini izlashda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish kabi masalalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ekologik muammolar, axborot texnologiyalari, global isish, ifloslanish, bioxilma-xillik, ma'lumotlar tahlili, innovatsion yechimlar, ekologik ong, xabardorlik, barqaror rivojlanish.

THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN ADDRESSING ENVIRONMENTAL PROBLEMS

Abstract. This article analyzes the importance and role of information technologies in addressing environmental problems. It examines ecological issues such as global warming, pollution, and biodiversity loss, presenting the potential of information technologies in resolving these challenges. The article also provides information on the environmental harm caused by industrial enterprises and the programs aimed at mitigating these impacts. It discusses effective methods of using information technologies for predicting climate change and natural disasters. Additionally, the article highlights the most common environmental problems today and the use of modern information technologies in finding solutions to these issues.

Key words: environmental problems, information technologies, global warming, pollution, biodiversity, data analysis, innovative solutions, environmental consciousness, awareness, sustainable development.

Bugungi kunda dunyo miqyosida ekologik muammolar keskin ahamiyatga ega masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Iqlim o'zgarishi, atrog muhitni ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi kabi muammolar insoniyat uchun tahdid hosil qilmoqda. Bu muammolarni hal qilishda axborot texnologiyalardan foydalanish imkoniyati butun dunyo olimlarini oldida turgan eng qulay va zamonaviy yechimlardan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu maqolada ekologik muammolarni hal qilishda axborot texnologiyalarining qo'llanilishi va uning natijalari haqida so'z yuritiladi. Axborot texnologiyalarining atrof-muhitga ta'siri va ulardan foydalanishning ijobiy hamda salbiy oqibatlarini o'rganib kelinmoqda. Odamlarga yerning ekologik holatini yaxshilashga yordam berish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanishning asosiy yo'nalishlari ham taklif etilmoqda.

Global isish muammosi bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biridir. Iqlim o'zgarishi va uning salbiy ta'sirlari butun dunyo uchun tahdid solmoqda. Shu bilan birga, axborot texnologiyalarining rivojlanishi ushbu masalani hal etishda muhim rol o'ynamoqda.

Eng avvalo axborot texnologiyalarining ekologik muammolarni vujudga kelishi yoki ularni oldini olishga bo'lgan ta'sirini ko'rib chiqsak. Har qanday muammoni yechimini yopishda axborot texnologiyalari ma'lumotlar yig'ish va tahlil qilish eng qulay vosita hisoblanadi. Axborot texnologiyalari ekologik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi. Sun'iy intellekt va dronlar yordamida atrof-muhitni real vaqtda kuzatgan holda havo, suv va tuproqning sifati hamda tarkibini tahlil qilish mumkin. Bu ma'lumotlar asosida muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish mumkin bo'ladi.

Axborot texnologiyalari yordamida iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlarni bashorat qilish uchun murakkab modellar usullari ishlatilmoqda. Masalan, iqlim modellari orqali kelajakdagi o'zgarishlarni kuzatish va ularga tayyorlanish imkoniyati ko'rib chiqilmoqda.

Axborot texnologiyalari orqali ekologik muammolar haqida keng jamoatchilikka ma'lumot yetkazish mumkin. Online ta'lim platformalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali ekologik muammolarni hal qilish bo'yicha bilimlarni oshirish mumkin.

Axborot texnologiyalari yordamida energiya va suv resurslarini yanada samarali boshqarish mumkin. Masalan, aqlli uy tizimlari energiya iste'molini optimallashtirishda yordam beradi va energiya isrofini kamaytiradi.

Axborot texnologiyalari orqali chiqindilarni boshqarish tizimlari yaratilmoqda. Masalan, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish jarayonlarini avtomatlashtirish, chiqindilarni tasniflashda axborot texnologiyalari dasturlarini qo'llash mumkin.

Axborot texnologiyalari yordamida qayta tiklanadigan energiya manbalari, quyosh va shamol energiya tizimlari monitoring qilinadi va boshqariladi. Bu texnologiyalar energiya samaradorligini oshirishga yordam beradi va energiya ushlab chiqarish uchun atrof muhitga yetkaziladigan zararni kamaytish imkonini beradi.

Axborot texnologiyalari ekologik muammolarni hal qilishda muhim vositaga aylandi. Ular yordamida ekologik monitoring, ma'lumot tahlili, ommaviy axborot va ta'lim, resurslarni boshqarish va innovatsiyalarni rivojlantirish mumkin. Biroq, axborot texnologiyalarining ekologik muammolarni bartaraf etishdagi o'rni hali ham to'liq amalga oshirilmagan. Shu bois, axborot texnologiyalarini rivojlantirish va ularning ekologik muammolarni hal qilishdagi imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bu esa nafaqat ekologiyaning muhofazasiga, balki insoniyatning kelajagi uchun ham juda muhimdir. Ekologik muammolarni hal qilishda axborot texnologiyalarining samarali vosita sifatida xizmat qilib kelmoqda va

kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan global ekologik muammolarni hisoblab chiqishda vaqt jihatdan ham yengillik olib kelyapdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 27.05.2019 yildagi 434-son qarori
2. "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atruf muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.10.2019 yildagi PF-5863-son farmoni
2. Bobonazarova, Z. (2020). Ekologik ta'limda zamonaviy texnologiyalar. Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. Tursunova, N. K. (2020). Ekologik masalalarni o'qitishda interaktiv metodlar. Toshkent: O'zMU nash.
4. Yusupov, O. T. (2019). Masofaviy ta'lim texnologiyalari ekologik fanlarda. Andijon: ADU nash.
5. Ahmadaliyeva, G. T. (2021). Ekologik kuzatuvlar va mobil ilovalar. Qarshi: QDU nash.
6. Qosimov, B. (2018). Ekologik muammolarni o'qitishda gamifikatsiya tamoyillari. Toshkent: O'qituvchi.
7. Rahmatova, G. R. (2022). Ekologiya fanini o'qitishda pedagogik innovatsiyalar. Nukus: QDU nash.

O'ZBEKISTONDA HUQUQIY SIYOSATIDA RAG'BATLANTIRISH SIYOSATINING ISTIQBOLLARI

Tursoatov S.X¹

Annotatsiya. Maqolada huquqiy rag'batlari tizimida davlat mukofotlari tushunchasi va tasnifi, mukofotlarining huquqiy rag'batlantirish vositalari, mukofotlash to'g'risidagi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti, mukofotlash asoslarini tavsifi, davlat mukofotlarining belgilari ajratib ko'rsatilgan va tahlil asosida taklif va tavsiyalash beilgan.

Kalit so'zlar: huquqiy rag'bat, tizim, mukofot, davlat mukofotlari, mukofotlash siyosatini optimallashtirish, mukofotlash, rag'batlari tizimida davlat mukofotlari.

PROSPECTS OF THE STATE'S INCENTIVE LEGAL POLICY IN UZBEKISTAN

Abstract. The article examines the concept and classification of state awards within the system of legal incentives, the tools of legal encouragement through awards, legislation on awarding, law enforcement practices, and the characteristics of the grounds for awarding. The features of state awards are highlighted, and based on the analysis, proposals and recommendations are provided.

Key words: legal incentives, system, awards, state awards, optimization of awarding policy, grounds for awarding, state awards in the incentive system.

¹ Tursoatov Sodiq Xudoyor o'g'li, Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi Umumkasbiy fanlar kafedراسи katta o'qituvchisi

O'zbekiston huquqiy tizimini shakllantirishda huquqning rag'batlantiruvchi usuli ustuvor ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Konstitutsiyasi, qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Vazirlar Maxkamamasi qarorlarida jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy hayot sohalarini tartibga solishda rag'batlantiruvchi huquqiy siyosat keng miqyosda o'z ifodasini topgan. O'zbekiston mustaqillikning ilk davridan boshlab huquqning rag'batlantiruvchi usulidan keng darajada foydalandi, rag'batlantiruvchi huquqiy siyosatni amalga oshirdi.

Rag'batlantiruvchi normalarda huquq tarmoqlarining o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi. Jinoyat qonunchiligida mujassamlangan rag'batlantiruvchi normalar, shaxsni jinoiy qilmish sodir etishini oldini olish, jinoyat sodir etib o'z qilmishidan pushaymon bo'lgan, yetkazilgan zararni qoplagan, qat'iy tuzalish yo'liga o'tgan shaxsning o'ziga xos faoliyatini taqdirlashga qaratilgandir.

Shu bilan birga huquqiy rag'batlantirishlarning tahlili davlat mukofotlarining huquqiy rag'batlantirish vositalari tizimida tutgan o'rni va ahamiyatini ko'rsatishga yordam beradi. Davlat mukofotlarini davlat huquqiy rag'batlantirishlarning mustaqil shakli sifatida ajrata turib, ularni quyidagicha tasniflash mumkin: huquq subyektlari maqomini belgilovchi (huquq subyekti huquqiy maqomini o'zgartiruvchi, mazmun jihati); konstitutsiyaviy huquq normalari bilan tartibga solinuvchi (huquqiy tartibga solish predmetiga ko'ra tasniflash); qo'shimcha ne'matlar in'om etuvchi (rag'batlantirishlarni taqdim etadigan ne'matlariga ko'ra tasniflash); faqat yuksak xizmati uchun qo'llaniladigan (ahamiyati darajasiga ko'ra tavsiflash) [1. B-16].

Davlat mukofotlari – oliy ijobiy rag'batlantirish shakli (chorasi) bo'lib, katta mas'uliyat, shuhrat, ehtiromlar bilan bog'liq. Uni topshirish rasmiy, tantanali tarzda amalga oshiriladi. Loyiq shaxs nomzodini mukofotga tavsiya etish – qahramonlarga muhtoj bo'lgan davlatda zarur bo'lgan san'atdir. Shuning uchun mukofotlar – o'ta jiddiy masala bo'lib tegishli davlat siyosatini talab qiladi. Shu bilan birga davlat mukofotlari tizimi jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda muntazam o'zgarib takomillashib boraveradi.

Har qanday siyosatda jamiyatning turli hayot sohalarida g'oyalarni shakllantiradigan fan muhim ahamiyatga ega. Xuddi shunday rag'batlantiruvchi siyosatda ham fanning ahamiyati beqiyosdir, aynan u mazkur siyosatning yo'lini yoritishi, uning samarali tatbiq etilishi uchun shart-sharoitlarni yaratishi lozim.

Mukofotlash siyosatini optimallashtirish, mazkur sohada davlat faoliyatini to'laqonli rivojlanishini ta'minlash uchun mustaqil fan va maxsus o'quv predmeti – mukofot huquqi talab etiladi [2. B-222].

XX asr boshlarida rus huquqshunosi P.A.Sorokin bu masalada to'xtalib o'tgan. Uning fikricha, jinoyat va jazo to'g'risidagi fan (jinoyat huquq) o'ta yiriklashib ketgan bir paytda, jasoratlar va mukofotlar to'g'risidagi fan, agar zarur bo'lsa mukofot huquqi o'quv fanlari qatoridan o'rin ham egallamagan [3. B-77].

Prof. A.V.Malkoning fikricha, mukofot huquqi fani asta-sekinlik bilan qonunchilikning mustaqil tarmog'i – mukofotlar to'g'risidagi qonunchilikning shakllanishiga ko'maklashadi. Hozirgi sharoitda konstitutsiyaviy, ma'muriy, mehnat huquqlari kesishmasida tarmoq osti qonunchiligi shakllanmoqda, uning umumiy, maxsus qismlari va mukofotlash jarayoni o'zini namoyon etmoqda.

Mukofotlash to'g'risidagi qonunchilikni tahlil etish, huquqni qo'llash amaliyotini tizimlashtirish, mukofotlash asoslarini tavsiflash davlat mukofotlarining quyidagi belgilarini ajratib ko'rsatishga imkon beradi: *birinchisi*, davlat hokimiyatining oliy organi tomonidan ta'sis etiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga muvofiq davlat mukofotlari va unvonlarini ta'sis etish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlarini tashkil etadi; *ikkinchisi*, fuqarolar va boshqa subyektlarni rasmiy rag'batlantirishning oliy shakli hisoblanadi; *uchinchisi*, O'zbekiston Respublikasining butun hududida amal qiladi; *to'rtinchisi*, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat mukofotlari bilan taqdirlash to'g'risidagi farmonlari ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi; *beshinchisi*, orden, medal shaklida ifodalangan aniq muayyan ramziy belgiga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida orden va medallar ta'sis etish to'g'risidagi qonun hamda orden, medallar to'g'risidagi nizomda ularning tashqi tavsifi mustahkamlanadi; *oltinchisi*, davlat mukofotlariga taqdim etishning faktik asosi bo'lib ko'rsatilgan yuksak xizmatlar hisoblanadi; *yettinchisi*, davlat mukofoti bilan rag'batlantirishning huquqiy asosi bo'lib o'zida yuridik faktlar tizimini qamrab oluvchi faktik tarkib hisoblanadi: subyekt tomonidan yuksak xizmat ko'rsatish natijalariga erishilishi; taqdirlash to'g'risida taqdimnoma kiritilishi; turli davlat organlarida taqdimnomaning kelishilishi; rag'batlantiriluvchi shaxs (tashkilot)ga muayyan mukofot berish to'g'risidagi huquqni qo'llash aktining qabul qilinishi; *sakkizinchisi*, rag'batlantiriluvchi shaxsning huquqiy maqomini o'zgartiradi. Shu bilan davlat mukofotlari faxriy yorliq, qimmatbaho sovg'a, xizmat pillapoyalaridan ko'tarilishi kabi boshqa rag'batlantirish turlaridan farqlanadi; *to'qqizinchisi*, aniq shaxsga tegishli bo'ladi.

Jamiyat a'zolarining davlat oldida turgan vazifa va maqsadlariga erishish yo'lida sidqidildan ko'rsatayotgan sa'y-harakatlari muntazam rag'batlantirib boriladi [4. B-68-72]. O'zbekistonda "davlat mukofotlari va faxriy unvonlari – davlatning iqtisodi, fan, madaniyat, san'at, Vatanni himoya qilish va ijtimoiy hayotning boshqa sohalaridagi yuksak xizmatlari uchun fuqarolarni rag'batlantirishning oliy shaklidir" [5. B-471].

Rus olimasi V.M. Duel tomonidan davlat mukofotiga quyidagicha ta'rif beriladi: "davlat mukofoti – davlat organi tomonidan muayyan huquq subyektining yuksak xizmatini ijobiy baholash uchun qo'llaniladigan, muayyan tashqi ramziy ifodaga (orden, medal) ega bo'lgan hamda subyektning huquqiy maqomini umrbod o'zgartirish shaklidagi huquqiy oqibatni vujudga keltiruvchi rasmiy rag'batlantirishning oliy shaklidir" [6. B-16].

Mukofot rag'batlantiriluvchi subyekt faoliyatining ma'naviy, davlat-rasman ma'qullanishining eng muhim ahamiyatga ega shakli sifatida (mukofotni topshirish jarayonining xususiyatlari: tantanavor vaziyatda topshirilishi, ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishi va h.k.), qoida tariqasida uning sohiblariga muayyan moddiy ne'matlar, imtiyozlar taqdim etilishini ko'zda tutadi. Mukofotlarda ma'naviy va moddiy rag'batlarning uyg'unlashganligi, uning o'ta samaradorligini oshiradi, taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi hamda rag'batlantirish jihatlarini (ma'naviy va moddiy) birgalikda qo'llanishini taqozo etadi.

Rasmiy rag'batlantirishning oliy shakli sifatida davlat mukofotlarini qonunchilikda mustahkamlanishidan kelib chiqib, tadqiq etilayotgan obyekt huquqiy rag'batlantirish tizimi nuqtayi nazaridan, ularning belgilari, maqsadi va funksiyalarini tadqiq etish talab etiladi.

Shu bilan birga davlat mukofotlari to'g'risidagi qonunchilik tahlili, mukofot institutining amal qilishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar mavjudligini ko'rsatadi. Bu bir tomondan davlat mukofotlarini huquqiy tartibga solishdagi holatlar bo'lsa, ikkinchi tomondan, mazur masalaning nazariy jihatdan to'la va har tomonlama chuqur o'rganilmaganligidadir.

Davlat mukofotlari ijtimoiy foydali faoliyatning davlat tomonidan rag'batlantirilishi hisoblanadi. Rag'batlantirish deganda shaxslarni erishgan yutuqlari uchun taqdirlash orqali ularning ijtimoiy foydali faoliyatining ommaviy jihatdan tan olinishi tushuniladi. Shaxslarning erishgan yutuqlari turli sohalarida va turli darajalarda amalga oshirilishi mumkin. Bunday yutuqqa erishgan shaxslar doirasi ham qonunchilikda belgilab qo'yilgan [7].

"Mukofot" tushunchasini tahlil qiladigan bo'lsak, biror bir shaxsning foydali ishni amalga oshirgani tufayli uni minnatdorchilik tariqasida taqdirlash nazarda tutiladi. Taqdirlash esa bevosita mukofotlash orqali

amalga oshiriladi. Har bir shaxs o'z mehnat faoliyati, kasbi yoki o'ziga xos izlanishlarini amalga oshirish davomida ko'pchilik uchun foydali bo'lgan kashfiyot, yangilik yaratishi yoki o'z mehnat faoliyati, kasbi yoki o'ziga xos izlanishlarini sidqidildan amalga oshirishi natijasida ko'pchilik uchun ijtimoiy foydali bo'lgan natijalarga erishishi mumkin. Ularning eng maqbul deb topilganlari esa davlat mukofotlari bilan taqdirlanadi. Har bir rag'batlantirish quyidagi jihatlarga ega bo'ladi:

1) rag'batlantiriluvchi moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladi; uning erishgan yutuqlari ommaviy tan olinib, ularga ijobiy baho beriladi; huquqiy harakterga ega bo'ladi; vakolatli subyektlar tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

2) rag'batlantiriluvchining huquqiy yoki jamiyat oldidagi xizmatlari uchun belgilanadi [8].

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda davlat mukofotiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: davlat mukofoti – fuqarolarni iqtisodiyot, fan, madaniyat, san'at, Vatanni himoya qilish, davlat qurilishi, maorif, sog'liqni saqlash, inson huquqlarini himoya qilish, xayriya faoliyatidagi ulkan xizmatlari va davlat oldidagi boshqa xizmatlari uchun taqdirlashning oliy shakli.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda “davlat mukofotlari”ni shakllantirish va takomillashtirishga qaratilgan muayyan qonunchilik tizimi yaratilgan. Lekin davlat mukofotlarini va boshqa rag'batlantiruvchi imtiyozlarni ta'sis etishga oid shakllangan qonunchilik tizimida qator nomuvofiqliklar hamda nomukammalliklar mavjud. Bu ayniqsa, davlat mukofotlari o'rtasidagi iyerarxik tizimlikdagi chalkashliklarda ham namoyon bo'ladi. Masalan, xalq o'qituvchisi, xalq baxshisi, xalq shoiri kabi unvonlar ustuvor turadimi yoki davlat tomonidan ta'sis qilingan orden va medallarmi? Xuddi shuningdek kazusni faxriy unvonlar hamda atoqli allomalar nomiga qo'yilgan davlat mukofotlari o'rtasidagi nisbatda uchratish mumkin? Ularning qaysi biri ustuvor?!

Xalq artisti hamda xalq hofizi kabi faxriy unvonlar mavjud va bugungi kunda ko'plab yurtdoshlarimiz mazkur mukofotlar bilan taqdirlanganlar. Ammo artist hamda hofiz o'rtasidagi farq hamda ularning maqomini tartibga soluvchi qonunchilik normalari mavjud emas.

Shunday qilib, davlat mukofotlari rag'batlantirishning asosiy va muhim shakli sifatida davlat rag'batlantiruvchi siyosatining o'zagini tashkil etadi. Davlat mukofotlari tizimining takomillashganligi rag'batlantiruvchi siyosatning beka mu-ko'st amalga oshirilishiga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дуэль В. М. Государственный награды в российском праве :Проблемы теории и практики : Автореф. Дисс. на соиск. Уч. степени к.ю.н. -М.,2005. -С.16.

2. Малько А.В. Льготная и поощрительная правовая политика. –Спб.: Издательство «Юридический центр Пресс», 2004. –С.223.
3. Сорокин П.А. Преступление и подвиг // Человек. Цивилизация. Общество. –М., 1992. –С.77.
4. ЎЗРнинг Конституциявий ҳуқуқи. Т.: «Молия», 471-б.
5. Ўзбекистон Республикасининг 1996 йил 22 декабрдаги «Давлат мукофотлари тўғрисида»ги Қонуни.
6. Одилқориев Х.Т. ЎЗР қонун чиқариш жараёни. –Т., Ўзбекистон, 1995. – Б.94.
7. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2006 й., 31-32-сон, 308-модда.
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2009 йил 20 августда «Тошкент шахрини «Мустақиллик» ордени билан мукофотлаш тўғрисида»ги Фармони // ЎЗР Олий Мажлиси палаталари Ахборотномаси, 2009. №1.

EKOLIGIYA FANI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH IMKONIYATLARI

Siddikov A.A¹, Eshtayev D.R²

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologiya fani o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari masalasi keng qamrovda muhokama qilinadi. Bugungi kunda o'qitishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki talabalarning ekologik ongini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Maqolada interaktiv o'qitish usullari, virtual va kengaytirilgan haqiqat, onlayn ta'lim platformalari va boshqa innovatsion yondashuvlar haqida ma'lumotlar taqdim etiladi. Ekologiya ta'limida bunday texnologiyalarni qo'llashning afzalliklari, shuningdek, o'qitish jarayonida qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari ham ko'rib chiqiladi. Ushbu tadqiqot, barchani zamonaviy o'quv jarayonlariga faol jalb etishga va ekologik masalalarga e'tibor qaratishga yo'naltirilgan yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan. Maqola, ekologiya fani o'qituvchilari va talabalari uchun foydali tavsiyalar bilan to'ldiriladi.

Kalit so'zlar: Ekologiya, o'qitish, innovatsion texnologiyalar, interaktiv o'qitish, onlayn ta'lim, o'quv jarayoni, ekologik ong, innovatsion yondashuvlar.

OPPORTUNITIES FOR APPLYING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING ECOLOGY

Abstract. This article comprehensively discusses the opportunities for applying innovative technologies in teaching ecology. Today, the integration of modern technologies in education not only enhances the quality of teaching but also plays a significant role in developing students' environmental consciousness. The article provides information on interactive teaching methods, virtual and augmented reality, online educational platforms, and other innovative approaches. The advantages of

¹ Siddikov Alisher Abdullaevich, Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi Umumkasbiy fanlar kafedراسи katta o'qituvchisi

² Eshtayev Dostonbek Rustamjon o'g'li, Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi 110-24 guruh talabasi

using such technologies in ecology education, as well as the challenges encountered in the teaching process and ways to overcome them, are also examined. This study is aimed at developing new approaches to actively engage everyone in modern educational processes and focus attention on environmental issues. The article is enriched with practical recommendations for ecology teachers and students.

Key words: ecology, teaching, innovative technologies, interactive teaching, online education, educational process, environmental consciousness, innovative approaches.

Ta'lim jarayoni rivojiga bir nazar tashlasak, bugungi kunda kompyuter texnologiyalari yordamida qanchalik muhim pedagogik masalalarning yechimi topilayotganligiga ishonch hosil qilishimiz mumkin. Ta'limning turli sohalarida kompyuter telekommunikatsiyalarining qo'llanilish tajribalaridan shuni ko'rish mumkinki, axborot texnologiyalari bizga bir qator ijobiy imkoniyatlarni yaratib berayapti, quyidagilar shular jumlasidandir: professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va talabalarning har xil turdagi hamkorlik ilmiy tadqiqotlarini tashkil etish; 355 ilmiy-uslubiy markazda ta'lim olayotgan keng ommaga tezkor mutaxassis maslahatlarini tashkil etish va yetkazish; masofaviy ta'lim va pedagogik kadrlar malakasini oshirish tarmog'ini tashkil etish; tezkor axborot almashinuvi; ta'limdagi sheriklarning, bu talaba, o'quvchi, o'qituvchi, ilmiy xodim bo'lishidan qat'iy nazar, ularga o'zaro fikr almashinish ko'nikmalarini hosil qilishni, muomala madaniyatini va o'z fikr-mulohazalarini tez, lo'nda va aniq ifoda etishni o'rgatish; madaniy, etnik, insonparvarlikning keng qamrovli ijobiy axborotlari bilan fikr almashinish natijasida yoshlarning madaniy va ijtimoiy qobiliyati va layoqatini o'stirish va hokazo.

Ta'lim jarayonida innovatsion oqitish texnologiyalarini qo'llashda talabalarni faqatgina ekrandagi axborotlarni ko'rishiga va ularni qabul qilishgagina emas, balki ularning o'zlari ham bu jarayonda ijodiy ishtirok etishlariga o'rgatishimiz lozim. Ta'limning didaktik xossalari bilan bog'langan yashirin imkoniyatlar olamini bevosita kompyuter telekommunikatsiyalari bilan bog'lash bu ta'lim sohasida zamonaviy va istiqbolli maqsadlarga ega. Didaktik funktsiya sifatida biz o'quv-tarbiyaviy jarayonda ma'lum bir maqsadlarda qo'llanilayotgan ta'lim vositalarining tashqi xossalari namoyonini tushunamiz. Bu ularning o'quv jarayonidagi foydalanish vazifalari, tutgan o'rni va ahamiyatidan iborat.

Uslubiy vazifasiga qarab pedagogik dasturiy vositalar quyidagilardan iborat: kompyuter darsliklari (darslari); mashq qilish (repetitor) dasturlari; nazorat qiluvchi dasturlar (test qobiqlari); axborot-spravochnik (ensiklopediya) dasturlar; imitatsion dasturlar; modellashtiruvchi dasturlar; namoyish qiluvchi dasturlar (slyaydlar, videofilmlar); o'quv-o'yin dasturlari; bo'sh vaqtlarni mazmunli o'tkazishga yo'naltirilgan dasturlar

(kompyuter o'yinlari: quvnoq o'yinlar, strategik o'yinlar, boshqariluvchi o'yinlar, mantiqiy o'yinlar, sport o'yinlari va hokazo).

Shunday qilib, kompyuter va axborot texnologiyalari yordamida olingan bilim uzoq vaqt xotirada qoladi va keyinchalik ularni amaliyotda qo'llash uchun qisqa vaqt ichida takrorlash bilan uni tiklash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

8. "O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 27.05.2019 yildagi 434-son qarori

9. F.M. Qodirov, G.E. Saidova Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini qo'llashning pedagogik masalalari. "Yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda o'qitishning zamonaviy tizimlari va texnologiyalarini qo'llash masalalari" Respublika ilmiy uslubiy konferensiyasi, Toshkent, 17-18-yanvar, 2022-yil.

10. Qosimov S.S. Axborot texnologilari. – T.: «Aloqachi», 2006.

11. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Xoliqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013. –116-b.

VI sho'ba. KORPORATIV BOSHQARUVDA "YASHIL IQTISODIYOT"

MINTAQADA IJTIMOY-DEMOGRAFIK SIYOSATNI SHAKLLANTIRISH HAMDA AMALGA OSHIRISHNING MOHIYATI VA ROLI

Mirzadjanov A.X¹

Annotassiya. Maqolada davlatlarning ijtimoiy-demografiya strategik maqsadlarini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi xavfli omillar, demografik siyosat yordamida butun demografik vaziyatni barqarorlashtirish dolzarb vazifa tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-demografiya, statistika, strategiya, ta'lim tizimi, aholi soni, aholi zichligi, tug'ilish darajasi, migratsiya.

THE ESSENCE AND ROLE OF FORMING AND IMPLEMENTING SOCIAL-DEMOGRAPHIC POLICY IN THE REGION

Abstract. The article analyzes the dangerous factors hindering the implementation of states' social-demographic strategic goals and the urgent task of stabilizing the overall demographic situation through demographic policy.

Key words: Social-demography, statistics, strategy, education system, population size, population density, birth rate, migration.


Har bir davlatning eng muhim elementi bu uning aholisidir. U o'z mamlakatini rivojlantirishning maqsad va vazifalarini belgilaydi. Mamlakatning xalqaro maydondagi muvaffaqiyati nafaqat uni boshqaradigan odamlarga bog'liq, shuningdek, demografik rivojlanish tendensiyalari iqtisodiy salohiyat, raqobatbardoshlik va siyosiy barqarorligini belgilaydi.

So'nggi yillarda dunyoda ko'plab inqirozli hodisalar o'zini namoyon qildi va demografik rivojlanish fonida ko'plab yangi muammolarni keltirib chiqardi. Bugungi kunda mavjud bo'lgan ijtimoiy-demografik muammolar butun dunyo hamjamiyatini tashvishga solmoqda. Yer sharining bor-yo'g'i 29,2 foizi quruqlik. Ana shu quruqlikning yarmini o'nta davlat egallaydi. Ulardan ikkitasi – Xitoy va Hindistonda sayyora aholisining 35 foizi yashaydi.

¹ Мирзаджанов Азим Хакимджанович, Меҳнат ва ижтимоий муносабатлар академияси катта ўқитувчи, Олий таълим тизими кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти мустақил изланувчиси. azim.13@mail.ru

Hozir Yer sayyorasida xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlar tomonidan alohida mustaqil davlat deb tan olingan 200 ga yaqin davlat bor. Ularning hududlari juda notekis joylashgan. Biri sayyoraning katta bir qismini egallagan bo'lsa, yana biri bir shaharning bir kvartalini egallagan xolos.

Hududiy jihatdan, dunyoning eng yirik davlati Rossiya, uning hududi Yer yuzidagi quruqlikning 22 foizini tashkil etadi. Yon qo'shnimiz Qozog'iston hududi Yer yuzidagi quruqlikning 4 foizini tashkil etadi va u dunyoda 9 o'rinda turadi (rasm).



1-rasm. Duniyoning yirik hududlarini egallagan davlatlari

O'zbekiston Respublikasi o'z hududining kattaligi bo'yicha dunyoda 56-o'rinda turadi. O'zbekiston Markaziy Osiyoning janubiy-g'arbiy qismida joylashgan. O'zbekiston Respublikasi Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan bo'lib, umumiy maydoni 448,9 ming km².ni tashkil etadi. Respublika hududi sharqdan g'arbgacha 1 425 km ni, shimoldan janubgacha esa 930 km ni tashkil etadi.

Markaziy Osiyodagi beshta respublikaning demografik ko'rsatkichlariga qaralsa xilma-xillikni ko'rish mumkin. Jumladan, O'zbekiston va Tojikistonda aholi soni tez suratlarda ko'paygan. Qirg'izistonda o'rtacha, Qozog'istonda esa ko'rsatkichlar ancha past bo'lgan. Hatto, 1990-yillar o'rtalarida mamlakat aholisi 2 mln atrofida kamayib ketgan. 2015 yildan so'ng tug'ilish ko'payib, aholi soni ham shunga hamohang o'sa boshladi. Turkmaniston esa bu haqdagi ma'lumotlarni uzoq yillardan buyon oshkor qilmaydi. Umumiy hisobda Markaziy Osiyo aholisi 80 milliondan oshadi.

O'zbekiston aholi soni bo'yicha dunyo davlatlari orasida 43-o'rinni egallaydi va Markaziy Osiyodagi aholisi eng ko'p mamlakat hisoblanadi. Respublikada aholi ancha zich yashaydi va 2024 yil 1 aprel holatiga ko'ra, 1 kv. kilometrda o'rtacha 82,3 kishi to'g'ri kelmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston hozirda tug'ilish darajasi bo'yicha MDH davlatlari orasida Tojikiston bilan birga yuqori o'rinlarni egallaydi. 2022 va 2023 yillarda mos ravishda 1 mln.ga yaqin chaqoloqlar tug'ilgan, 2030-yilga borib mamlakatimizda aholining soni 43 mln.dan oshishi, shundan 16 mln.ga yaqini yoshlar tashkil qilishi pragnoz qilinmoqda, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning sifati aholi takror ishlab chiqarishning ijobiy dinamikasida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda demografik vaziyatni yaxshilash choralari ko'rish zarur, 1989 yilda aholini ro'yxatga olish o'tkazilgan va unda respublika aholisining soni 19,7 million kishini tashkil etgan. 1990 yilda respublika aholisi 20,2 mln nafar bo'lgan. 2000 yilda 24,5 mln, 2010 yilda 28 mln, 2020 yilda 33,9 mln nafarga ko'paygan. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilning 1 aprel holatiga respublika aholisi 37,6 mln nafarni tashkil etmoqda. Shundan: ayollar soni – 18,7 mln kishi, erkaklar soni – 18,9 mln kishi, shaharda yashovchilar – 19,2 mln kishi, qishloqda yashovchilar – 18,4 mln kishi, ko'chib kelgan – 561 kishi, ko'chib ketgan – 2586 kishi.

Respublikamizning doimiy aholisi soni o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 2,1 %ga oshgan. Mamlakatimiz aholisi 2024 yil boshidan buyon 163,5 ming kishiga ko'paygan bo'lsa, 2024 yilning har bir oyida o'rtacha 54,5 ming kishiga oshgan. 2024 yilning har bir kunida esa doimiy aholi soni o'rtacha 1,8 ming kishiga ko'paymoqda.

Aholining 57 foizi mehnatga layoqatli yoshdagilar, 32 foizi mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 11 foizi keksalar hisoblanadi. O'zbekiston aholisining iqtisodiy faol soni 14,641 mln. kishi, o'rtacha yoshi 29 yosh hisoblanadi. 2024 yil 1 yanvar holatiga yurtimizda 14–30 yoshdagi jami doimiy aholi soni 9,6 mln nafarni tashkil etgan.

Hozirgi vaqtda o'rtacha umr ko'rish 74,3 yoshni tashkil etadi, shundan ayollarda 76,6 yosh, erkaklarda 72,1 yosh. Mustaqillik yillarida bu ko'rsatkich 7,9 yilga o'sgan.

Yon qo'shnilarimizda mustaqillikdan keyin demografik vaziyat biroz boshqacha bo'lgan. Xususan, Qozog'iston aholisi 1987 yilda 16 milliondan oshgan bo'lsa, 1991 yilda 16,8 million kishini tashkil etdi.

1994 yilgacha aholi ko'paymadi va shu holda turdi. Ya'ni mamlakatdan ko'p sonli ruslar, nemislar, chechenlar va boshqa millatlar ko'chib ketgan bo'lsa, ularning o'rniga Rossiya, Mongoliya, Xitoy, Qirg'iziston, O'zbekiston va Turkmanistondan ko'plab qozoqlar ko'chib kirishdi. Shu tariqa aholi soni o'smagan bo'lsa ham muvozanat saqlandi.

Biroq 1995 yildan boshlab negadir aholi soni keskin kamaya boshladi va 1999 yilga borib 14 mln nafarga tushib qoldi. 5 yil aholi umuman ko'paymadi. 2004 yildan boshlab odamlar soni juda past ko'rsatkich bilan o'sa boshladi va faqat 2010 yilga kelib 1987 yildagi natija, 16 millionlik marra qayta zabt etildi.

Shundan so'ng, mamlakat aholisi kichik farq bilan bo'lsada o'sib kelayapti. Jumladan, 2013 yilda aholi soni 17 mln, 2017 yilda 18 mln, 2021 yilda 19 mln nafardan oshdi.

2023 yil 16 noyabr kuni esa mamlakat prezidenti Qosim-Jo'mart To'qaev Qozog'iston aholisi soni 20 mln nafarga yetganini ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali e'lon qildi.

«Xalqimizning soni 20 millionga yetdi. Barchangizni ushbu muhim voqea bilan tabriklayman. Baxtli oila – millat farovonligi va mamlakat taraqqiyotining garovidir. Davlat oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni davom ettiradi», deyiladi To'qaev e'lon qilgan xabarda.

Bu ko'rsatkich bilan Qozog'iston dunyo davlatlari orasida 62-o'rinni egallaydi.

O'zbekistondan farqli ravishda mustaqillik yillarida Qozog'istonda uch marta aholini ro'yxatga olish ishlari o'tkazilgan. Dastlabkisi 1999 yilda, ikkinchi marta 2009 yilda, so'nggisi 2021 yilda o'tkazilgan.

Bugun Qozog'iston aholisining 10 mln. nafardan oshiqrog'ini ayollar, qariyb 10 mln. nafarini erkaklar tashkil etadi. Ayollar erkaklardan qariyb 400 ming nafarga ko'p.

Qozog'istonda aholining o'rtacha umr ko'rish yoshi 74,4 yoshni, bunda o'rtacha yosh erkaklarda 70,2, ayollarda 78,4 ni tashkil etadi.

Qozog'iston hududi juda katta. Shu sababli bu yerda aholi zichligi uncha yuqori emas. Mamlakat bo'ylab o'rtacha 1 kilometr kvadratga 7,3 nafar odam to'g'ri keladi.

Ushbu ijtimoiy-demografik siyosat yo'nalishlarini belgilashda quyidagi vazifalarni bajarish va izchil hal qilish kerak:

Markaziy Osiyo davlatlarining ijtimoiy-demografik siyosatini shakllantirish va amalga oshirishning nazariy asoslarini o'rganish

ijtimoiy-demografik siyosatni shakllantirish va amalga oshirish bo'yicha Yevropa ittifoqi va boshqa ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish;

Markaziy Osiyo davlatlarining ijtimoiy-demografik siyosatini shakllantirish va amalga oshirish mexanizmlarini o'rganish;

Markaziy Osiyo respublikalaridagi ijtimoiy-demografik vaziyatni tahlil qilish;

Markaziy Osiyo mamlakatlarining demografik prognozlarini ishlab chiqish;

ijtimoiy-demografik siyosatni amalga oshirish samaradorligiga qaratilgan chora-tadbirlar kompleksini, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlarida ijtimoiy-demografik vaziyatni yaxshilashning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish.

Demografik jarayonlar davlatning keyingi iqtisodiy o'sishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bunday sharoitda demografik siyosat yordamida butun ijtimoiy-demografik vaziyatni barqarorlashtirish zarur bo'ladi. Ushbu muammolarni bartaraf qilish uchun eng avvalo ularning paydo bo'lish sabablarini aniqlashimiz kerak. Buning uchun demografik siyosat javob beradi.

Demografik siyosat - bu davlat organlari va boshqa ijtimoiy institutlar aholining takror ishlab chiqarish jarayonlarini tartibga solish sohasidagi maqsadli faoliyati. U aholining ko'payishi, aholi dinamikasi tendensiyalarining o'zgarishi (tug'ilish, o'lim) va ularning o'zgarish tezligi, oila tarkibi, ichki yoki tashqi migratsiya va hayot sifatining xususiyatlari uchun ijtimoiy maqbul rejimni shakllantirish uchun harakat qilishi kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, demografik rivojlanish juda qattiq nazorat ostida bo'lishi, muayyan demografik muammolarni hal qilishga qaratilgan harakatlar uchun maqsadli yondashuv zarur. Shu bilan birga, mintaqaviy iqtisodiy siyosat ijtimoiy-iqtisodiy tizimni muvozanatda saqlash kerakligidan kelib chiqishi kerak. Ijtimoiy-demografik jarayonning umumiy xarakteri tizimning barcha xususiyatlarida namoyon bo'ladi yoki aksincha, iqtisodiyotning holati ko'plab demografik ko'rsatkichlarning dinamikasiga doimiy ta'sir qiladi.

Demografik siyosatning tuzilishini ham hisobga olish kerak. U quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: demografik rivojlanish konsepsiyasi; demografik siyosatning muayyan maqsadlari; amalga oshirish dasturlari, ya'ni demografik siyosat rejalari tizimi; joriy etilgan chora-tadbirlar samaradorligini hisoblash (2-rasm). Komponentlarning har biri ajralmas qism bo'lib, uni tuzilmadan alohida ishlatib (foydalanib) bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, muayyan mexanizmni takomillashtirish uchun nafaqat uning ishlash xususiyatini, balki kelajakda mumkin bo'lgan xatti-harakatlarini ham bilishimiz kerak. Bugungi kunda demografik vaziyatga bir qator tahdidlar ta'sir ko'rsatmoqda: aholining bosqichma-bosqich o'zgarishi, ekalogiya va sog'liqni saqlash sohasining yomonlashuvi, fuqarolarning o'rtacha umr ko'rish darajasi va boshqalar. Mavjud muammolar mamlakatlar taraqqiyotiga to'siq bo'lishi mumkin. Shu munosabat bilan biz Markaziy Osiyo davlatlarida demografik vaziyatning rivojlanishi uchun prognoz qilishimiz zarur.

Inson tug'ilishi va vafot etishi orqali avlodlar almashishi jarayonida axoli soni va tarkibi muntazam yangilanib turadi. Aholining takror hosil

qilinishi o'z ichiga aholi tarkibining yoshi, jinsi, ijtimoiy guruhlari, millati, oilaviy holati, ta'lim darajasi, kasbiy tarkibi bo'yicha rivojlanishi va yangilanishini kamrab oladi. Jamiyatning tarixiy rivojlanishi ma'nosida aholining takror hosil qilinishi ijtimoiy taraqqiyot bilan birgalikda o'zgarib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
4. Sh.Po'latov. Ta'lim menejmenti, yoxud ta'lim muassasasini ilmiy-metodik boshqarish strategiyasi. O'quv qo'llanma. T.: "Yosh kuch", 2019, 592 bet
5. R.X.Jo'raev, S.T.Turg'unov. Ta'lim menejmenti. Umumiy o'rta ta'lim suassasalari direktorlari uchun qo'llanma. T.: "Voris-Nashiriyot"-2006, 263 bet.
6. A.Radjiev, F.Karimov, A.Ibragimov. TALIS-2018 Xalqaro tadqiqotlari talablari asosida o'tkazilgan so'rovnoma va tadqiqot hisobotining ma'lumotlar to'plami. 2-qism. Toshkent-2022. 119 bet.

TEMIR YO'L TRANSPORT TIZIMINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Bozorboev X.¹

Annotatsiya. Mazkur maqolada temir yo'l transport tiziminining tashkiliy-iqtisodiy asoslarini rivojlantirishni belgilab beruvchi asosiy yo'nalishlar, temir yo'l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirishning asosiy vazifalari, temir yo'l transportini strategik integratsiyalash tamoyillari va temir yo'l transport tizimini rivojlantirishning imitatsion modeli taklif etilgan.

Kalit so'zlar: temir yo'l transporti tizimining tashkiliy-iqtisodiy asosi, imitatsion model, yuklarni yetkazib berish, vazifalar irarxiyasi, transport kompleksi, temir yo'l transport infratuzilmasi.

DIRECTIONS FOR THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE RAILWAY TRANSPORT SYSTEM

Abstract. In this article, the main directions determining the development of the organizational and economic foundations of the

¹ Бозорбоев Х. Тошкент Давлат иқтисодиёт университети мустақил тадқиқотчиси

railway transport system, the main tasks of the economic development of the railway transport system, the principles of strategic integration of railway transport and the imitation model of the development of the railway transport system are proposed.

Key words.: organizational and economic basis of the railway transport system, imitation model, delivery of goods, hierarchy of tasks, transport complex, railway transport infrastructure.

Xalqaro iqtisodiy hamkorlikning uzoq muddatli barqarorligi ko'p jihatdan transport infratuzilmasining rivojlanishiga bog'liq. Hozirgi kunda dunyo bo'ylab transport yo'laklarining umumiy uzunligi 50 million kilometr dan oshgani qayd etilmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, global transport bozorining hajmi 2,2 trillion AQSh dollariga yetib, jahon yalpi ichki mahsulotining 6,8 foizini tashkil qilmoqda. Ko'pchilik davlatlarda transport sohasi YalMda 4-9 foiz ulushga ega bo'lib, mehnat bozorida bandlik darajasi 3-7 foiz atrofida shakllanmoqda [1]. Transport tizimi bir tomondan iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lsa, ikkinchi tomondan mamlakat xavfsizligini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

Jahon miqyosida transport tarmog'ini samarali rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, temir yo'l transport tizimining iqtisodiy ahamiyatini oshirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Mutaxassislar temir yo'l tarmoqlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish orqali iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganmoqda. Temir yo'l transport tizimi iqtisodiyotning ko'plab sohalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan bo'lsa-da, bu ta'sirning aniq mexanizmi va o'lchami bo'yicha bir xil yondashuv mavjud emas. Shu sababli, temir yo'l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirishda yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish hamda uning samaradorligini oshirish bo'yicha yangi strategik yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Mamlakatimizda iqtisodiyotning muhim tarmog'i sifatida transport kommunikatsiyalarini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, 2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham «transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish, temir yo'l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish va avtomobil yo'llari tarmog'ini jadal rivojlantirish, transport sohasida tashqi savdo uchun "yashil koridorlar" hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish va tranzit yuk hajmini 15 million tonnaga yetkazish» kabi ustuvor vazifalar belgilangan [2]. bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilganligi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Mahsulotlarimizni ichki va

tashqi bozorlarga yetkazish, ularning tannarxini tushirish uchun transport-logistika sohasini rivojlantirishimiz zarur” [3] deb ta’kidladilar. Bu o’z navbatida mamlakat transport-tranzit salohiyatidan va zamonaviy yetkazib berish texnologiyalaridan samarali foydalanishni hamda temir yo’l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirish modelini takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borishning maqsadga muvofiqligini ifodalaydi.

Temir yo’l transport tizimini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari bir qator mahalliy va xorijlik olimlarining ilmiy tadqiqotlarida o’z aksini topgan. Ingliz iqtisodchisi Entoni Venablsning fikriga ko’ra transport kompleksi bu ijtimoiy ishlab chiqarishning yuklar va yo’lovchilarni tashishga bo’lgan ehtiyojini qondirishga ixtisoslashgan xalq xo’jiligi tarmoqlari yig’indisi tushuniladi [4].

D. Bauersoksning fikricha, an’anaviy usullarga nisbatan yuk tashuvlarini tashkil etishning afzalligi va iqtisodiy samaradorligi masalalarini kiritgan holda multimodal va intermodal yuk tashuvlarini tashkil etish muammolariga alohida e’tibor qaratgan. Shu bilan birga muallif, transport tarmoqlari, transport vositalari va transport kompaniyalari o’z ichiga olgan transport tizimini alohida qayd etadi [5].

Mamlakatimiz olimlaridan G.Samadov, A.Zoxidov, A.Gulamov va M.Ravshanovlarning fikricha “transport tizimi – bu yuk va yo’lovchilarni o’z manziliga yetkazish jarayonida o’zaro aloqasi bo’lgan transport turari va infratuzilmalari majmuasi, ya’ni o’zaro bog’liq bo’lgan transport sektorlari, mehnat resurslari hamda mamlakat iqtisodiyotini samarali boshqarish maqsadida transportning barcha turlarini boshqaruv tizimi tushiniladi” [6].

Temir yo’l transport tizimini samarali rivojlantirish muammolarini tahlil etish bilan shug’ullangan milliy va xorijlik olimlarning ilmiy izlanishlari natijalari mazkur tadkikotning nazariy-uslubiy asosi sifatida xizmat qildi. Maqolani tayyorlashda abstrakt va analitik mushohada, qiyosiy va omilli tahlil, indikativ, tanlanma kuzatuv, taqqoslash, iqtisodiy-statistik va boshqa usullardan foydalanildi.

Temir yo’l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirish bugungi kunda global va mahalliy miqyosda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy iqtisodiyotda transport infratuzilmasi, ayniqsa, temir yo’l tizimi mamlakatning iqtisodiy o’sishini ta’minlashda, yuk va yo’lovchi tashish samaradorligini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Tez urbanizatsiya, global savdo aloqalarining rivojlanishi va logistika talablarining ortishi temir yo’l tizimining samaradorligini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shuningdek, jahon bozorlarida yuzaga kelayotgan o’zgarishlar, ayniqsa, energiya resurslarining tejamkorligi va

ekologik talablar qat'iylashib borayotgani temir yo'l tarmog'ini modernizatsiya qilish va innovatsion yechimlarni joriy etishni talab qilmoqda.

ahliil natijalariga asoslanTemir yo'l transportining rivojlanish darajasi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, chunki mahsulotning yakuniy narxi tarkibidagi transport xarajatlari va o'z vaqtida yetkazib berishni ta'minlash imkoniyati mahalliy korxonalarining muhim raqobatbardoshlik omili hisoblanadi.

Shuning uchun temir yo'l transport tizimining asosiy faoliyat ko'rsatkichlarini, transport va logistika infratuzilmalarining rivojlanish bosqichlarini o'rganish hamda tizimda mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunda asosiy masalalardan biri bo'lib kelmoqda. O'zbekistonda mahalliy yuk tashuv hajmining ulushi 5.3% va tranzit tashuv hajmining ulushi 92.5% temir yo'l transportiga to'g'ri keladi.

Tashishga taqdim etiladigan asosiy tovar mahsulotlariga ko'mir, don, neft, ruda, mineral o'g'itlar va boshqa katta hajmli to'kib ortiladigan va suyuq yuklar kiradi (1-jadval). Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, temir yo'l transporti orqali tashiladigan yukning asosiy qismi tog'-kon sanoati mahsulotlariga (ko'mir, neft va neft mahsulotlari, qora va rangli metallar, rudalar) to'g'ri keladi.

uzluksiz faoliyat yuritish va tashish jarayonining xavfsizligini ta'minlash;

iqtisodiy makonning yaxlitligini saqlash va boshqa xorijiy mamlakatlar bilan transport aloqalarini yaxshilash;

davlat tomonidan tartibga solish va bozor iqtisodiyotining o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini maqbul tarzda birga yuritish.

Shu munosabat bilan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

tashish jarayonining har bir ishtirokchisi tomonidan xarajatlarning kamaytirilishini rag'batlantiruvchi yaxlit huquqiy va iqtisodiy munosabatlar tizimini yaratish;

yuk tashuvchilar, harakatlanuvchi tarkib egalari, yuk egalari, shuningdek tashish jarayonida ishtirok etuvchi boshqa tashkilotlar o'rtasida huquqiy javobgarlikni ta'minlash;

monopol va raqobatbardosh faoliyat turlarini bosqichma-bosqich ajratish;

hisobga olish va ulardan foydalanish usullari bo'yicha budjet va budjetdan tashqari moliyaviy resurslarni farqlash.

Shu bilan birga, temir yo'l transporti faoliyatining ayrim turlari, ya'ni infratuzilma, magistral temir yo'l tarmog'i xizmatlari, elektr ta'minoti

tizimlari va qurilmalari, lokomotiv xo'jaligi va boshqalar texnologik sabablarga ko'ra o'zining monopol xususiyatini saqlab qoldi. O'zbekiston temir yo'l transportini qayta tashkil etish ushbu tarmoqning sifatli boshqaruvi va optimal bozor tuzilmasini joriy etish uchun dastlabki shart-sharoitlarni yaratdi.

Temir yo'l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirishning imitatsion modelini ishlab chiqish transport infratuzilmasini takomillashtirish, logistika jarayonlarini samarali boshqarish va yuk hamda yo'lovchi tashish xizmatlarini optimallashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday model ishlab chiqishda temir yo'l tizimining mavjud iqtisodiy holati, transport oqimlarining dinamikasi va infratuzilmaga ta'sir etuvchi omillar inobatga olinishi kerak. Imitatsion model real bozor sharoitida turli ssenariylarni test qilish imkonini beradi va investitsiyalarni maqsadli yo'naltirishda strategik qarorlar qabul qilishni osonlashtiradi. Shuningdek, model transport xarajatlari, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, tashuvlarda vaqtni tejash va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi lozim. Temir yo'l tizimidagi logistika zanjirlarini takomillashtirish, texnologik yangilanishlarni joriy qilish va raqamli boshqaruv usullarini qo'llash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkin. Shu bilan birga, model transport operatorlari, yuk egalari va yo'lovchilar ehtiyojlarini hisobga olgan holda, davlat va xususiy sektor hamkorligi mexanizmini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, imitatsion model ishlab chiqish temir yo'l tizimini bozor talablariga moslashtirish va uning barqaror rivojlanishi uchun samarali vosita sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://data.worldbank.org/indicator/is.air.good.mt.k1>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 fevraldagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli farmoni. // www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24 yanvar 2020 yil.
4. Venables, A. J. (2007). Evaluating Urban Transport Improvements: Cost-Benefit Analysis in the Presence of Agglomeration and Income Taxation. *Journal of Transport Economics and Policy*, 41:173-188 p.
5. Kovrijных I.V. (2016) Analiz i otsenki effektivnosti upravleniya v organizatsii / I.V. Kovrijных. – Barnul: AF SibAGS – 86s.
6. Fayzullayev J.S. (2019) Improvement of Economic Efficiency of Development of Railway // *Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR)* ISSN: 2249 – 0892 Vol9 Issue-2. http://www.ajtmr.com/papers/Vol9Issue2/Vol9Iss2_P9.pdf
7. Fayzullayev, J.S. (2021) "Economic-mathematical model of evaluating the efficiency of the transport system," *Economics and Innovative Technologies*: No. 1, Article 1. <https://uzjournals.edu.uz/iqtisodiyot/vol2021/iss1/1>

8. Zohidov A.A. (2018) Markaziy osiyo transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takkomillashtirish. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent.

9. Frederick Starr S., Filat Yildiz, Martina reiser etc. The New Silk roads: Transport and trade in Greater Central Asia. (2007) Monograph Central AsiaCaucasus institute & Silk Road Studies Programm, Washington, D.C.: Johns Hopkins University-SAIS. – 514 p.

RAG‘BATLANTIRUVCHI HUQUQIY SIYOSAT – ISHDAGI YTUQLAR VA O‘Z MEHNAT VAZIFALARINI YUKSAK DARAJADA BAJARISH SAMARASI

Tursoatov S.X ¹, Abdullayev S.K.²

Annotatsiya. Maqolada huquqiy rag‘batlantirish tushunchasi, rag‘batlantiruvchi huquqiy siyosatning unda tutgan o‘rni, rag‘batlantiruvchi huquqiy siyosat tushunchasi, rag‘batlantiruvchi huquqiy siyosat borasida olimlar, tadqiqotchilarning fikrlari, rag‘batlantiruvchi huquqiy siyosatning belgilari, unga ta‘sir qiluvchi omillar, rag‘batlantiruvchi huquqiy siyosatning mohiyati va mazmuni, majburlash va rag‘batlantirishning jamiyat va insonlarga ta‘sir ko‘rsatuvchi huquqiy vositalar sifatidagi belgilari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: huquqiy rag‘batlantirish, siyosat, belgilar, mazmun-mohiyat, majburlash, mukofot, huquqiy vositalar.

O‘zbekiston huquqiy tizimini shakllantirishda huquqning rag‘batlantiruvchi usuli ustuvor ahamiyat kasb etib keldi. Mustaqillikdan so‘ng qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning tahlili shundan dalolat beradiki, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma‘naviy hayot sohalarini isloh etishda rag‘batlantiruvchi huquqiy siyosat keng miqyosda o‘z ifodasini topgan. Zero, jamiyatda olamshumul o‘zgarishlar, yangilanish, modernizatsiyalash amalga oshirilayotgan bir sharoitda uning huquqiy asosi, ta‘minotiga jiddiy e‘tibor beriladi. Jamiyat a‘zolarini Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar ishtirokchisiga aylantirish, har bir shaxs manfaatining qondirilishi islohotlarning samaradorligi va natijasiga bog‘liqligini anglab yetishi, ko‘p jihatdan davlatning

¹ Tursoatov Sodiqjon –Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi Umumkasbiy fanlar kafedirasi katta o‘qituvchisi

² Abdullayev Saloxiddin-Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi Mehnat sohasini boshqarish fakulteti yurisprudensiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi, “Adolat” talabalar ligasi tashkilotchisi.

rag'batlantiruvchi huquqiy siyosati va qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlari mazmuniga bog'liqdir. Bunda jamiyatning ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Yangi O'zbekistonni barpo etish - bu shunchaki xohish-istak, sub'ektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan ob'ektiv zaruratdir.

Biz bu yo'lda islohotlarimizning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan jamiyatimiz a'zolarining bilim va salohiyati, kuch va imkoniyatlarini, butun azmu shijoatimizni ishga solishimiz lozim. Shundagina mamlakatimiz xalqimiz orzu qilgan, jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro'-e'tiborga ega bo'lgan, har tomonlama obod va farovon davlatga aylanadi"[1.-B.3.]

Bunda jamiyat huquqiy tizimining barcha imkoniyatlari, ayniqsa huquqning rag'batlantiruvchi kuchidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Rag'batlantiruvchi huquqiy siyosat va uning mazmuni masalasi huquqshunoslikning muhim mavzularidan biridir. Rag'batlantiruvchi huquqiy siyosatni yoritishda umuman huquqiy siyosat tushunchasini tahlil etish maqsadga muvofiqdir.

Huquqiy siyosat hodisasi siyosat bilan huquqning o'zaro bog'liqligidan kelib chiqadi. Ularni birlashtirib turuvchi yagona asos - bu davlat hokimiyatidir. Har qanday davlat hokimiyati huquq yordamida yoki huquq vositasida o'z siyosatini ifodalaydi, mustahkamlaydi va amalga oshiradi.

Huquqiy siyosatning talqini borasida huquqshunoslik adabiyotlarida yagona fikr shakllangan emas. Jumladan, prof. A.V. Malko huquqiy siyosat deganda, tegishli tuzilma (eng avvalo davlat va mahalliy organlarning) samarali huquqiy tartibga solish mexanizmini yaratish, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini to'laroq ta'minlash, intizom, qonuniylik va huquqiy tartibotni mustahkamlash, huquqiy davlatchilikni shakllantirish, jamiyat va shaxsning yuksak huquqiy madaniyat va huquqiy hayoti darajasi kabi maqsadlarga erishishdagi ilmiy asoslangan, muntazam va tizimli faoliyatni tushunadi. Uning fikricha, huquqiy siyosat - bu eng avvalo huquqiy manbani optimallashtirish bo'yicha olib boriladigan tizimli faoliyat, jamiyat huquqiy hayotining muammolari, ehtiyojlariga javob bera oladigan chora-tadbirlar va xatti-harakatlar majmuasidir. Huquqshunoslikda «faol huquqiy siyosat», «huquqiy siyosat taktikasi» va

«strategiyasi» kabi tushunchalar farqlanadi. Faol huquqiy siyosat, *birinchidan*, huquqiy tizimning eng muhim muammolarini hal etish bilan, uni modernizatsiya qilish (huquqiy siyosat taktikasi); *ikkinchidan*, mamlakat huquqiy taraqqiyotining uzoq muddatga mo'ljallangan yo'nalishlarini belgilash (huquqiy siyosat strategiyasi)ni amalga oshirishi lozim[2. –S.9-10.].

Huquqiy siyosat muayyan mamlakatning huquqiy taraqqiyoti jarayonlarini boshqarish, huquqiy turmushni tashkil etish va tartibga solinganlik darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi. U huquqiy faoliyat, huquqiy sohadagi ustuvor yo'nalishlar tizimidan iborat bo'lib, konstitutsiya va umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalariga tayanadi, asosan normativ-huquqiy hujjatlarda mujassamlanadi. U jamiyat va davlatning tegishli organlari hamda o'zini-o'zi boshqarish organlarini, huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatning ilg'or-huquqiy taraqqiyoti va uning huquqiy tartibga solinishini takomillashtirish kabi dolzarb muammolarni hal etishga yo'naltiradi. Huquqiy siyosat mamlakat va hududning to'la qonli hamda samarali huquqiy tizimini shakllantirish uchun zarur[2. –S.10.].

Prof. Z.M.Islamov huquqiy siyosat tushunchasi va mohiyati, O'zbekiston Respublikasi huquqiy siyosatining maqsadi va vazifalarini yoritib, huquqiy siyosatga quyidagicha ta'rif beradi: «Huquqiy siyosat huquqning amal qilish sohasida hamda huquq vositasida amalga oshiriladigan g'oyalar, chora-tadbirlar, vazifalar, maqsadlar, uslublar va qoidalar majmuidir. Ayni chog'da huquqiy siyosat davlat siyosatini ifodalashning alohida shakli, mamlakatning siyosiy yo'nalishini, uning qonuniy rahbarlari va hokimiyat tuzilmalarining xohish-irodasini yuridik jihatdan qonuniylashtirish, mustahkamlab qo'yish va amalga oshirish vositasidir. Qolaversa, huquqiy siyosat jamiyatni o'zgartirishning qudratli vositasi hamdir»[3. –B.508.].

Prof. X.T.Odilqoriev «konstitutsiyaviy-huquqiy siyosat», «qonunchilik siyosati», «huquqiy siyosat» kabi tushunchalarni bir-biridan farqlaydi. Uning fikricha, qonunchilikni istiqbolga mo'ljallab rivojlantirishda belgilangan maqsad va samarali natijaga erishish uchun qat'iy huquqiy siyosatga, uning mustahkam prinsiplariga tayaniladi. Huquqiy siyosat esa davlatning huquqiy mafkurasi, uning huquqiy hayot bobida tutadigan yo'l-yo'rig'i, joriy etadigan amal va tadbirlari, qo'llanadigan rahbariy g'oyalari ifodasidir. Qonunchilik siyosati huquqiy siyosatning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, qonun hujjatlarida huquqiy siyosatning zamindor prinsiplari

mustahkamlanadi. «Huquqiy siyosat – davlatning ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish mexanizmini qaror toptirish va rivojlantirish, inson huquqlarini ta’minlash, qonuniylik va huquqiy tartibotni mustahkamlash, huquqiy tarbiya va madaniyatning yuksak darajasini ta’minlash yo’lida yuridik vositalardan oqilona foydalanish borasidagi muntazam faoliyatidir» [4.–B.3-4.].

Shunday qilib, huquqiy siyosat umumiy siyosatning ajralmas tarkibiy qismi bo’lib, u jamiyat hayotining barcha qirralarini qamrab oladi. Jamiyatning ilg’or huquqiy tizimini shakllantirish, huquqiy manbani takomillashtirish, huquqiy hayot muammolarini hal etishga yo’naltirilgan ilmiy asoslangan, tizimli, muntazam faoliyatdir.

Huquqiy siyosat mazkur yo’nalishining jozibadorligi va ustuvor xolati shu bilan izohlanadi, inson tabiatiga mos ravishda faoliyatni rag’batlantirishni qo’llashi va shaxsning faoliyati ustidan qattiq nazoratning yo’qligi tashabbus va ijodiy faollikni namoyon qilishga turtki beradi.

Rus tadqiqotchisi O.Kiselyova rag’batlantiruvchi siyosatni tavsiflovchi quyidagi belgilarni ajratadi: *birinchisi*, mazkur siyosatning manbai bo’lib davlat hisoblanadi; *ikkinchisi*, mazkur siyosatning namoyon bo’lishi, turli-tuman rag’batlar sifatidagi yuridik vositalarni o’zida mujassamlagan normativ-huquqiy hujjatlar shaklida tatbiq etiladi; *uchinchisi*, rag’batlantiruvchi siyosatni amalga oshirish natajasida, shaxs mafaatlarini qondirishga va jamiyatning progressiv taraqqiyotiga teng ko’maklashuvchi qulay huquqiy rejim vujudga keladi[5.].

Rag’batlantiruvchi huquqiy siyosatning mohiyati shundan iboratki, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun huquqiy tartibga solishning maxsus usuli sifatida davlat rag’batlantirishlarini qo’llash sohasi juda kengayadi. Davlat rag’batlantiruvchi siyosatni hayotga tatbiq etib, xulq-atvor qoidalarini rag’batlantiruvchi vositalar yordamida tartibga solish alohida etiborga sazovorligini takidlaydi, shu bilan shaxsning aqliy salohiyati, tashabbuskorligi, ijodkorligini, tadbirkorligini faollashtiradi[5.].

Huquqshunoslik adabiyotlarida insonlarga ta’sir ko’rsatuvchi huquqiy vositalar sirasiga – majburlash va rag’batlantirish kiritiladi. Davlatchilik shakllangan paytdanoq ushbu ikki vosita jamiyatni huquqiy jihatdan boshqarish usuli bo’lib kelgan. Arastuning ta’kidlashicha, axloqiy ezgulik hirs-ehtiros va qilmish bilan aloqador ekan, ixtiyoriy ehtiros va qilmishlar uchun maqtaydi yoki qoralaydi, ixtiyorsizi uchun esa hamdardlik bildiradi. Shuning uchun ixtiyoriy va ixtiyorsiz ezgulik farqlanadi. Xuddi shuni qonun

ijodkori ham mukofotlar va jazo belgilash yo'li bilan qo'llashi mumkin[6.-S.95.].

Prof. A.V.Malkoning fikricha, huquqiy rag'batlantirish, bu ixtiyoriy yuksak xulq-atvorning huquqiy ma'qullash shakli va usuli bo'lib, buning natijasida sub'ekt rag'batlantiriladi va uning uchun maqbul bo'lgan oqibat kelib chiqadi[2. -S.164].

Shunday qilib, huquqiy rag'batlantirish jamiyat hayoti uchun muhim ahamiyat kasb etib, insonni ezgulikka intilishiga, o'z xizmat majburiyatlari, jamiyat oldidagi mas'uliyatini chuqur his etishiga asoslanadi. Huquqiy rag'batlantirish davlat hokimiyati organlari tomonidan shaxs yuksak huquqiy xulq-atvorini tan olish va ma'qullash shaklidir.

Huquqshunoslik adabiyotlarida rag'batlantirishning quyidagi belgilari ajratib ko'rsatiladi:

birinchidan, rag'batlantirish sub'ekt tomonidan o'zining majburiyatlarini oshirib bajarishi yoki u tomonidan umume'tirof etilgan foydali natijaga erishish bilan bog'liq hamda rag'batlantirishni qo'llash uchun asos bo'luvchi vijdonan amalga oshiriladigan huquqiy xatti-harakat sifatida tushuniladigan yuksak xulq-atvor munosabatidir;

ikkinchidan, rag'batlantirish faqat ixtiyoriy xatti-harakat bilan bog'liq. Rag'batlantiruvchi normada jamiyat va davlat uchun lozim bo'lgan harakatni amalga oshirishiga, lekin har bir alohida shaxsga majburiy bo'lmagan chaqiriq yotadi. Shu bilan birga bunday xulq-atvorni tanlash shaxsga muayyan qo'shimcha ne'matlar berish va'dasi bilan mustahkamlanadi. Rag'batlantirish o'zining tartibga solish ta'sirida shaxsga u yoki bu ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan xulq-atvorni qat'iy belgilamaydi, balki normada mustahkamlangan oqibatlarning foydaligi hamda jozibaligi bilan majburlovsiz ta'sir ko'rsatadi.

Rag'batlantiruvchi normalarda ixtiyoriylik va vijdoniylikka urg'u berilishi, ularni jazo choralariga ko'ra, yanada ko'proq moslashuvchi va diplomatik huquqiy vositalarga aylantiradi, ko'proq axloqiy asoslarga qurilgan yanada yuqori darajadagi ijtimoiy tartibga solish tizimini shakllantirish sohasida ularga keng imkoniyat yaratadi;

uchinchidan, rag'batlantirish choralari, jamiyat va davlat tomonidan ixtiyoriy yuksak xulq-atvorni mukofotlash shakli bo'lib, ijobiy xatti-harakatni huquqiy jihatdan ma'qullaydi. Rag'batlantirish – ma'qullashning bir turidir. Huquqiy rag'batlantirish uchun, xizmat ko'rsatish darajasiga bog'liq bo'lgan, tegishli miqdor va sifat tavsiflari (o'lchovlari)ga ega bo'lgan ma'qullashning faqat muayyan turlari – yuridik ma'qullash talab etiladi;

to'rtinchidan, rag'batlantirish ham davlat va jamiyat va ham rag'batlantirilayotgan sub'ekt uchun o'zaro foydali bo'lib, turli mukofotlarni uyg'unlashtiradi, har ikki tomon uchun maqbul bo'lgan oqibatlar bilan qoniqtiradi. Bu umum (mahalliy, davlat, jamiyat) manfaati uchun faol va majburlovsiz ishlayotgan yuridik vositalardan biridir;

beshinchidan, rag'batlantirish – qoidaga ko'ra, o'ta ta'sirchan bo'lgan huquqiy stimuldir. Masalan, mukofot nafaqat insonni zarur natijaga erishishga bo'lgan qiziqishi orqali yuqori sifatli va unumdor mehnatga undaydi, shu bilan birga uni (yana ijobiy usullar yordamida) ijtimoiy xavfli va qonunga xilof xulq-atvordan saqlaydi;

oltinchidan, rag'batlantirish alohida sub'ektlarga odatiy faoliyatdan ustun bo'lgan ijobiy natijalarga erishganligi uchun vakolatli organlar tomonidan individual hujjatlarni qabul qilishda ifodalanadigan huquqni qo'llash shaklida amalga oshiriladi[3.–B.789.; 2. –S.164-166.].

Rag'batlantirishni mukofotlash va ishontirish kabi tushunchalar bilan nisbatini aniqlash zarur. «Mukofotlash» ikki ma'noda ishlatiladi: mukofot va xizmat uchun haq to'lash. Mukofot rag'batlantirishning tarkibiy qismi hisoblanadi. O'zbek tilining izohli lug'atida mukofot va mukofotlash iboralari farqlanadi. Unga ko'ra, mukofot arabcha so'z bo'lib, taqdirlash, to'lov, tovon puli ma'nolarini anglatib, biron-bir faoliyat sohasidagi alohida yutuqlar uchun rag'batlantirish shakli (qimmatli buyum, pul, medal, orden va sh.k.); kishining o'z qilmishi, xatti-harakati uchun qaytgan qarimta, umuman sovg'a, tortiq tushuniladi[7. –B.633.].

Shunday qilib, O'zbekistonda ilmiy asoslangan, muntazam va puxta o'ylangan rag'batlantiruvchi huquqiy siyosatning amalga oshirilishi jamiyatni rivojlantirish, jamiyat va davlat oldida turgan vazifalarni samarali hal etish, jamiyat hayoti sohalarida ulkan yutuqlarga erishishda beqiyos ahamiyatga ega. Huquqiy tizimda rag'batlantirish usulini tobora ko'proq tatbiq etish orqali jamiyatning yuksak taraqqiyotiga turtki beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. - Тошкент: "O'zbekiston" нашриёти, 2022. - 440 бет.
2. Малько А.В. Льготная и поощрительная правовая политика. –Спб.: Издательство «Юридический центр Пресс», 2004. –233 с.
3. Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Масъул муҳаррирлар: Ҳ.Раҳмонқулов, академик, ю.ф.д., проф., -Ҳ.Бобоев, ю.ф.д., проф. Т.: Адолат, 2007. – 917 б.

4. Одилқориев Х.Т. Конституциявий-ҳуқуқий сиёсат ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш // Ҳуқуқ – Право – Law. 2002. №4. 3–12-б.

5. Киселёва О. М. Поощрения как метод правового регулирования. Автореф. дисс. ... к. ю. н., Саратов, 2000. -24 с.

6. Аристотель. Никомахова этика // Сочинения: в 4-х т. Т.4/ Пер. с древнегреч.; Общ. Ред. А.И.Доватура. –М.: Мысль, 1983. –230 с.



7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, Тошкент, –Б.633.

8. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 12.04.2018 й., 03/18/473/1058-сон; 05.09.2019 й., 03/19/564/3690-сон; 12.03.2020 й., 03/20/609/0287-сон, 27.05.2020 й., 03/20/620/0667-сон, 27.05.2020 й., 03/20/621/0668-сон, 10.06.2020 й., 03/20/622/0744-сон, 01.12.2020 й., 03/20/650/1576-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон; 16.08.2022 й., 03/22/789/0742-сон4.

FOTOALBOM \ \ ФОТОАЛЬБОМ



Конференцияга tayyorgarlik va tabriklar Подготовка к конференции и поздравления



Konferensiya ishtirokchilarini kutib olish va ro'yxatdan o'tkazish Встреча и регистрация участников конференции



Konferensiyaning ochilishi va yalpi majlisdagi ma'ruzalar Открытие конференции и выступления на пленарном заседании



Sho'balar bo'yicha ma'ruzalar va ishtirokchilarni taqdirlash Выступления
на секционном заседании и награждение участников



MUNDARIJA

SO'ZBOSHI. Rafiqov Quدراتilla Mirsagatovich, XAMZAYEV Abdushukur Xudoyqulovich.....	3
I sho'ba. O'ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI HARAKATI: KECHA, BUGUN, ERTAGA	8
ЗЕЛЕНый ШТРИХ БУДУЩЕГО. Гаибназарова Н.Б	8
ПУТЬ ОТ ПЕРВЫХ НЕФОРМАЛЬНЫХ ОБЪЕДИНЕНИЙ__ДО СОВРЕМЕННОГО ПРОФСОЮЗНОГО ИНСТИТУТА. . Пармонов Г. М., Максудова Н.А.	16
KASABA UYUSHMALARI – KECHA VA BUGUN . Mirzayev B. Y., Kimsanboyeva Z.A., Xudoynazorova A. M.....	21
KASABA UYUSHMALARI VA ULARDAGI GENDER TENGLIK MASALALARI. Mansurova N.D.	25
МЕХНАТ ЖАМОАСИДА КАСАБА UYUSHMASINING O'RNI VA AHAMIYATI . Berdiniyazova N.K.....	29
KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI. МЕХНАТ MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLISHDA KASABA UYUSHMALARINING ROLI . Kushmakov R. T.....	33
НА ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ РОЛИ ПРОФСОЮЗОВ В ПРАВОТВОРЧЕСТВЕ. Абдуллаева Д.К.	38
II sho'ba. EKOLOGIK XAVFSIZLIKNING YURIDIK JIXATLARINI ZAMON TALABLARIGA MOSLASHTIRISH	42
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK QONUNCHILIK VA YASHIL TARAQQIYOTINING HUQUQIY ASOSLARI . Xudoyberdiev. A.....	42
EKOLOGIYA SOHASIDA SODIR QILINADIGAN HQHQBUZARLIKLAR VA JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIKNING YURIDIK ASOSLARI . Xojiyeva R.X.....	44
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDAGI EKOLOGIK TALABLARGA KRIATIV YONDASHUV. Ro'ziyev Sh.A. , Nigmatov A.N.	48
O'ZBEKISTONING FAO BILAN O'ZARO XAMKORLIK YO'NALISHLARI VA UNING ISTIQBOLLARI . Xodjayeva A.B.....	53
"O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI, EKOLOGIK TAMOYILLARNI INTEGRATSIYALASH, MRV TIZIMI VA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISH ORQALI AMALGA OSHIRILISHI: MUAMMOLAR, INNOVATSION YECHIMLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI" Abdullayev S.K , Mansurova M.M	57
EKOLOGIK XAVFSIZLIK VA INSON HUQUQLARI: DAVLATNING HUQUQIY MAJBURIYATLARI. To'xtashev H.I.1, Tursunkulov E.O.....	66
"YASHIL MAKON" LOYIHASI: DARAXTLARNI TEKIN FOYDALANISHGA BERISH SHARTNOMASINING HUQUQIY ASOSLARI VA NOTARIAL TASDIQLANISHINING AHAMIYATI. G'ofurova D.M., Muxtorov K.M.	72

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI VA BOSHQA DAVLATLAR KONSTITUTSIYALARI (MASALAN, GERMANIYA, BUYUK BRITANIYA VA AQSH) HUQUQ TIZIMLARIDAGI SUD FAOLIYATINI TARTIBGA SOLUVCHI NORMALARNI TAQQOSLASHDA, ROMAN-GERMAN HUQUQ TIZIMI VA ANGLO-SAKSON HUQUQ TIZIMLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Tursoatov S.X , Abdullayev S.K.	76
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA HUQUQIY JAVOBGARLIK MASALALARI . Odilov N. J.....	86
2025-YIL "YASHIL IQTISODIYOT" YILIDA DASTLABKI TERGOVNING O'RNI VA VAZIFALARI . G'ofurov R. R.	90
"MILLIY VA XALQARO EKOLOGIK QONUNCHILIK UYG'UNLIGI: EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUV". Mansurova M.M, Abdullayev S.K.	96
EKOLOGIK JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIK: O'ZBEKISTON JINOYAT QONUNCHILIGIDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR. Namdarova M.1 Musaeva Sh.....	102
ATROF-MUHIT VA HUQUQ HIMOYASI UCHUN QONUNLAR YETARLIMI ? . Askarov A. B. Dadaboeva D.	105
MILLIY VA XALQARO EKOLOGIK QONUNCHILIK UYG'UNLIGI: EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUV . Mansurova M. M , Abdullayev S.K.	108
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИИ НА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ НАСЕЛЕНИЯ . Бахтиёрова З. Б.....	142
EKOLOGIK XAVFSIZLIK VA YASHIL MAKON: BARQAROR KELAJAKNING ASOSI. Imomnazarov O'. O'.....	144
ПЕРСПЕКТИВЫ И ВЫЗОВЫ ПЕРЕХОДА К «ЗЕЛЁНЫМ» ГОСУДАРСТВЕННЫМ УСЛУГАМ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ: АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОЙ АСПЕКТ. Салиева Ш. У	113
SANOAT CHIQINDILARI VA EKOLOGIK XAVFSIZLIK: YURIDIK TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI. Aliqulov A.E. Dadaboeva D.N.....	117
EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARGA YECHIM TOPISH ORQALI AHOLINING XAVFSIZLIGINI HAMDA IJTIMOY MUHOFAZASINI TA'MINLASH . Turonova S.B., Pardayeva Z.I., Abdujabborova S.G.....	120
III sho'ba. ATROF-MUHITNI SOG'LOMLASHTIRISHNING IQTISODIY, IJTIMOY VA PSIXOLOGIK MASALALARI	125
XALQ OG'ZAKI IJODI JANRLARIDA TABIATNI ASRAB-AVAYLASH__VA EKOLOGIK TARBIYA MASALALARI. Tadjibayeva Sh.A.....	125
КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К УЛУЧШЕНИЮ СОСТОЯНИЯ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ: ЭКОНОМИЧЕСКИЕ, СОЦИАЛЬНЫЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ Усманова Х. Э	127

ATROF-MUHITNING INSON PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI . Saidboboyeva.P.A, Zakirov.A.A	130
EKOLOGIYA VA INSON SALOMATLIGINING BOG'LIQLIGI. EKOPSIXOLOGIYA Qodirshayeva G.Sh, O'ktamova.Y.R	134
ATROF MUHIT VA EKOLOGIYANING INSON RUHIYATIGA TA'SIRI Raxmatullayeva X.B, Yunusxodjayev Z.Sh	137
IV sho'ba. EKOLOGIK XAVFSIZLIK – XAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA.....	150
ATROF-MUHIT MONITORINGI AHAMIYATI VA ZARURATI Parmonov G'M.....	150
СОБЦИОННЫЕ МАТЕРИАЛЫ ДЛЯ ОЧИСТКИ ОТХОДОВ ОРГАНИЧЕСКИХ СОЕДИНЕНИЙ Қодиров Д.Д, Кодирова Н.К.	155
EKOLOGIK XAVFLARNING SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISHGA TA'SIRI Yaqubov T.B , Sodiqov D. , Farxodova M.	158
KORXONALARNING ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATIDA EKOLOGIK AUDIT Hakimov A.L.....	165
ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ Рахимова Д.К.....	170
МАМЛАКАТИМИЗДА EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHGA OID ISLOHOTLAR Karimova Sh.Sh.....	173
V sho'ba. AHOLINI IJTIMOIIY EKOLOGIK MUHOFAZA QILISHDA TA'LIM VA TARBIYANING ROLI	179
«УМНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ» – КАК СПОСОБ ИННОВАЦИОННОГО ЭКОЛОГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ Нигматов А.Н.	179
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING MILLIY XUSUSIYATLARI Adilov B.U.....	183
XORAZM VOHASINING O'ZBEKISTON QISMIDA QURG'OQCHILIK XAVFIGA MOSLASHISHNING GEOEKOLOGIK CHORA-TADBIRLARI Matchanov M.J. , Ibragimov O.A. , Matchanov O.J.....	187
ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОХРАНЫ ТРУДА В УЗБЕКИСТАНЕ: НОРМАТИВНО- ПРАВОВОЙ И ПРОФСОЮЗНЫЙ ПОДХОД Исомиддинова Р.Б	195
EKOLOGIYA VA TABIATNI MUHOFAZA QILISHDA JAMIYAT VA INSONIYATNING ROLI Savriddinov A.A, Jo'raqulov M.F.....	198
EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL QILISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI Savriddinov A.A, Abruyev Sh.A.....	201
O'ZBEKISTONDA HUQUQIY SIYOSATIDA RAG'BATLANTIRISH SIYOSATINING ISTIQBOLLARI. Tursoatov S.X.....	204
EKOLIGIYA FANI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH IMKONIYATLARI Siddikov A.A, Eshtayev D.R.....	209

VI sho'ba. KORPORATIV BOSHQARUVDA "YASHIL IQTISODIYOT"	212
MINTAQADA IJTIMOYIY-DEMOGRAFIK SIYOSATNI SHAKLLANTIRISH HAMDA AMALGA OSHIRISHNING MOHIYATI VA ROLI Mirzadjanov A.X.....	212
TEMIR YO'L TRANSPORT TIZIMINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI Bozorboev X.....	217
RAG'BATLANTIRUVCHI HUQUQIY SIYOSAT - ISHDAGI YUTUQLAR VA O'Z MEHNAT VAZIFALARINI YUKSAK DARAJADA BAJARISH SAMARASI...ю.....	221
FOTOALBOM	
ФОТОАЛБОМ.....	229

\\